

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

NORPULATOV UMIDJON

“Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda ekologik muammolarni hal etish va
uning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri”

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Termiz – 2012

Mundarija

Kirish

I-Bob. O'zbekistonda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning nazariy-huquqiy asoslari

1.1 Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning mohiyati va xususiyatlari.

1.2 Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish munosabatlarining iqtisodiyotdagi ahamiyati.

II-Bob. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ekologik jihatlari.

2.1 Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi va unga ta'sir etuvchi asosiy omillar.

2.2 Ayrim sanoat tarmoqlarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning xususiyatlari tahlili.

2.3 Rivojlangan davlatlarda sanoat sohasining rivojlanish tajribalari.

III-Bob. Sanoat sohasining rivojlanishida ekologik muammolar.

3.1 Sanoat sohasini rivojlanishida ekologik muammolarning bartaraf etish yo'llari.

3.2 Sanoat sohasi rivojlanishining samaradorligini oshirish masalalari.

Xulosa va takliflar.

Foydalanilgan adabiyotlar .

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunning eng dolzarb muammosi – bu barchani tashvishga solayotgan sanoat ishlab chiqarishi rivojlanishida ekologik

muammolarni bartaraf etish va uning salbiy ta'sirida yuzaga kelayotgan vaziyatlardan chiqish yo'llarini izlab topishdan iborat. Ekologik xavfsizlik kishilik jamiyatining bugungi va ertasi kun dolzarbligi bois eng muhim muammolarni bartaraf etish yo'llari va choralari izlashni taqazo etmoqda. Ushbu jihatlar magistirlilik dissertatsiya mavzusining dolzarbligini anglatadi. Prezidentimiz Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" nomli asarida ta'kidlanganidek, "Xalqaro hamjamiyat insonning nafaqat yashash xuquqi balki to'laqonli va sog'lom turmush kechirishi uchun zaril mo'tadil atrof-muhit sharoitlariga ham bo'lgan xuquqlarning muqaddas dahlsizligini etirof etgan. Ekologik havfsizlik kishilik jamiyatining bugungi va ertasi uchun dolzarbligi juda zarurligi bois eng muhim muammolar jumlasiga kiradi..." Mamlakat sanoatini rivojlantirishda xalqaro xuquqiy tajriba, zamonaviy fan texnika va texnologiyalar asosida ekologik havfsizligini mukammal tizimini shakllantirish O'zbekistonda bu borada amalga oshirilayotgan islohatlarning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda ekologik havfsizlik sohasidagi siyosat O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik kontsepsiyasi, shuningdek atrof-muhit va barqaror rivojlanish bo'yicha Rio-de-Janeyro va Yoxannesburg deklaratsiyalarining tamoyilari asosida halkaro konventsiya va shartnomalardan hamda yetakchi davlatning qonunchilik sohasidagi tajribalaridan kelib chiqadigan davlat majburiyatlarini hisobga olgan holda olib borilmoqda. Milliy siyosat va halqaro xamkorlikning asosiy yo'nalishlari mamlakatning ekologik salohiyatini saqlashga va mustaxkamlashga asoslangan. Shu maqsadda O'zbekiston Birlashgan Mamlakatlar Tashkiloti, Yevropada Havfsizlik va Xamkorlik Tashkiloti bilan atrof tabiiy muhitini muxofaza kilish soxasida faol xamkorlikni yo'lga qo'yib, atrof-muhit va barqaror rivojlanish bo'yicha o'nlab halqaro konventsiyalarni ratifikatsiya qildi. Halqaro mintaqaviy munosabatlarni hal etish uchun Barqaror rivojlanish kontsepsiyasi, "XXI asr kun tartibi", atrof-muhit, aholi salomatligi muhofazasi, biologik xilma-xillikni saqlash chullanishga qarshi kurash ozon qatlamini yemiruvchi moddalardan foydalanishni to'xtatish, chiqindilarni boshqarish bo'yicha Milliy harakat rejalari, issiqxona gazlar

emissiyasini kamaytirish Milliy strategiyasi va boshqalar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2006 yil 16-martdagi 2006-2010 yildagi "O'zbekiston Respublikasi atrof tabiiy muhit monitoring Dasturi to'g'risida"gi 48-sonli qarorini bajarish maqsadida, O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitni ifloslantiruvchi manbalar monitoringini olib borish ishlari amalga oshirildi. Atrof-muhitni ifloslantiruvchi 6500ga yaqin manba ko'zdan kechirildi va atrof muhitni belgilangan ekologik me'yordan ortiqcha ifloslantirilgan 349 ta manba aniqlandi. Tabiatni muhofaza qilish qonunchiligiga amal qilgan ishi bo'yicha oldini oluvchi profilaktik tadbirlarni keng targ'ibotining ko'paytirilganligi, shuningdek jaxon iqtisodiy inqirozini oldini olish bo'yicha respublika raxbariyati ko'rsatgan chora-tadbirlar bajarishi natijasida tekshirishlar soni 2010 yildagiga nisbatan 66,2%ga qisqartirilib tekshirishlarning yuqori samaradorligiga erishildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi . Bugungi kunga kelib sanoat sohasi yuksalishida ekologik-muhitga zamonaviy fan-texnika taraqqiyotining ta'siri natijasi o'ta kengayib bormoqda. Inson ekologiyasi yangi fan sifatida 1921 yil amerikalik olimlar Borjes va Park tomonidan kiritilgan. Dastlab inson ekologiyasi tabiiy soha sifatida qaralib keyinchalik uning ijtimoiy, texnik, me'moriy, iqtisodiy tomonlari ham o'rganildi. Unga birinchi bo'lib Raderik Mak Kenzel fikr bergan. Shunday qilib ekologiya bugungi kunda tabiiy va ijtimoiy fanlar jumlasiga kirib, o'rganilayotgan ob'ekt yoki tizimni atrof-muxit bilan munosabatini keng miqyosida tadbiq etadi. Xorijlik ekologiya mutaxassislari D.N. Kamkarov, V.V.Olexin va boshqalarning ilmiy ishlarida mazkur masalalar o'rganilgan. Respublikamiz ekologik olimlari va mutaxassislaridan I.A.Karimov, A.To'xtaev, M.Nabiev, Yu.Shodimetov, Sh.Otaboev, A.Xoshimov, X.Oxunov A.Xolmurodov, S.Mustafoev, A.Ergashev va boshqalarning ilmiy ishlari va asarlarida ekologik muammolar va ularning kelib chiqish sabablarini tadqiq etishgan. Ammo sanoat sohasida ekologik muammolarni bartaraf etish zaruriyatining kuchayishi mazkur mavzuni yanada chuqurroq tadqiq etishni talab qilmoqda.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ekologik muammolarni hal etish va uning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini o'rganish asosida ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot maqsadlaridan kelib chiqqan holda qo'yidagi vazifalarni hal etish ko'zda tutilgan:

- Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning mohiyati va xususiyatlari o'rganish;
- Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish munosabatlarining iqtisodiyotdagi ahamiyatini tadqiq qilish;
- Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi va unga ta'sir etuvchi asosiy omillar va ayrim sanoat tarmoqlarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning ekologik xususiyatlari va muammolari tahlilini amalga oshirish;
- hozirgi kunda sanoat sohasida ekologik muammo sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini izlash;

Tadqiqot ob'ekti. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ekologik muammolarni hal etishda ishtirok etayotgan iqtisodiyotimizning tarmoqlari, kompaniyalari ushbu tadqiqotning ob'ektini tashkil etadi.

Tadqiqot predmeti: Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda ekologik muammolar va uning iqtisodiy samaradorligiga ta'siri bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar yig'indisidan iborat.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida kuzatish, guruhlash, qiyosiy taqqoslash, tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi qo'yidagilarda o'z ifodasini topgan:

- sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning xususiyatlari va iqtisodiy ahamiyati asoslangan;

- sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning ekologik muammolarning hozirgi holati tahlil qilingan;
- hozirgi kunda sanoat sohasida ekologik muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;
- sanoat sohasi yuksalishi bilan bog'liq ekologik sabablar yechimini hal etilishida ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan;
- Mamlakatimiz sanoat sohasida ekologik muammolarini bartaraf etishda jahon tajribasini o'rganish va umumlashtirish asosida ekologik muammolarni davlatlar tomonidan tartibga solish va muvofiqlashtirish zaruriyati va yo'nalishlari aniqlangan;

Ishning amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati – O'zbekistonda sanoat sohasini faoliyati mexanizmini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi, davlatning maqsadli dasturlari ishlab chiqilishida qo'llanilishi mumkin. Dissertatsiya materiallaridan oliy o'quv yurtlarida «Sanoat iqtisodiyoti», «Milliy iqtisodiyot» fanlari o'quv dasturlarini takomillashtirishda va o'qitishda foydalanish mumkin.

Ishning tarkibi. Magistrlik dissertatsiyasi tarkibi kirish, uchta bob, 150 bet , 25-jadval, 7-chizma, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I-bob. O'zbekistonda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning nazariy-huquqiy asoslari.

1.1 Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning mohiyati va xususiyatlari.

Sanoat-bu ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Demak, sanoat ob'ektiv reallik (borliq)ning in'ikosi va yuksak umumlashmasidir. Uning alohida tarmoq, ya'ni ijtimoiy ishlab chiqarishning alohida sohasi bo'lib yuzaga kelishi ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy mehnat taqsimotining rivoji bilan tarixiy jihatdan bog'liqdir. Sanoat ham ob'ektiv borliqning muhim hodisalari qatorida ma'lum davr (vaqt va fazo) da dunyoga kelgan, muayyan qonun va qoidalar asosida rivojlangan, ma'lum miqdor va sifatlarga, zaruriyat va imkoniyatlarga ega bo'lgan hamda ziddiyatlar qurboni ham bo'lgan.

O'zbekiston sanoati ham o'z taraqqiyoti jarayonida bir qator bosqichlarni bosib o'tgan. Eng avvalo, uy sanoati ("Ona qornidagi sanoat"), so'ngra,

hunarmandchilik, ya'ni xonaki sanoat, kooperatsiya, manufaktura, fabrika kabi shakllari yuzaga kelgan. Bu yerda hunarmandchilikning juda ko'p turlari, ya'ni kulolchilik, duradgorchilik, toshtarashlik, binokorlik, o'ymakorlik, kashtado'zlik, ko'nchilik, to'quvchilik va tikuvchilik, temirchilik, misgarlik va zargarlik, degrezlik, rixtagarlik, zardo'zlik, bo'yoqchilik, tunukasozlik va boshqalar keng tarqalgan.

Bu yerda hunarmandchilik ("Xonaki sanoat") bronza asrida dehqonchilikdan ajralib chiqqan. Milodning dastlabki asrlarida hozirgi O'zbekiston hududida anchagina hunarmandchilik markazlari tashkil topgan. IX-X asrlarda ip, mato, gilam bo'yicha Xiva va Shosh, mis va temirdan aslaha, pichoq tayyorlash bo'yicha Farg'ona, shoyi matolar, shisha mahsulotlar tayyorlash bo'yicha Buxoro dunyoga tanilgan. XII-XIII asrlarda rivojlanish pasayib, Temuriylar davlatining vujudga kelishi bilan hunarmandchilik yana rivoj topgan. Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent, Shahrisabz kabi shaharlarning ishlab chiqarish munosabatlarida hunarmandchilik alohida ahamiyat kasb etgan. XIX asr oxiriga kelib, O'zbekistonda hunarmandchilikning 30 ga yaqin turi rivoj topgan. XX asr boshlarida esa hunarmandchilikning asosiy qismi artellarga, keyinchalik zavod va fabrikalarga, badiiy buyumlar korxonalariga aylantirilgan.

XX asrda O'zbekiston sanoatida juda katta o'zgarishlar ro'y berdi. Agar asr boshlarida sanoat mahsulotining eng muhim turlaridan 5-10 xili (paxta tolasi, xom ipak, o'simlik moyi, uzum vinosi, g'isht, ganch va boshqalar) ishlab chiqarilgan bo'lsa, hozirgi paytda yuzlab-minglab turlari tayyorlanmoqda.

Sanoat moddiy ishlab chiqarishning asosiy va yetakchi tarmog'idir. Sanoatning vujudga kelishi va rivojlanishi ishchilar sonining oshishi va uning jamiyatdagi mavqei ko'tarilishiga olib keladi. Mustaqillik davrida jamiyatni tarixiy jihatdan yangilashda ishchilarning avangardlik roli to'g'risida gap yuritilar ekan, faqat ishchilar sinfigina mehnatkashlar ommasining birlashuviga, jipslashuviga va istiqlolni himoya qilishga, mustahkamlashga va uni uzil-kesil ta'minlashga yordam bera oladi, deyish mumkin. Ana shu fikrni O'zbekiston voqe'ligi kun sayin

tasdiqlamoqda. O'zbekiston ishchisi respublika yalpi ijtimoiy mahsulotining, milliy daromadning asosiy qismini bunyod etmoqda, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini yuqori darajaga ko'tarishda faol ishtirok etayotir.

O'zbekiston respublikasi ishchilari qiyofasida ham barcha rivojlangan mamlakatlar ishchilaridagidek, ongli industrial mehnatkashning va insonlar munosabatining yuksak normalari va umuminsoniy tamoyillarini, qadriyatlarini qaror toptiruvchi, yangi hayot uchun ilg'or kurashchi hislatlari bir butun bo'lib mujassamlashgan.

Sanoat taraqqiyotining muhim qonuniyatlaridan biri sanoat xodimlarining madaniy-texnikaviy, ma'naviy-ma'rifiy darajasining o'sishi, ishlab chiqarish malakasi va tajribasining tinmay oshib borishidir. O'zbekiston mehnatkashlarining bilim va ko'nikmasi, ishlab chiqarish malakasi va mahorati, madaniy va ma'rifiy saviyasini yuqori darajaga ko'tarish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarda ham sanoatning yuqori o'rin tutishini ko'rish mumkin. **Sanoat** mamlakat mudofaa qobiliyatining moddiy bazasi, el-yurtda tinchlik va barqarorlikni saqlashning muhim omili, qo'shni mamlakatlar mustaqilligini, hamkorligi va birdamligini ta'minlovchi muhim sohadir. O'zbekiston davlati mudofaasini kafolatlashda sanoatning roli bebahodir. **Sanoat** shunday tarmoqki, barcha mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va tashkiliy intilishlari, ularning xo'jalik jihatdan birlashishi, ya'ni iqtisodiy integratsiya tavsifida o'z ifodasini topadi. Natijada barcha mamlakatlarning tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslaridan, fan-texnikaning barcha yutuqlaridan oqilona foydalanish imkoniyatlari yuzaga keladi. **Sanoat**, ayniqsa og'ir sanoat butun ijtimoiy ishlab chiqarishni idustrlashtirish muammolarini hal etish kalitidir. Shu sababli jamiyatning moddiy-texnika bazasini qaytadan qurish ishini o'zbek halqi Prezident rahbarligida umuman sanoat, xususan, uning eng muhim sohalarini rivojlantirishdan boshladi. Chunki bu sohalar O'zbekiston Respublikasining rivojlantirishdan boshladi. Chunki bu sohalar O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy qudratini, xalq farovonligini yanada oshirishning poydevori bo'lib hisoblanar edi, bundan keyin ham shunday bo'lib qolaveradi.

Bu Respublikada amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ob'ektiv sharoitlari, O'zbekiston Davlati iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari va bu yerda amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati, ahamiyati va mazmuni bilan belgilanadi. Ulardan eng muhimlari quyidagilardan iborat:

- mustaqil va qudratli davlat iqtisodiy siyosatining mohiyati va maqsadini tushungan holda sanoat ishlab chiqarishi hamda uning bo'g'inlarida bu siyosatni amalga oshirishning yo'l-yo'riqlarini to'la anglash;
- sanoat ishlab chiqarishining holati va rivojlanish xususiyatlarini o'rganish, tahlil etish va uning istiqbolini belgilashni fikrlash;
- sanoat ishlab chiqarishini tashkil etish, boshqarish, samaradorligini oshirishning ilmiy va amaliy asoslarini aniqlash bo'yicha bilim va ko'nikma berish;
- sanoat resurslari, ishlab chiqarish fondlari va quvvatlaridan bekamu ko'st, oqilona foydalanish;
- fan-texnika taraqqiyotining iqtisodiy ahamiyati va mohiyatini tahlil etish, sanoat mahsulotlarining sifati va uning raqobatbardoshligini ta'minlash, ishlab chiqarishning foydaliligini kuchaytirish san'atini egallashga yordam beradigan bilim va ko'nikma berish.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishni ta'minlovchi buyuk harakatlantiruvchi kuch – bu raqobat, ya'ni bellashuv, raqiblar kurashi ham sanoat sohasida rivoj topadi. Ilg'or texnika va texnologiyalardan foydalanish, materiallarning yangi turlarini yaratish, mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishdagi mahsulotlarning raqobatbardoshligini yuqori darajaga ko'tarish, ishlab chiqarishning boshqa bir qator texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash asosida uning samaradorligini ko'tarish uchun harakat va boshqa mehnat an'analari ham avvalo, sanoat sohasida vujudga keldi va kelmoqda. Mustaqillikning afzalliklari va Davlatning iqtisodiy siyosati sanoatning yetakchi o'rnini yanada oshirmoqda. Islohotlarning asosiy yo'nalishlari va ularning yechimini topish dastavval sanoat sohasida amalga oshirilmoqda va yaxshi samara bermoqda. Ishlab

chiqarish va bozorni oqilona tashkil etish, ularning samaradorligini, natijaliligini oshirmoq uchun jamiyatning umumiy iqtisodiy qonunlarini bilish, xo'jalikka rahbarlik qilishning ilmiy asoslarini chuqur egallash zarur. Iqtisodiyot sohasida ro'y berayotgan barcha voqeliklardan xabardor bo'lish, ularning mohiyati va ahamiyatini to'g'ri tushunish, iqtisodiy muammolarni oqilona hal etish korxonalar, firmalar, tarmoqlar va komplekslar oldida turgan vazifalarni o'z vaqtida amalga oshirish uchun iqtisodiy bilimlar bilan qurollanmoq, ularni chuqur egallamoq kerak. Bunday bilimlarni bizga iqtisodiy fanlar tizimi o'rgatadi Bu fan, birinchidan, iqtisodiyotning sanoat sohasidagi sir-asrorlarini bilib olishga; ikkinchidan, bu tarmoq iqtisodiyotida qo'llaniladigan barcha iqtisodiy tushunchalarni tavsiflashga, ular real iqtisodiy voqelikning ilmiy in'ikosi, ifoda etilishi ekanligini bilib olishga yordam beradi; uchinchidan, ishlab chiqarish san'atini egallash bo'yicha bilim va ko'nikma beradi. Demak, "Sanoat" ning nazariy vazifalari bilan uning amaliy vazifalari ham mavjuddir. Shu tufayli har bir iqtisodchi mavjud iqtisodiy ko'rsatkichlarning mohiyati va ahamiyatini yaxshi tushunishi, ularni to'g'ri hisoblash va aniqlashni bilishi, ular dinamikasidan tegishli xulosa chiqarishi kerak bo'ladi.

"Sanoat" ham fundamental fanlar qatoridan o'rin olib, iqtisodiy taraqqiyotning muhim qonun-qoidalaridan sanoat sohasida foydalanish yo'llarini ko'rsatib beradi.

Bu fanning vazifalari Respublikada amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ob'ektiv sharoitlari, O'zbekiston Davlati iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari va bu yerda amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati, ahamiyati va mazmuni bilan belgilanadi. Ulardan eng muhimlari quyidagilardan iborat:

- mustaqil va qudratli davlat iqtisodiy siyosatining mohiyati va maqsadini tushungan holda sanoat ishlab chiqarishi hamda uning bo'g'inlarida bu siyosatni amalga oshirishning yo'l-yo'riqlarini to'la anglash;
- sanoat ishlab chiqarishining holati va rivojlanish xususiyatlarini o'rganish, tahlil etish va uning istiqbolini belgilashni fikrlash;

- sanoat ishlab chiqarishini tashkil etish, boshqarish, samaradorligini oshirishning ilmiy va amaliy asoslarini aniqlash bo'yicha bilim va ko'nikma berish;

- sanoat resurslari, ishlab chiqarish fondlari va quvvatlaridan bekamu ko'st, oqilona foydalanish;

- fan-texnika taraqqiyotining iqtisodiy ahamiyati va mohiyatini tahlil etish, sanoat mahsulotlarining sifati va uning raqobatbardoshligini ta'minlash, ishlab chiqarishning foydaliligini kuchaytirish san'atini egallashga yordam beradigan bilim va ko'nikma berish.

Shu bilan birga bu fanning vazifasi sanoat sohasida tashqi iqtisodiy faoliyat mohiyatini, ahamiyati va mazmuni hamda sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha o'zaro hamkorlik va iqtisodiy integratsiyaning rolini tushuntirib berishdan iborat.

Fanning yana bir vazifasi – bu sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlar tizimi, mahsulot tannarxi, narxlarning shakllanishi, rentabellik, sanoatni moliyalash va kreditlash masalalari to'g'risidagi bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirishdir

Sanoat – moddiy ishlab chiqarishning eng yirik yetakchi tarmog'i bo'lib, unda mehnat qurollari (vositalari), mehnat buyumlari va xalq iste'mol tovarlarining ko'pchilik qismi yaratiladi. Unda mashina va mexanizmlarning barcha turlari, bino va inshootlarning konstruktiv elementlari ishlab chiqariladi, yer osti boyliklarini qazib olish amalga oshiriladi, mineral, o'simlik va hayvon xomashyosiga ishlov beriladi hamda keng iste'mol mollari tayyorlanadi.

Sanoat xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini ishlab chiqarish vositalari, mehnat qurollari bilan ta'minlaydi. Milliy iqtisodiyot, fan, maorif, madaniyat, sog'liqni saqlash, sport, turizm va boshqa sohalar rivoji sanoatning taraqqiyot darajasiga bog'liq.

Ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlari taraqqiyotida sanoatning tarixiy roli beqiyosdir. Shu sababli uning rivoji va samaradorligi qanchalik yuqori bo'lsa,

davlatning mavqei shunchalik kuchli bo'ladi va aholi turmush darajasi yanada yaxshilanib boradi.

Sanoat jamiyatning yetakchi kuchi bo'lgan ishchilar sinfini o'zida birlashtiradi. Sanoat rivoji tufayli unda band bo'lgan xodimlarning soni ko'payadi, ularning bilim va ilmi, mahorati ortadi, kadrlar salohiyati yuqori darajaga ko'tariladi.

Mehnatni ijtimoiy tashkil qilishning eng oliy turi, kontsentratsiyaning yuqori darajasi va shu asosda ijtimoiy ishlab chiqarishni uyushtirishning ilg'or usullari – ixtisoslashtirish, kooperativlashtirish va kombinatlashtirish, ko'plab ishlab chiqarish va uzluksiz potok sistemasi yordami bilan tashkil etish sanoat sohasida hukmronlik qiladi.

Faqat yirik mashina industriyasigina fan va texnikaning barcha yutuqlarini o'zida to'plab, mujassamlashtirib, mehnatni texnika bilan qurollantirishi va uning unumdorligini yuqori darajaga ko'tarishi mumkin.

Sanoat va ayniqsa uning eng muhim sohasi bo'lgan og'ir sanoat mamlakatda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning asosi hisoblanadi. U moddiy texnika vositalarini o'zi va boshqa tarmoqlar uchun takror ishlab chiqarish bilan bir vaqtda jamiyat a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirib boradi.

Sanoat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini qayta qurishning negizi hisoblanadi. Uni yangi texnika bilan ta'minlash orqali sanoat dehqon xo'jaligini iqtisodiy va madaniy jihatdan yuqori darajaga ko'tarishga, shahar bilan qishloq o'rtasidagi muhim tafovutni yo'qotishga, dehqon mehnatini industrial mehnatga aylantirishga yordam beradi.

Sanoat mamlakat mudofaa qobiliyatining moddiy manbai, dunyoda tinchlikni saqlashning muhim omili, mamlakatlar mustaqilligini va birdamligini ta'minlovchi muhim sohadir. O'zbekiston davlatining mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlashda sanoatning roli muhimdir.

Barcha mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va tashkiliy intilishlari, ularning xo'jalik jihatdan hamkorligi sanoat sohasida ham o'z ifodasini topadi. Davlatlarning tabiiy, mehnat resurslaridan, ilm-fan va texnikaning barcha yutuqlaridan foydalanish imkoniyatlarining kengayishida sanoatning ahamiyati salmoqlidir.

Sanoat uchun uzluksiz fan-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarish ilm-fan yutuqlari bilan qurollanishining o'sishi xarakterlidir. Unda elektrlashtirish va elektronizatsiyalash, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish hamda ximiyalashtirish sohasidagi ilg'or yutuqlardan keng foydalaniladi va ularning yutuqlarini tinchlik maqsadida qo'llaniladi.

Sanoat, ayniqsa uning ustuvor sohalari butun ishlab chiqarishni globallashtirish muammolarini hal etishning kalitidir.

Sanoat moddiy ishlab chiqarishni bosh tarmog'i, iqtisodiyotning poydevoridir. Milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qayta qurishga qodir bo'lgan yirik mashinalashgan sanoatgina mustaqillikning birdan bir moddiy negizi bo'lishi mumkin.

Mamlakat aholisining ish bilan bandligini oshirishda sanoatning roli beqiyosdir. Buni quyidagi jadval ma'lumotlaridan bilib olish mumkin.

O'zbekistonda mehnatga layoqatli aholining 13 foizi sanoat ishlab chiqarish hissasiga to'g'ri keladi. Shuni ta'kidlash kerakki, kelajakda respublika sanoatining jadal sur'atlar bilan ta'minlanishi yanada yaxshilanib, mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi, ya'ni bandlik darajasi anchagina yuksaladi.

O'zbekiston Respublikasi sanoatining taraqqiyoti yuqori malakali ishchi kadrlar, muhandis va texnik xodimlarni yaratdi. Hozirgi paytda O'zbekiston sanoatida 1,2 millionga yaqin xodim ishlamoqda. Ulardan 462 ming kishi oliy ma'lumotli mutaxassis, 600 mingdan ortig'i o'rta va o'rta maxsus ma'lumotli

xodimlardir. Jamiyat taraqqiyotining muhim qonuniyatlaridan biri sanoat xodimlarining madaniy – texnik saviyasi o'sishi, ishlab chiqarish malakasi va tajribasini tinmay oshib borishidir.

Ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishni ta'minlovchi buyuk harakatlantiruvchi kuch – raqobat ham avvalo, sanoat sohasida vujudga keldi va rivojlana boshladi. Tadbirkorlar, ishbilarmonlar bellashuvning bayroqdori bo'lib maydonga chiqdilar. Respublika sanoatida ham raqobat o'zining oddiy bosqichidan eng yuqori bosqichiga ko'tarilib, chinakam umumiy dastakka aylanmoqda.

Mustaqillikning afzalliklari va davlat iqtisodiy siyosatining yetakchilik rolini yanada oshirmoqda. Oliy Majlisning qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari eng avvalo, sanoat sohasida amalga oshirilmoqda va sezilarli samara bermoqda.

Sanoat tabiatda uchraydigan moddiy boyliklarni qazib chiqarish va tayyorlashni, ularni va qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlashni o'z ichiga qamrab oladi. U barcha xalq xo'jaligi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish kuchlarining asosiy elementlaridan biri hisoblangan jamiyatning tabiat ustidan hukmronligini birmuncha orttiradigan, fan-texnika taraqqiyotini belgilaydigan, inson mehnatining unumdorligini oshirishga imkon beradigan, mehnat va ishlab chiqarish qurollarini yaratadigan sohadir.

Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha aholi bandligi

va uning 1998-2011 yillardagi o'sish sur'ati 1.1.1 -jadval

	Ming kishi hisobida		O'sish, foizda
	1998 y.	2011 y.	
Iqtisodiyotda bandlar. Jami	8449	8983	106,3
Shu jumladan, sanoat	1087	1145	105,3

Qishloq va o'rmon xo'jaligi	3485	3093	88,7
Qurilish	528	676	128,0
Transport va aloqa	348	382	109,9
Savdo, umumiy ovqatlanish, ta'minot, sotish va tayyorlov	705	754	106,9
Uy-joy- kommunal xo'jalik va aholiga maishiy xizmat ko'rsatish	214	251	117,3
Sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya, sport va ijtimoiy ta'minot	487	587	120,5
Ta'lim, madaniyat, san'at fan va ilmiy xizmat ko'rsatish	1054	1146	108,8
Moliya, kreditlash va sug'urta	40	52	130,0
Boshqaruv apparati	97	146	150,0
Boshqa sohalar	404	751	185,7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari

Sanoat taraqqiyoti ishlab chiqarish kuchlarining bir tomonlama rivojlanishiga xotima beradi, mamlakat va uning ajralmas qismi bo'lmish viloyatlarning tabiiy boyliklaridan, xomashyo va mehnat resurslaridan kengroq va har tomonlama foydalanish imkoniyatini yaratib beradi.

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyotining asosiy ko'rsatkichlari (haqiqiy bahoda, mlrd. so'm)*

1.1. 2- jadval

	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.
Yalpi ichki mahsulot	3255,6	4925,3	7450,2	9837,8

shu jumladan, yalpi sanoatning qo'shgan qiymati	462,4	696,2	1079,3	1553,3
Sanoatning salmog'i, foizda	14,2	14,2	14,5	15,8
Iqtisodiyotdagi foyda	283,3	449,8	585,4	657,7
shu jumladan, sanoatda	84,4	117,3	277,8	354,5
iqtisodda band bo'lgan aholining soni, mln. kishi	9,0	9,1	9,3	9,6
shu jumladan, sanoatda	1,1	1,2	1,2	1,3
sanoatning ulushi, foizda	12,7	12,7	12,7	12,8
Asosiy ishlab chiqarish fondlari (xalq xo'jaligi bo'yicha)	-	-	-	-
shu jumladan, sanoatda	2776,6	3085,1	5371,6	6469,8
Kapital qo'yilmalar (xalq xo'jaligi bo'yicha)				
shu jumladan, sanoatda	221,5	514,0	502,0	574,3

1991 yildan boshlab O'zbekiston sanoat ishlab chiqarishidagi kamayish, boshqa sobiq ittifoq davlatlariga nisbatan past bo'lib keldi.

Buning sababi, iqtisodiyotning xomashyo va materiallarga bog'liqligi va shu tariqa Sovet Ittifoqining tarqalib ketishidan so'ng davlat tomonidan eksportni tez sur'atda qayta yo'naltirishga erishilganligidadir. 2011 yil uzluksiz o'sish bo'ldi. Buni quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin.

Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2011 yilda jami sanoat ishlab chiqarishi oldingi yillarga nisbatan bir muncha tezroq o'sdi. Ayniqsa qayta ishlash sanoati qazib oluvchi (undiruvchi) sanoatga nisbatan katta sur'atlar bilan o'sdi. Agar shu

ko'rsatkich 2007 yilda 6,4 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilga kelib 8.2 % ga yetdi.

Bunday o'sishning asosiy omili davlatning o'zi islohotlarstrategiyasini sanoatlashtirish siyosati bilan muvofiqlashtirib olib borganidadir. Anna shunday siyosat olib borilishi munosabati bilan 1993 yilda u MDH davlatlari orasida o'zining rivojlanishini qayta tiklagan, keyinchalik, 1996 yilda, birinchi bo'lib 1991 yil darajasidan ancha o'zgan, 1999 yilda esa dastlabki (bazaviy) ishlab chiqarish hajmiga nisbatan 15 foizga o'sgan yagona respublika bo'lib qoldi.

1.1.3- jadval

2007-2011yillarda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy o'sish

	2007 y	2008 y	2009 y	2010y	2011y
Yalpi ichki mahsulotning yillik o'zgarishi, %	4,0	4,5	5,9	6,3	8.3
Sanoat ishlab chiqarishidagi yillik o'zgarish, %	6,4	8,1	8,4	8,6	8,2

Quyidagi, 1.1.4-jadvalda 2006-2010 yillarda sanoat ishlab chiqarishi tarmoqlaridagi o'zgarishlar ko'rsatilgan.

O'zbekiston iqtisodiyotining ko'rsatkichlari ijobiy bo'lishining eng muhim sabablari – bu mavjud sanoat tarmoqlarining kerakli hajmda saqlab qolib, yangi tarmoqlarni yaratish strategiyasi bo'ldi. Mustaqillikning birinchi yillaridanoq O'zbekiston hukumati uchun real sektorni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Respublikamizning o'z-o'zini yoqilg'i-energetika mahsulotlari bilan ta'minlash siyosati (neft va neft mahsulotlari hamda gaz ishlab chiqarishning keskin o'sishi), qo'shimcha qiymat yaratuvchi (mashinasozlik, yog'och va yog'ochni qayta ishlash) sohalarining intensiv rivojlanishi bilan birgalikda olib borildi. Shu bilan birga, qurilish materiallari, yengil va oziq-ovqat sanoatlarining rivoji ham qayd etildi.

Umuman olganda, tarmoqlar bo'yicha ishlab chiqarish tarkibida og'ir sanoat (yonilg'i-energetika majmuasi, mashinasozlik, metallurgiya) salmog'ining oshishi yengil sanoat ulushi hisobiga bo'lmoqda. Natijada, mustaqil iqtisodga xos bo'lgan darajaga yaqinlashish yuz bermoqda va sobiq ittifoq mamlakatlarida qayta ixtisoslashuvdan paydo bo'layotgan yetishmovchilik va tobelikning oldini olish ta'minlanmoqda.

Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va qo'shimcha qiymat yaratuvchi sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy strategiya respublikaga yaxshi natijalar keltirmoqda.

O'zbekiston o'zining oltini, paxta tolasi va ipagi, nefti va gazi, samolyot va avtomobillari, paxta terish mashinasi va paxtani qayta ishlash mashinalari bilan, ekskavator va kompressorlari, vino va konservalari hamda bir qator boshqa sanoat mahsulotlari bilan dunyoga mashhurdir.

O'zbekiston respublikasining industrial qiyofasini energetika, kon-ruda, oltin qazib oluvchi, samolyotsozlik va avtomobilsozlik sanoatlari, elektrotexnika va elektron sanoatlari, ko'p tarmoqli mashinasozlik va qurilish materiallari sanoati belgilab bermoqda.

Sanoat ishlab chiqarishi tarmoqlaridagi o'zgarishlar

(o'sish indeksi, oldingi yil -100)

1.1.4 - jadval

	2006 y.	2009 y.	2010y.
Jumladan,	133,2	144,3	153,0
Yalpi sanoat ishlab chiqarishi			
1. Kon sanoati	110,5	112,3	112,7
2. Qayta ishlash sanoati	138,0	151,5	162,6
Sanoat tarmoqlari			
1. Elektr-energetika	87,7	89,0	87,7

2. Yonilg'i sanoati	112,8	115,5	116,1
3. Qora metallurgiya	141,3	147,4	160,8
4. Rangli metallurgiya	118,2	125,2	123,4
5. Kimyo va neft-kimyo sanoati	190,5	2,2r.	2,3r.
6. Mashinasozlik va metallni qayta ishlash	122,4	133,2	174,1
7. O'rmonchilik va yog'ochni qayta ishlash	2,3r.	2,6r.	3r.
8. Qurilish materiallari	109,5	111,9	111,3
9. Yengil sanoat	147,8	161,1	171,4
10. Oziq-ovqat sanoati	175,8	2,1	2,2

Manba: Talabaning ilmiy izlanishi asosida tuzildi.

Mustaqallikning 19 yilida sanoat mahsulotining hajmi 5 marta ko'paydi. Bu davrda faqat miqdoriy o'zgarishlarga emas, balki juda katta sifat o'zgarishlari ham sodir bo'ldi. O'zbekiston respublikasi jahondagi 10 ta gaz ishlab chiqaruvchi mamlakatlar jumlasiga kiradi. Bu yerda qudratli issiqlik va gidroelektrstantsiyalar mavjud.

Energetika respublika xalq xo'jaligining negiz tarmog'i, respublikada iqtisodiyot va fan-texnika taraqqiyotining mustahkam poydevori hisoblanadi. O'zbekiston energetika tizimi umumiy o'rnatilgan quvvati 11,7 mln kVt bo'lgan 37 issiqlik va gidravlik elektr stantsiyalari yiliga 55 mlrd $\frac{\kappa Bm}{coam}$ dan ortiq elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. O'zbekiston energetika tizimining barcha kuchlanishlardagi elektr tarmoqlarining umumiy uzunligi qariyb 228 ming km. ni tashkil etadi. Tarmoq transformatorlarining umumiy quvvati 42,6 MVA ga teng. Hozir respublika energetika tizimida 70 mingga yaqin xodim ishlaydi.

«O'zbekenergo» davlat kompaniyasi tarkibidagi, qurilish-montaj, sozlash, ta'mirlash va boshqa bir qator tashkilotlarning to'la majmui O'zbekiston energetika tizimining ishonchli ishlashini, izchil rivojlanishini ta'minlamoqda.

Bugun O'zbekistonda bir kunda 136 mln kilovatt soat elektrenergiyasi ishlab chiqarilmoqda. Bu 1913 yilda hosil etilgan elektr energiyasiga nisbatan 100 marta ko'pdir. **Yoqilg'i sanoati.** Respublika yoqilg'i sanoati yer qarida topilgan va qazib olinayotgan ko'mir, neft, gaz konlari negizida shakllangan va rivojlanib bormoqda. Respublikada 160 ga yaqin neft va gaz konlari ochilgan, ularning 115 tasi Buxoro va Xiva geologik provintsiyasida, 27tasi Farg'ona vodiysi, 10 tasi Surxondaryo, 7 tasi Ustyurtda joylashgan. Hozir 71 neft, gaz va gaz kondensat konlari, 2 ko'mir konidan foydalanilmoqda. 50 dan ortiq neft, gaz va gaz kondensat koni esa kelajakda ishga tushirish uchun tayyorlab qo'yilgan.

Yoqilg'i sanoati respublika yoqilg'i-energetika majmuasining asosiy tarmog'ini tashkil etadi va barcha turdagi yoqilg'ini qazib olish, tabiiy gazni tozalash va yetkazib berish, neft mahsulotlarini qayta ishlash korxonalaridan iborat. Ular xalq xo'jaligining barcha bo'g'inlarida xizmat ko'rsatadi. Uning yirik korxonalari Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida joylashgan.

**O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan elektrenergiyasining
dinamikasi** 1.1.5-jadval

	1913	1940	1990	2008	2011
Elektr energiyasi (mlrd. kvt-soat)	3,3	48,1	56,3	46,9	49,6
shu jumladan,					
issiqlik energiyasi	2,8	28,1	49,7	41	41,2
gidro energiyasi	0,5	20	6,6	4,9	8,4

Manba: Statistik ma'lumotlari.

Neft sanoati yokilg'i sanoatining eng muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi va neftni qayta ishlash korxonalaridan tashkil topadi. Hozirgi davrda sanoatning bu tarmog'i mamlakat xalq xo'jaligi va aholining neftga bo'lgan talabini to'la qondirish imkoniyatlariga ega bo'ldi. Shu sababdan ham bu tarmoqning ahamiyati beqiyosdir.

Neftni qayta ishlash sanoati sohasida Oltiariq, Farg'ona, Buxoro neftni qayta ishlash zavodlari ishlab turibdi. Farg'ona zavodi surkov moylar va Yonilg'i ishlab chiqarishga ixtisoslashgan ishlab chiqarish bo'yicha 30 dan ortiq texnologik qurilmaga ega. Oltiariq neft zavodi esa Yonilg'i yo'nalishida Ko'kdumaloq neft-gaz koni ochilgandan keyin Frantsiyaning TYeKNYeP firmasi bilan hamkorlikda 1993 yildan Buxoro viloyatining Qorovulbozor tumanida Buxoro neftni qayta ishlash zavodi qurilishi boshlandi va bir yilda 2,5 mln tonna gaz kondensatini qayta ishlash quvvatiga ega bo'lgan 1-navbati 1997 yilning avgustida ishga tushirildi. Neftni qayta ishlash zavodlarida yuqori oktanli benzin, dizel yoqilg'isi, koks, parafin, motor moylariga qo'shilmalar, yengil mashinalar uchun motor va surkov moylari (kompressor, turbina, urchuq moylari), kerosin, bitum, suyultirilgan neft gazlari (butan, texnik propan va b.), mazut kabi 50 turdan ortiq neft mahsulotlari ishlab chiqariladi. Yangi mahsulot turlari ishlab chiqarish dasturiga muvofiq yangi texnologiyalar o'zlashtirilmoqda.

Hozirgi davrda respublika neft sanoati korxonalarining quvvati bir yilda 11 mln. tonna neftni qayta ishlash imkoniyatiga ega. **Gaz sanoati.** Bu tarmoq yoqilg'i-energetika majmuasining eng yosh, juda rivojlangan sohasi hisoblanadi. Gaz yoqilg'ining juda arzon turi, xalq xo'jaligining barcha sohalarida keng foydalanish imkoniyati sababli, ekologik jihatdan ham ustunligi tufayli unga bo'lgan talab kundan-kunga o'sib bormoqda. Agar 1940 yilda atigi 0,7 mln m³ tabiiy gaz qazib olingan bo'lsa, hozirgi paytda u 58 mlrd m³ ni tashkil etadi. Gazning Respublikada qazib olinayotgan yoqilg'i balansidagi hissasi 90% foizga yaqinlashmoqda. Keyingi vaqtda Respublika

neft va gaz sanoatini rivojlantirishning uzoq davrga mo'ljallangan kontsepsiyasi ishlab chiqilgan va u izchillik bilan amalga oshirilmoqda. **O'zbekiston Respublikasi ko'mir sanoati.** O'zbekiston Respublikasi 2 milliard tonna qidirib topilgan ko'mir zahiralarga ega. Ko'mir qazib olish va yetkazib berish ishlari bilan «Ko'mir» aktsiyadorlik birlashmasi shug'ullanadi. Angren konida qo'ng'ir ko'mir, Sharg'un va Boysun konlarida toshko'mir qazib olinadi. Ko'mir konlari korxonalar tomonidan turli usullarda o'zlashtirilayotir: ochiq usulda, yer osti va yer ostini gazlashtirish usuli bilan (Nou-Xau). Ko'mir energetika maqsadlarida va maishiy yoqilg'i sifatida ishlatiladi. Ko'mirni qayta ishlashdan chiqqan chiqindi organik va mineral o'g'itlarga aylantiriladi.

Konlardan chiqqan ko'mirlar sifatli Yonilg'i, qimmatbaho hamda kamyob materiallarning turli xillarini olish uchun xomashyodir. Masalan, koks briketi, motor Yonilg'isi, kaltsiy karbidi, sorbent qora va rangli metallurgiyada uglerodli qo'shimchalar sifatida ishlatiladi.

O'zbekiston Respublikasida neft va gaz qazib olish dinamikasi

1.1.6-jadval

	1990 y	2007 y	2008 y	2009 y	2010y	2011y
Neft (gaz kondensati bilan birga), mln. t.	2,8	7,5	7,3	8,1	7,1	6,6
Gaz, mlrd m ³	40,8	56,4	57,4	59,7	58,1	60

Manba: Statistika ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Ko'mir qazib olish jarayonida kaolin, ohak, kvarts qumlari, ko'mir kukuni, kamyob yer elementi (germaniy), shag'al va boshqa foydali qazilmalar olinadi. Yaxshi xomashyo, ko'pdan sinalgan erkin maydonlarning bisyorligi, suv hamda elektr va issiqlik energiyasi, temir yo'llarning mavjudligi, stantsiyalarning yaqinligi va xalqaro aeroportlar borligi ishlab chiqarish –

sanoat kompleksini bunyod etishda qo'l keladi. Shuningdek, qazib olingan va boyitilgan kaolin, chinni fayans va sopol buyumlar, o'tga chidamli va qurilish g'ishtlari, tom yopqichlar, drenaj va kanalizatsiya quvurlari, xo'jalik va manzarali chinni buyumlar, shisha va shisha idishlar, elektr izolyatorlari ham bu ishda yordam beradi. Ayni paytda ko'mirni qazib olish, navlarga ajratish va boyitish fabrikasi qurilishi davom ettirilmoqda.

O'zbekiston hududining geologik xususiyatlari qo'shimcha foydali qazilmalarni o'zlashtirish va ularni qayta ishlash uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, yonuvchi slanets, ohak, bezakli tosh konlarini o'zlashtirish ko'pchilikni qiziqтира kerak. Keramzit, absorbent, o'g'it va g'isht ishlab chiqarish uchun yuqori sifatli loylar tayyorlash mumkin. Ularni ishlab chiqarishga joriy etishda oddiy hisob-kitoblarga ko'ra, energetika, kimyo, metallurgiya sanoati, qurilish va qishloq xo'jaligi uchun yiliga 1 milliard 400 million AQSh dollari miqdorida tayyor mahsulot olish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, Angren kaolinidan, Boysun ko'miri va ohagidan foydalanib turib loytuproq zavodini bunyod etish mumkin. Ana shunday qulay omillar va barqaror vaziyat xorijiy sheriklar bilan hamkorlik o'rnatish imkoniyatini beradi.

Metallurgiya sanoati. Hozirgi O'zbekiston hududida rudadan metall olish 4-5 ming yildan ziyod tarixga ega. Qadimda misdan turli buyumlar tayyorlangan. Keyinroq rudadagi metallardan qalay, kumush, oltin va boshqalarni eritish, quyish va qizdirib ishlash o'zlashtirilgan. Dastlabki tanga pullar zarb qilingan. Ilk o'rta asrlarda Farg'onada, Zarafshon, Chirchiq, Ohangaron vodiylaridagi bir qancha hududlarda zargarlik, misgarlik, temirchilik, degrezlik, rixtagarlik rivojlanadi. Ruh, surma, margumush, vismut, kobalt kabi rangli metallar ma'lum bo'lmasa-da, ularning qotishmalaridan keng foydalanilgan. **Qora metallurgiya** sohasida faoliyat ko'rsatadigan yagona korxona Bekobod shahridagi O'zbekiston metallurgiya zavodidir. Zavodda qora metallurgiya mahsulotlarining eng muhim turlari (po'lat va po'lat prokatlar) ishlab chiqariladi. Ular temir –tersak, metall chiqindilaridan olinadi. O'rta

Osiyodagi birinchi zamonaviy metallurgiya zavodi qurilishi umumxalq hashari yo'li bilan 1942 yilda boshlanadi va 1944 yilning 5 martida dastlabki metall eritmasi olinadi. **Rangli metallurgiya** – respublika metallurgiyasining eng muhim, yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Sanoatning bu turi O'zbekistonda XX asrning 25-yillaridan rivojlana boshladi. Asta-sekin rangli, nodir va qimmatbaho metall (mis, qo'rg'oshin, ruh, volfram, molibden, kumush, oltin, simob) konlari topildi.

Rangli metallar sifatini yaxshilash, ishlab chiqarish jarayonlarini intensivlashtirish, turli foydali qazilmalarning yangi konlarini o'zlashtirish hisobiga rangli metallurgiya ishlab chiqarishini rivojlantirish mo'ljallanmoqda, shu bilan birga, yangi fabrika va konlar barpo etiladi. Jizzax viloyatida O'zquloq qo'rg'oshin-ruh koni, Surxondaryo viloyatida Xonrizm kon boyitish korxonasi quriladi. Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida mis, ruh, sulfat kislotasi va yo'ldosh elementlarni ishlab chiqarish ko'paytirildi. O'zbekiston kombinatida yirik gobaritli molibden va volfram prokati hamda boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish mo'ljallanmoqda.

O'zbekiston metallurgiya kombinatida mahsulot ishlab chiqarish (ming tonna)

1.1.7-jadval

	2000 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y
Po'lat	415,4	446,3	462,3	485,6
Tayyor prokat	372,3	402,5	402,5	415,4

Oltin qazib olish sanoati. Markaziy Osiyoda, xususan, hozirgi O'zbekiston yerlarida oltin qazib olish va undan turli taqinchoqlar, zargarlik buyumlari, bezaklar yasash miloddan avval VI-V asrlardayoq mavjud bo'lganligi arxeologik topilmalardan ma'lum. Tug'ma (erkin uchraydigan) oltin konlarini o'zlashtirishga qadar oltin asosan sochma konlarda juda ibtidoiy

usullarda oltin zarralari aralash qumni qo'y terisi qoplangan yog'och tog'oralarda yuvib, ajratib olingan. Sochma oltin olish X-XI asrlarda Chotqol, Chirchiq, Norin, Koson, So'x, Zarafshon, Darvoz daryolari vodiylarida olib borilganligi haqida ma'lumot bor. O'rta asrlarda oltinli qumlarni yuvish bilan birga mo'g'ullar bosqiniga qadar Chotqol-Qurama, Nurota tog'larida, markaziy Qizilqumdagi konlardan tug'ma oltin kon lahimlari hozirgacha saqlanib qolgan. O'zbekistonda ma'lum bo'lgan konlarning ko'pchiligidan qadimgi konchilar qisman foydalanganlar.

Markaziy Osiyoning mineral xomashyo resurslarini o'rganishda jonlanish XIX asrning 80-yillarida, Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasini bosib olgan davrda yuz berdi; o'lkaning barcha joylarida tadqiqotlar o'tkazildi, geologik kartalar tuzildi, ayrim konlar tavsiflandi. Oktyabr to'ntarishigacha Chirchiq, Piskom va Chotqol daryolari vodiylarida kichik-kichik oltin izlovchi korxonalari oltin olish bilan shug'ullanganlar, 1913-17 yillarda Obirahmat darasi (Toshkent viloyati) dagi oltin konidan foydalanilgan.

O'zbekistonning mineral xomashyo boyliklarini aniqlash, uni qazib olish va aksari qismini Markazga tashib ketish Oktyabr to'ntarishidan keyin ham davom etgan. Noyob metall konlarini qidirib topish va undan foydalanish muammolarini hal qilish ishlarida markaziy ilmiy muassasalar faol ishtirok etdilar. 30-yillar boshida «O'zbekoltinnoyobmet» tresti tashkil etildi. O'sha yillari Ohangaron, Chirchiq daryolari vodiylarida, Qurama tog'larida oltin izlovchilar oltinni qumni yuvish usulida ajratib olganlar, Lekin yillik oltin olish bir necha o'n kg. dan oshmagan. Keyinchalik o'sha joylarda rudali oltin konlari topildi va ishga solindi. 1941-45 yillarda oltin izlovchilik (artel) yo'li bilan oltin ajratib olish jadal olib borildi, olingan yillik oltin miqdori qariyb 50 kg ga yetdi. 1950 yilda sochma oltin izlash ishlari to'xtatildi. Rudali oltin izlash va qidiruv bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida Qoraqo'ton, Bichanzor, Pirmurob, G'o'saksoy, so'ngra Ko'chbuloq, Muruntov, Chormiton, Marjonbuloq, Kauldi, Qizilolmalisoy, Sarmich va boshqa rudali oltin konlari topildi. 1965 yilda Metallurgiya vazirligiga bo'ysinuvchi «O'zbekoltin»

birlashmasi va boshqa oltin qazib olish korxonalari tashkil etildi. Birlashma qazib olgan flyus rudalaridan Olmaliq kon metallurgiya kombinatining kimyo eritish zavodida oltin ajratib olish yo'lga qo'yildi. 1970 yil Chodak oltin koni ishga tushirildi. O'sha vaqtdan respublikada oltin qazib olish sanoati shakllandi, oltin olish oldingi yillarga nisbatan uch marta ko'paydi. 1972 yilda Ko'chbuloq koni va Angren oltin ajratish fabrikasi loyiha quvvatlarida ishlay boshladi. 1977 yil Kauldi, 1980 yil Marjonbuloq oltin qazib olish majmui, 1989 yil Zarafshon va Qizilolmalisoy konlari foydalanishga topshirildi.

Respublika mustaqillikka erishishi bilan O'zbekiston hukumati uzoq yillar davomida sobiq Ittifoqi ixtiyorida bo'lgan oltin qazib olish sanoatini respublika mustaqilligini mustahkamlash yo'lida, rivojlantirish bo'yicha bir qancha tashkiliy choralar ko'rdi. «O'zbekoltin» birlashmasi negizida O'zbekiston Respublikasining Qimmatbaho metallar Davlat Qo'mitasi tashkil etildi(1992 yil). Bu qo'mita 1994 yil O'zbekiston oltin qazib olish va olmosga ishlov berish korxonalari uyushmasi («O'zolmosoltin»)ga aylantirildi. «O'zolmosoltin» uyushmasi (Toshkent shahrida) va boshqaruvchi Navoiy shahrida bo'lgan «Qizilqum-kamyobmetaloltin» kotserni (1991) faoliyat ko'rsatmoqda. «O'zolmosoltin» uyushmasi tarkibida Angren, Marjonbuloq (Jizzax), Chodak (Namangan), Kauldi (Toshkent), Zarmiton (Samarqand) oltin qazib olish konlari, olmos qirralash fabrikasi (Toshkent viloyati) va boshqa tashkilotlar bor. Respublikada oltin qazib olish sanoatining ikkinchi yirik markazi «Qizilqumkamyobmetaloltin» kontsernining bosh korxonasi – Navoiy kon metallurgiya kombinatidir.

Kombinat Muruntov va boshqa oltin konlarini ishga tushirish maqsadida 1958 yildan boshlab qurila boshlagan. Uning asosiy ishlab chiqarish quvvatlari Zafarobod, Nurobod, Zarafshon, Uchquduq shaharlarida joylashgan. Yangi quvvatlarni ishga tushirish jadal olib borilmoqda. Kombinatda zargarlik buyumlari zavodi ishga tushirilgan. Zarafshonda 1993 yilda tashkil etilgan oltin qazib olish bo'yicha O'zbekiston- AQSh «Zarafshon-Nyumont» qo'shma korxonasi 1995 yilning may oyidan mahsulot bera boshladi.

Buyuk Britaniyaning «Lonro» firmasi bilan birgalikda Markaziy Qizilqumda oltin rudalari koni ishga tushirildi va oltin ajratib olish bo'yicha katta korxona – «Amatayti Goldfildz» qo'shma korxona loyihasi amalga oshirildi.

Respublikada 40 ta oltin koni aniqlangan bo'lib, hozir bu konlarning faqat 12 tasi qazilmoqda. Oltinnig asosiy zahiralar Markaziy Qizilqumdagi oltin konlarida mujassam. Shu bilan birga o'zbek oltini jahonning eng yuqori sifat standartlariga mos bo'lib, to'rtta to'qqiz raqami bilan baholanadi va u oxirgi 20 yilda reklamatsiya olgani yo'q. So'nggi yillarda u sifati uchun bir necha bor xalqaro sovrinlar bilan taqdirlandi.

Yevroosiyo kontinentida eng katta hisoblanadigan, ruda tarkibida oltin ko'p bo'lgan Muruntov koni dunyodagi gigantlar jumlasiga kiradi. Ushbu konning topilishi xalqaro geologiya jamoatchiligi tomonidan oltin qazib chiqarish bo'yicha XX asr ikkinchi yarmining eng katta kashfiyoti deb e'tirof etildi.

Muruntovdagi affinit korxonasida zamonaviy oltin tozalash texnologiyasi joriy etilgan bo'lib, u bir qancha nou-xauni o'z ichiga oladi. Bu esa juda yaxshi tovar ko'rinishiga ega bo'lgan yuqori probali oltin olish imkoniyatini beradi.

Mamlakat mustaqilligining dastlabki yillarida infratuzilmasi yuqori darajada rivojlangan Samarqand va Toshkent viloyatlarida oltin rudali konlar aniqlandi va razvedka qilindi. Dunyoning eng yirik oltin rudali provintsiyasi bo'lgan Qizilqumdagi Muruntov bilan bir qatorda Ajibugut, Bulutkon, Balpantov, Aritontov, Turbay va boshqa yangi konlar aniqlandi va o'rganildi.

Hozirgi O'zbekistonning oltin zahiralar dunyoning eng mashhur va ishonchli banklarida saqlanmoqda. Ular orasida nemis «Doyche bank»i va Shveytsariyaning «YuBS» banki bor. Respublika hukumati katta daromad olish uchun bu oltinni ma'lum vaqtga valyutaga aylantirmoqda. Oltin zahiralarini garovga olib, O'zbekistonga strategik iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish uchun kreditlar ajratilmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, oltin qazib chiqarish bo'yicha juda katta ishlar amalga oshirildi.

Natijada O'zbekiston oltin qazib chiqarish bo'yicha dunyoda yettinchi o'ringa, MDH da esa ikkinchi (Rossiyadan keyin) o'ringa chiqib oldi. Aholi jon boshiga oltin ishlab chiqarish hajmi bo'yicha O'zbekiston MDHda birinchi va dunyoda beshinchi o'rinda turadi. Mustaqillik yillarida oltin qazib olish va uni iste'mol qilish bo'yicha erishilgan darajani quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

Respublika kumush konlariga ham ega. Bular Navoiy viloyatidagi Visokovolnoe, O'qjetpes, Kosmonachi va Namangan viloyatidagi Oqtepa konlaridir. Katta miqdordagi tasdiqlangan zahiralar oltin va mis-porfir konlarida mavjud. Oqtepa koni kumush qazib chiqarish bo'yicha eng istiqbolli va chet ellik investorlar uchun jozibali kondir. Uran eng samarali va ekologiya nuqtai nazaridan optimal hisoblangan usul - yer ostida ishqorlar yuvish usuli bilan olinadi. 1.1.8-jadvalda keltirilgan va boshqa manbalardan olingan ma'lumotlarga qaraganda, 2000 yilda jahon miqyosida oltin qazib olish eng yuqori darajaga ko'tarilgan va 1980 yildagiga nisbatan 3 barobar ko'p bo'lgan. O'zbekistonda qimmatbaho metallar ishlab chiqarish bilan bir qatorda uran ham qazib olinadi. Uni olish uchun mineral xomashyo bazasi mavjud.

Mis, qo'rg'oshin-ruh sanoati asosan Ohongaron-Olmaliq kon sanoati rayonida Qo'rg'oshinkon-Oltintopgan polimetall konlari, Qalmoqqir mis konlari negizida shakllana boshlagan. Ushbu sanoat tarmog'ining yetakchi korxonasi tugal metallurgiya sikliga ega bo'lgan Olmaliq kon metallurgiya kombinati hisoblanadi. Har yili bir necha o'n ming tonna mis ishlab chiqarayotgan O'zbekiston mis zahirolari bo'yicha 10-o'rinda turadi.

Kombinatning mis majmuasi Qalmoqqir mis koni, ruda boyitish fabrikasi, metallurgiya zavodidan, qo'rg'oshin - ruh majmuasi Qo'rg'oshinkon, Oltintopgan, Chalaga va boshqa konlar, ruda boyitish fabrikasi, metallurgiya zavodlarini o'z ichiga oladi. Ular asosan tozalangan misni eksport qilmoqda.

Zahiralarning kattaligi, qazib chiqarish tannarxi, rudadagi misning tarkibi jihatidan MDH mamlakatlarida hali unga teng keladigan kon yo'q. Volfram,

molibden, litiy sanoatining yirik korxonasi O'zbekiston qattiq qotishmalar va o'ta chidamli Chirchiq metallar kombinati hisoblanadi. Kombinat ingichka volfram (Samarqand) va Quytosh volfram, molibden (Jizzax) konlari rudalari hamda mis rudalaridan ajratib olinadigan molibden negizida ishlaydi. Kombinatda birinchi molibden quyilmasi 1956 yili olingan. 1957 yildan esa qattiq qotishmalar ishlab chiqarish boshlangan. Kombinat mahsulotlari (100 turdan ortiq) elektrotexnika, po'lat eritish, kon burg'ilash sohalarida keng qo'llaniladi.

Kimyo sanoati. Ushbu sanoatning shakllanishi 1932 yilda Sho'rsuv oltingugurt koni (Farg'ona) ishga tushirilishi bilan boshlangan. Bu korxona sobiq Ittifoqda ishlab chiqariladigan oltingugurtning 57 foizini bergan. Kimyo sanoatining eng yirik korxonalariga Chirchiq elektr kimyo kombinati, Navoiy kimyo birlashmasi va Qo'qon superfosfat zavodi kiradi. Kimyo sanoatining asosiy tarmoqlaridan biri – bu mineral o'g'itlar ishlab chiqarish sohasidir. Unda qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan ammafos, ammiak selitrasi, ammoniy sulfat, superfosfat, karbonit, suyultirilgan ammiak, azotli va fosforli o'g'itlar ishlab chiqariladi.

Chirchiq kimyo kombiniti, Farg'ona azotli o'g'itlar, Navoiy kimyo birlashmasida asosiy turdagi azotli o'g'itlar, Qo'qon superfosfat zavodi, Samarqand kimyo zavodi, Olmaliq «Ammafos» birlashmasida ammosfos, oddiy va ammoniylashgan superfosfat, qumoq ammoniy kabi fosforli o'g'itlar ishlab chiqariladi.

O'zbekiston kimyo sanoati korxonalari bir yilda 736 ming tonna azotli, 117 ming tonna fosforli o'g'itlar ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. 2003 yilda O'zbekistonda 874 ming tonna mineral o'g'itlar, 802 ming tonna sulfat kislotasi, 1 mln. tonnadan ortiq suyultirilgan ammiak ishlab chiqarildi.

Oltin qazib olish va iste'mol kilish (tonna hisobida)

1.1.8 – jadval

	1991 y.	1995 y.	2000 y.	2001 y.

Jahon bo'yicha oltin qazib olish shu jumladan:	2159	2273	3745	3483
Janubiy Afrika Respublikasi	601,1	522,4	428	399
Amerika Qo'shma Shtatlari	293,5	317	355	335
Avstraliya	236,1	253,5	296	291
Kanada	175,3	150,3	155	159
Rossiya	143,7	127,8	155	168
Xitoy	104	133	162	165
O'zbekiston	75	66,6	88	86
Indoneziya	24,0	66,0	88	86
Peru	15	57	133	133
Braziliya	88,6	64,4	-	-
Jahon bo'yicha iste'mol	-	2864,5	3281,4	-

Manba: Jurnal «Ekonomicheskoe obozrenie», mart, 2002, str. 11

Kimyo sanoatida mineral o'g'itlar ishlab chiqarish hajmi respublika qishloq xo'jalik ehtiyojlarini to'la ta'minlaydi, ularning bir qismi chetga chiqariladi

Sulfat kislotasi kimyo sanoati tarmoqlari uchun muhim xomashyodir. Respublikamizda sulfat kislota ishlab chiqaradigan yirik quvvatlar Olmaliq «Ammofos» birlashmasi, Samarqand kimyo zavodi, Navoiy kon-metallurgiya kombinati, Muborak gazni qayta ishlash majmuasida barpo etilgan. Soda

sanoatining Markaziy Osiyo mamlakatlarida yagona bo'lgan korxonasi - Qo'ng'iro't soda zavodi qurilishi 1995 yildan boshlandi (yillik loyiha quvvati 210 ming tonna soda).

Respublika qishloq xo'jaligida o'simliklarni kasallik va zararkunandalardan kimyoviy himoya qilishda qo'llaniladigan

oltingugurt kukuni Sho'rsuv kon-kimyoy korxonasida hamda Muborak gaz majmuasida ishlab chiqariladi. Mahalliy resurslardan oltingugurt ishlab chiqarishni yiliga 50 ming tonnaga yetkazish rejalashtirilgan. Yiliga 125 ming tonna polietilen plyonkasi va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradigan Sho'rtan gaz-kimyoy majmuasidir.

Navoiy shahridagi «Navoiyazot» ishlab chiqarish birlashmasi malakatimiz kimyoy sanoatidagi yirik korxonalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda jamoada 260 xil mahsulot ishlab chiqarilmoqda. Korxona mahsulotlari 20 dan ortiq mamlakatlarga, jumladan, Vengriya, Pokiston, Iroq, Turkiya, Hindiston, Afg'oniston, Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkmanistonga jo'natiladi.

Mashinasozlik sanoati - xalq xo'jaligi uchun mashina va mexanizmlar, jihozlar, agregat va apparatlar, asbob uskunalar, madaniy-maishiy mollar, shuningdek, mudofaa ahamiyatiga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi og'ir sanoat tarmoqlari majmui. Mashinasozlik sanoati butun xalq xo'jaligini texnika bilan ta'minlashda moddiy asos hisoblanadi. Mashinasozlik sanoati mahsulot sifatini yaxshilash, ishlab chiqarishning samaradorligini yuqori darajaga ko'tarishga imkoniyat yaratadi. Mashinasozlik sanoatining asosiy vazifasi milliy iqtisodning barcha sohalarini yuqori unum bilan ishlaydigan mehnat qurollari ya'ni mehnat vositalari bilan ta'minlashdan iborat. Ular turli tarmoqlar va korxonalarda tayyorlanadi. Hozirgi kunda mashinasozlik sanoatining 15 tarmog'i mavjud bo'lib, ular tasarrufida 100 dan ortiq yirik va o'rta korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Mustaqillik yillarida mashinasozlik sanoati korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning turlari keskin o'zgardi. Uni quyidagi jadvalda keltirilgan raqamlardan ko'rish

mumkin. Mashinasozlik sanoati tarkibida metall ishlash sohasi ham mavjud bo'lib, bu soha o'z navbatida, metall buyumlar tayyorlash, metall konstruksiyalar hamda mashina va asbob-uskunalar remonti tarmoqlaridan iborat. Bunday faoliyat bilan 2,5 mingdan ortiq korxonalar shug'ullanadi. O'zbekiston mashinasozligiga avtomobilsozlik, samolyotsozlik, traktorsozlik va qishloq xo'jalik mashinasozligi, elektro-texnikasozlik, asbobsozlik va kabelsozlik kabi yirik tarmoqlar kiradi. Mashinasozlik ishlab chiqaradigan mahsulotlar hajmi, asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymati va xodimlarini soni jihatidan O'zbekiston sanoat tarmoqlari orasida yuqori o'rinlarda turadi.

Bu holatni 1.1.10-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rish mumkin.

Qurilish materiallari sanoati. Respublika qurilish materiallari ishlab chiqaradigan ko'p tarmoqli sanoatga ega. Sement, asbest-tsement, devorbop materiallar, yumshoq yopqich va gidroizolyatsiya materiallari, tabiiy toshlardan qoplama material (plita)lar, noruda qurilish materiallari, qurilish keramikasi, issiqlik izolyatsiyasi materiallari, ohak, gips, bog'lovchi materiallar va ulardan buyumlar, sanitariya-gigena jihozlari, polimer xomashyodan qurilish materiallari va buyumlar, temir –beton konstruksiyalari va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari mavjud.

O'zbekiston mashinasozlik sanoatida muhim mahsulot turlarining o'sishi

1.1. 9- jadval.

	O'lchov birligi	1990y	2000y	2001y	2002y	2003y	2004y
Avtomobillar	ming dona	-	31,3	41,4	35,1	40,7	70,1
Avtobuslar	dona	-	483	307	395	235	187
Kuchlanish trans-	ming kva	8606	134,8	297	306	195	-

formatorlari							
Traktorlar	ming dona	23,3	1	3	3,2	2,9	2,9
Traktor kul- tivatorlari	ming dona	14,8	1,2	-	-	-	1,2
Paxta terish mashinalari	dona	5287	356	167	65	13	15
Maxsus elektrik ko'prik kranlari	dona	338	12	16	4	2	2

Avtomobil sanoati – mashinasozlikning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, uning korxonalarida avtomobillar, tirkama va yarim tirkama yuk tashish moslamalari, avtomobillarga ehtiyot qismlar, agregatlar va boshqa ehtiyot qismlar ishlab chiqariladi. Shuningdek, mototsiklar, motorollerlar, mopedlar, velosiped ishlab chiqarish korxonalari ham avtomobil sanoati tarkibiga kiradi.

**O'zbekistonda sanoat mahsuloti, jumladan, mashinasozlik
mahsuloti hajmining o'sishi (% hisobida) 1.1.10-jadval**

KO'RSATKICHLARI	2007 y.	2008 y.	2009 y.
Jami sanoat	133,2	144,3	153,0
Shu jumladan: Mashinasozlik va metallni qayta ishlash	122,4	133,2	174,1

O'zbekistonda tabiiy xomashyodan qurilish materiallari sifatida foydalanish tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ayniqsa binolar qurilishida xom g'isht, guvala, yog'och sinch, oddiy tuproq(loy)dan, tiklanadigan paxsa asrlar davomida asosiy qurilish materiali bo'lib kelgan. Xumdonlarda

pishirilgan g'isht, sopol, chinni koshin, ganch, yo'nilgan granit, marmar toshlar saroy, madrasa, masjid, rabotlar qurilishida keng qo'llanilgan.

Hozirgi davrda ushbu tarmoq korxonalarida 150 dan ortiq nomdagi asosiy mahsulot turlari tayyorlanadi. Jumladan, 2010 yilda 4,1 mln. tonna sement, 300 mln. shartli taxta asbest-tsement shiferlari, 3,4 mln. m² deraza oynalari ishlab chiqarildi.

Yengil sanoat. Hozirgi davrda O'zbekiston yengil sanoati ko'p tarmoqli industrial kompleks bo'lib, uning tarkibida paxta tozalash zavodlaridan tashqari, to'qimachilik, trikotaj, shoyi to'qish, tikuvchilik, ko'npoyabzal, gilamchilik, chinni-fayans buyumlari va attorlik mollari ishlab chiqarish sohalarida 150 ta yirik va o'rta korxonalar bor. Respublika sanoat mahsulotlari umumiy hajmida yengil sanoat hisssasi 20% ni tashkil etadi. Bu tarmoqda 265 ming xodim ish bilan band. Yengil sanoat tarmog'ining eng muhim sohasidan biri bo'lgan paxta sanoati korxonalarida har yili 1,2 mln. tonnadan ortiq paxta tolasi, 100 ming tonnadan ortiq lint, 22,5 ming tonna chigit, 200 ming tonna urug'lik chigit tayyorlanadi. To'qimachilik sanoatini rivojlantirish maqsadida Rossiya, Italiya, Turkiya, Pokiston, Hindiston, Koreya va boshqa mamlakatlar firmalari bilan ip gazlamalar ishlab chiqaradigan yangi qo'shma korxonalar tashkil etilmoqda. 2010 yilda respublika yengil sanoati tarmoqlarida 476,2 mln. m² gazlama, shu jumladan, 421,3 mln. m² ip gazlama ishlab chiqarildi.

Oziq-ovqat sanoati. O'zbekiston Respublikasi xalq xo'jaligida oziq-ovqat sanoati eng muhim mavqeni egallaydi. Sanoatning bu tarmog'ida asosan xomashyoni qayta ishlashga asoslangan bo'lib, Respublika umumiy sanoati mahsuloti hajmida oziq-ovqat sanoati 1995 yilda 9,8%, 2010 yilda esa 12,3%ni tashkil etgan. Oziq-ovqat sanoati tarmog'ida go'sht-sut, yog'-moy, baliq mahsulotlari, un-yorma, non, makaron, meva-sabzavot konservalari, qandolat, choy qadoqlash, uzum va shampin vinosi, spirt, aroq, tamaki, pivo, chanqoqbosar ichimliklar, sovun va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradigan ko'plab sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Respublika mustaqillikka erishganidan so'ng oziq-ovqat sanoatida chuqur tashkiliy va iqtisodiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Ko'pgina korxonalar davlat tasarrufidan chiqarilib ochiq turdagi aktsiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi, ilgari tarmoq korxonalariga rahbarlik qilgan vazirliklar tugatilib, «Oziqovqatsanoat» davlat-aktsiyadorlik kontserni, «O'zmevasabzavot-xolding» kompaniyasi, «O'zgo'shtsanoat» davlat-aktsiyadorlik uyushmasi, «O'zdonmahsulot», «O'zbaliq» davlat-aktsiyadorlik korporatsiyalari tashkil etildi.

1.2 Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish munosabatlarining iqtisodiyotdagi ahamiyati.

Sanoat ishlab chiqarishida son jihatidan ham, sifat jihatidan ham ijobiy o'zgarishlar o'rin oldi. 2011 yilda sanoatning o'sishi indeksi 110,8%ni tashkil qildi, bu YaIMning ishlab chiqarish tarkibida sanoatning ulushini 22,1% ko'tardi yoki o'tgan yilning shu davridagi darajadan 0,9 foiz daraja yuqori bo'ldi. Yuqori natijalar sanoatning mashinasozlik, kimyo va neftkimyo oziq-ovqat va qurilish materiallarini ishlab chiqarish kabi tarmoqlarida erishildi. Mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqarish, o'tgan yilda erishilgan darajaga nisbatan 25,7%ga oshdi (11-jadval). Avtomobil qo'yi tarmog'ining (32,2%) intensiv rivojlanishi kuzatildi, bu avtomobillar ishlab chiqarish fizik hajmining (38,7%) ko'payishi natijasi xisoblanadi. Tashqi va ichki bozorlarda yuqori talabga ega bo'lgan avtomobil rusumlarini ishlab chiqarish ko'paydi: «Matiz» - 2 martaga, «Damas» - 32,0%ga, «Neksiya» - 15,0%ga oshgan. Importga bog'liqlikni va mahsulot tannarxini kamaytirishga qaratilgan maxalliyashtirilgan ishlab chiqarishni rivojlanishining ijobiy natijalari mashinasozlik mahsulotlari baholarining o'sish suratlarini sekinlashtirdi. Mashinasozlik mahsulotlari baholarining o'sishi indeksi o'tgan yilga nisbatan faqatgina 3,3 foiz darajaga oshdi, bu tashqi bozorlarda milliy ishlab chiqaruvchilar o'rnini mustahkamlash

omillaridan biri bo'ldi. Avtomobillar ishlab chiqarish hajmida eksportning ulushi 52,6% dan 58,9% ga oshdi. Elektrotexnika va qishloq xo'jalik mashinasozligi tarmoqlarining rivojlanish suratlari oshdi va mos ravishda 18,6% va 5,1 %ni tashkil qildi. Elektrotexnika tarmog'i ishlab chiqarish hajmida muzlatkichlar, sovutgichlar,

televizorlar va boshqa shu kabi mahsulotlar ulushi past darajada saqlanib qolmoqda. Shu bilan birga transformator, kabel mahsulotlarini ishlab chiqarish sezilarli darajada ko'paydi, lift ishlab chiqarish qayta tiklandi. Qishloq ho'jalik mashinasozligida ehtiyot qismlar, yengil va to'kimachilik sanoati uchun uskunalar, traktor pritseplari, qishloq xo'jalik mashinalari uchun tirkagich moslamalarning alohida turlarini ishlab chiqarish sezilarli darajada usishga ega bo'lishiga qaramay, traktor ishlab chiqarish (usish 0,2%) avvalgi darajasida qoldi, traktor seyalkalari (70,1%), kultivatorlar (98,2%) va traktor kosilkalari (28,6%) bo'yicha 2010 yildagi ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga erishilmadi. Tashqi bozorda qora va rangli metallarga barqaror talab va ichki bozorlarni milliy mahsulotlar bilan to'ldirish zaruriyati kadrlar tayyorlash milliy dasturini, maktab talimini, bolalar sportini rivojlantirish, shuningdek, mahalliy lashtirilgan ishlab chiqarishning rivojlanishi metallurgiya majmuasida erishilgan o'sishning muhim omillari bo'ldi. Qora metallurgiyada mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi indeksi 11,1% ni tashkil qildi. Po'lat - 3,9% ga va qora metal prokatlarini - 4,2% ga ishlab chiqarish hajmlarining o'sishi ishlab chiqarilgan mahsulotlar likvidlik darajasining yuqori bo'lishiga tasir etdi. Metallurgiya majmuasi mahsulotlari eksporti hajmi 27,9%ga oshdi. Buning natijasida bu tarmoqlarning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi ko'paydi, tovarlar eksporti tarkibida esa ularning ulushi 12,5%da 13,5%ga oshdi. Kimyo majmuasi tarmoqlarida ham mahsulot ishlab chiqarish barqaror rivojlanmoqda, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida tarmoqning ulushi doimiy bir xil ko'rsatkich bo'lib, 4,9% ni tashkil etdi. 2011 yil davomida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishi indeksi 19,6%ga yetdi. Asosiy kimyo ishlab chiqarishi tarkibida "tor o'rin"ga ega bo'lgan, milliy tushunchada neftkimyo sanoatining shuningdek, kaliyli o'g'itlar va o'simliklarni himoyalash bo'yicha kimyo vositalarining keng assortimentlarini ishlab chiqarish mavjud bo'lmaganligi

respublika iqtisodiyoti kimyo majmuasining tarmoqlararo munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmokda.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksilari.

1.2.1.-jadval.

	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi (utgan davrga nisbatan %da)	
	10/I-IU	11/I-IU
Sanoat	107.3	110.8
Energetika	98.3	106.1
Yoqilg'i	98.7	105.9
Qora metallurgiya	108.3	111.0
Rangli metallurgiya	97.4	99.1
Kimyo	109.6	119.6
Mashinasozlik	129.7	125.7
O'rmon yog'ochini qayta ishlash	123.0	118.4
Qurilish materiallari sanoat	111.0	112.2
Yengil	112.0	108.2

Oziq-ovqat	111.2	128.0
Boshqalar	113.5	118.8

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi.

2011 yilda o'simliklarni himoyalash bo'yicha kimyo vositalari va lak-buyoq materiallaridan tashqari kimyo mahsulotlarining barcha turlari bo'yicha ishlab chiqarishning barqaror o'sishi kuzatilgan. Kimyo mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining baholari indeksi sezilarli darajada o'zgarmadi va o'tgan yilga nisbatan 107,6%ni tashki qildi. Baho raqobatbardoshligining pastligi orqali izohlanadigan kimyoviy tola va iplarga bo'lgan ichki va tashqi bozorlardagi talabning kamayishi tendentsiyasi o'zgardi. Hukumat tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida asosan sintetik tolalar (nitron) ishlab chiqarishning kengayishi hisobiga ishlab chiqarish hajmlari 2,1 martaga oshdi. Kelajakda ko'rsatilgan mahsulotning ishlab chiqarish hajmlari barqarorligini taminlash ko'zda tutilmokda.

Asosiy turdagi sanoat maxsulotlari ishlab chiqarishning

o'sish indekslari.

1.2.2.-jadval.

	O'lchov birligi	Asosiy maxsulotlarni ishlab chikarish, natural kurinishda		Asosiy max.sulotlarni ishlab chikarish indeksi (utgan davrga nisbatan %da)	
		10/I-IV	11/I-IV	10/ I-IV	11/I-IV
Elektrenergetika					
Elektrenergiya	mln..kVtch	47581	49318	95.8	103.6
Yoqilg'i					
Neft va kondensat	ming tonna	5478	5412.1	82.8	98.8
Gaz	mln..kub.m	60252	62421.3	99.7	103.6
Siqilgan gaz	ming tonna	211.6	223.1	107.3	105.5
Ko'mir	ming tonna	3002	3122	111.2	104
Metallurgiya					
Po'lat	mingtonna	607.3	630.3	100.8	103.8
Qora metallar prokati	ming tonna	562.2	585.7	102.1	104.2
Mashinasozlik					

Traktorlar	Dona	2868	2872	100.1	100.1
Yengil avtomabillar	dona	101010	140080	144.2	138.7
«Damas»	dona	11917	15731	125.5	132
«Neksiya»	dona	64639	74089	165.4	114.6
«Matiz»	dona	21531	49375	108.4	2.3
«Lasetti»	dona	2923	885	5.8	30.3
Bron kabel	dona	2674	3403	122.4	127.3
Muzlatgichlar	dona	723	5044	23.3	7.0
Sovutkichlar	dona	3287	4698	109.5	142.9
Kir yuvush mashinalar	dona	660	675	67.8	102.3
Kimyo					
Mineral o'g'it	ming tonna	866.2	940.9	98.8	108.6
Azot	mingtonna	765.0	812.3	103.9	106.2
Fosforli	Ming tonna	101.5	128.6	72.4	126.9
Sintetik ammiak	Ming tonna	1064.9	1141	104.5	107.1
Oltingugurt kislota	Ming tonna	741	833.1		112.5
Kimyoviy tola va iplar	Tonna	5456	11509	59.2	2.1
Sintetik yuvish vositasi	Ming tonna	193	444	17.5	2.3
O'simliklarni himoyalash kimyo vositalari	Ming tonna	3175	2223	60.6	70
Sanoat qurilish materiallari					
Sement	Ming tonna	5067.8	5582.9	105.5	110.2
Asbotsement listlar	mln.usl.pl.	397.3	417.1	1131	105
Keramik plitkalar	Ming.kv.m.	150	215	105.3	143.3
Yengil					
Paxta tolasi	Ming tonna	1187.6	1171.2	121.6	98.6
Paxta iplari	Ming tonna				
Ipak-xomashyo tolasi	Tonna	564	613.2	81.6	108.3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi.

Yoqilg'i-energetika majmuasining (YeZM) rivojlanishida baho omili asosiy omil bo'lib hisoblanmaydi. Sanaot bo'yicha shakllangan umumiy baholar darajasidan elektroznergetika baholari indeksi -15 foiz darajaga, yoqilgi tarmog'ida esa -2.6 foiz darajaga kamdir. Asosiy turdagi mahsulotlarni gaz (103,6%), ko'mir (104,0%), elektrznergiya (103,6%) ishlab chiqarish hajmlarining o'sish bilan birga sanoatning umumiy tarkibidagi ulushi esa ham 27,2%dan 27,1%gacha pasaygan. Bunday sharoitda energiya resurslariga bo'lgan baho omili tarmoqlar rentabelligi darajasiga keskin salbiy tasir ko'rsata olmaydi. Yoqilgi-energetika majmuasi tizimida ko'mir sanoatining o'rnini barqaror hisoblanadi, shu bilan birga tarmoqni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirish kompleks chora-tadbirlarini amalga oshirish sekinlashmoqda. Gaz, ko'mir va elektr energiyasi ishlab chiqarishning fizik hajmlari indeksi, indeksi 98,8% tashkil etgan neft va kondensat ishlab chiqarishda mavjud bo'lgan orqada qolishni qoplash imkonini berdi. Yengil sanoat mahsulotlarining o'sishi indeksi o'tgan yilgi darajadan yuqori bo'lib, 8,2%ni tashkil qildi. Avvalgidagi kabi o'sishga, yengil sanoat mahsulotlarining 66% dan ko'prok. qismini shakllantiruvchi paxta tozalash tarmog'i asosiy hissa qushgan. Shu bilan birga, 2011 yilda o'tgan yilning shu davriga nisbatan paxta tolasi ishlab chiqarish 16,4 ming tonnaga yoki 1,4 foiz darajaga kamaydi. Paxta-tolasi eksporti qiymat hajmimining 6,2%ga o'sishi ijobiy dinamikasi kuzatilmokda. Shu bilan birga tovarlar yeksporti umumiy hajmida paxta-tolasi ulushining 2,2 foiz darajaga kamayganligini takidlash lozim, bu esa yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar eksportini oshganligini ko'rsatadi.

Yengil sanoat mahsulotlari baholari o'sishining sekinlashishi ichki yakuniy talabga yo'naltirilgan qayta ishlash tarmoqlarining rivojlanishi dinamikasiga ijobiy tasir etdi. Baholarning o'sishi indeksi o'tgan yilning tegishli davridagi 109,1% ga nisbatan 114,6% ni tashkil etdi (1.2.3-jadval).

Talabning ortishi natijasida paxtadan ishlangan gazlamalar - 34,4% ga, jun matolar - 2,2 marta, tirkotaj - 15,5% ga, to'qimachilik - 2,1 marta, tikuvchilik – 17,5% ga mahsulotlari ishlab chiqarishning fizik hajmlari ko'paydi.

**Sanoat tarmoqlari bo'yicha mahsulot ishlab chiqaruvchining
baho indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)**

1.2.3.-jadval.

	10/I-IV	11/I-IV
Sanoat	128.1	124.0
Elektrenergetika	119.2	109.0
Yoqilg'i	177.7	121.4
Qora metallurgiya	116.7	100.9
Rangli metallurgiya	159.2	167.9
Kimyo	112.6	107.6
Mashinasozlik	110.8	114.1
O'rmon,yog'ochga ishlov berish	100.5	103.7
Qurilish materiallari sanoat	122.7	134.0
Yengil	109.1	114.6
Oziq-ovqat	108.9	121.3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar baholari indeksining o'zgarishi dinamikasi esa, aksincha o'sish sur'atiga ega bo'ldi. Oziq-ovqat mahsulotlari baholarining o'sishi indeksi 2011 yilda o'tgan yildagi 108,9% ga nisbatan 121,3% ni tashkil qildi. Lekin, konserva, o'simlik va hayvon yog'lari hamda pishloq ishlab chiqarishning yuqori sur'atlari oziq-ovqat mahsulotlari importi hajmini 15% ga kamayishiga ijobiy tasir etgan. 2011 yilda sement hajmining 10,2%ga o'sishi hisobiga qurilish materiallarini ishlab chiqarish hajmi 12,2% oshdi. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari qurilishini taminlash uchun ichki bozordagi barqaror talab, shuningdek, eksportni o'sishi qurilish materiallari ishlab chiqarishining o'sishini ta'minlagan asosiy omil bo'ldi. Mamlakat sanoat ishlab chiqarishida qurilish materiallari sanoatining ulushi past darajada saqlanib, 4,0%ni tashkil qildi. Sement sanoatida baho indeksi sezilarli usishga ega bo'lgan va 140,% ni, azbotsement mahsulotlari sanoati da - 171,3% ni, ruda bo'lmagan materiallarda - 127,% ni tashkil etgan, bu mahsulotlarning import mahsulotlariga nisbatan yuqori raqobatbardoshlik sur'atlari saqlanib qoldi. Tarmoqlar rivojlanishining yakunlari ko'rsatdiki, tarkibiy o'zgarishlar dinamikasiga baholarning o'sishi, ichki va tashqi talab konyukturasi kabi omillar o'z ta'sirini ko'rsatishi davom etdi. Sanoat ishlab chiqarishning umumiy tarkibida xomashyo sektorining ulushi 49,3% dan 60,5%ga, shundan, yoqilg'i-energetikaga tarmoqlari 27,2%dan 27,1 %ga va metalurgiya 19,2 % dan 20,9%ga oshdi.

Mashinasozlik tarmoqlarining ulushi 12,9%dan 13,7%ga oshdi, lekin oziq-ovqat va yengil sanoatlarining ulushi 25,3% dan 23,5% ga kamayganligi umumiy sanoat bo'yicha tarkibiy o'zgarishlar samaradorligining pasayishiga tasir etdi. Mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat sanoatlarining umumiy ulushi 38,2% dan 37,2% gacha kamaydi. Kimyo majmuasi tarmoqlarining ulushi deyarli oldingi darajada saqlanib qoldi va 4,9% ni tashkil qildi. Respublikada iste'mol tovarlar bozorini mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlar bilan to'ldirish bo'yicha bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Respublika tovar ishlab chiqaruvchilari va savdo tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar mexanizmi takomillashtirilmokda, iste'mol tovarlarini xaridorga qulay narxlarda yetkazib berish sharoitlari tashkil qilinmokda.

So'nggi yillarda ishlab chiqarilishi bozordagi mutanosiblikni ta'minlash uchun yetarli bo'lmagan tovarlarni maxalliy ishlab chiqaruvchilariga rag'batlantiruvchi imtiyozlar berish bo'yicha bir qator xukumat qarorlari qabul qilindi. Jumladan, Vazirlar Maxkamasining 2002 yil 13 noyabrdagi 390-sonli qaroriga asosan alohida tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar, tovarlar ro'yhatidan kelib chiqqan holda daromad solig'ini amaldagiga nisbatan 20 % kamaytirilgan stavkada to'laydi. Kichik korxonalar iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishdan tushgan tushumdan amaldagiganisbatan 25 % kamaytirilgan yagona soliq to'lovini amalga oshiradi. Natijada oxirgi yillarda tovarlar ishlab chiqarish hajmlarining barqaror o'sishi kuzatilmokda. 2006 yil davomida tovar ishlab chiqarish hajmi 20,6% ga oshib, 4069,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Tovar ishlab chiqarish respublikaning barcha xududlarida tashkil qilingan. Lekin, ularning harbiri tovarlar bozorida o'zining segmentiga egadir, bu esa, respublika ishlab chiqarishining umumiy hajmida xududlarning ulushi (Qorakolpog'iston Respublikasi bo'yicha 1,3% dan Andijon viloyati bo'yicha 30,4% gacha) vaaholi jon boshiga tovar ishlab chiqarish (14-jadval) ko'rsatkichlarining keskin tabaqalanishuvi orqali tasdiqlanadi. Hajmlarni oshirish, marketing olib borish, tarmoqlar korxonalarining moliyaviy holati va har xil to'lov qobiliyatiga asoslangan talab tomonidan chegaralanishlarni o'z ichiga olgan boshqa ob'ektiv omillar bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligiga bog'lik holda bu ko'rsatkichlar dinamikasi o'zgaradi. Natijada ishlab chiqarishning makro-tarkibida ular tomoniga bo'lgan ijobiy dinamikasi kuzatilmokda. Nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 55,6% dan 58,2% ga ko'paydi. Boshqa hududlarda oziq-ovqat mahsulotlari ulushi yuqori bo'lgan, jumladan, Qorakolpog'iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo, Sirdaryo viloyatlarida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 80% dan yuqori bo'lgan, Yengil sanoat mahsulotlari ulushining 2010 yildagi 10% dan 2011 yilda 7,7% gacha kamayishi kuzatilmokda.

Respublikada 1350 ming tonna un, 15,9 ming tonna yerma, 170 ming tonnadan ortiq shakar, 250 ming tonnadan ortiq yeg', 200 mshb. meva- sabzavot konserva mahsulotlari, 10 ming tonna choy, 9 mln.dal alkohol mahsulotlari, 30 mln. trikotaj mahsulotlari, 200 ming kv.m. paxta va ipak matolar, 140 ming yengil avtomobillar

va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarildi. 2011 yilda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qumitasida ro'yxatga olingan va ishlab chiqariladigan 43 turdagi tovarlardan 28 tasi bo'yicha ishlab chiqarish fizik hajmlarining barqaror o'sishi shakllandi, jumladan, 16 tasi oziq- ovqat tovarlari, 12 tasi nooziq-ovqat tovarlari. 16 ta tovar guruhlari, umladan 6 tasi oziq-ovqat mahsulotlari, 10 tasi nooziq- ovqat mahsulotlari guruhlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmlari kamaygan (16-jadval.). Muzlatkichlar ishlab chiqarish - 7 marta, to'qimachilik galanteriyasi ishlab chiqarishi - 6 marta, go'sht konservalari va alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish - 2 marta, choy, sigaret - 1,5 marta, yengil avtomobillar - 1,4 marta, muzkaymok, meva-sabzavot konservalari - 1,3 marta, makaron mahsulotlari, aralash ozuqalar, sharbat, gilam va gilam mahsulotlari - 1,2 marta oshdi. 1% dan 17% gacha o'sish un, o'simlik yog'i, chorvachilik mahsulotlari, tirkotaj buyumlari va poyafzal, sovun, maishiy texnikaning ayrim turlari bo'yicha shakllandi.

Iste'mol tovarlar bozorida alohida segmentni kichik korxonalar tomonidan ishlab chiqilgan tovar va mahsulotlar tashkil qilmokda. Shu bilan birga, ishlab chiqarish hajmida kichik korxonalarning ulushi yuqori emasdir.

Bu ko'rsatkichning dinamikasi 1.2.4-jadvalda keltirilgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, sanoat mahsulotlarining umumiy hajmida kichik korxonalar ulushi 2010 yilgacha kamayish dinamikasida bo'lgan bo'lsa, 2011 yilda ma'lum darajada bu ko'rsatkichning o'sishi sur'atlari shakllanmokda.

1.2.4-jadval,%

Yillar	Sanoat mahsulotlarini ishlab chikarish xajmida kichik korxonlar ulushi
2005	14.5
2006	15.9

2007	10.0
2008	10.1
2009	9.4
2010	10

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Bu umuman kichik biznesni jumladan, iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish sohasida rivojlantirish uchun qo'lay sharoitlarni yaratish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar bilan bog'liqdir. Umuman, bozorni maxalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan to'ldirish darajasi yuqori bo'lib, 80%dan ortiqni tashkil qiladi. Ichki bozorni maxalliy tovarlar bilan tuldish dinamikasi 1.2.5-jadvalda keltirilgan.

Respublikada ishlab chiqarishi tashkil qilingan va uni kengaytirish imkoniyatlari mavjud bo'lgan alohida tovarlar guruhi bo'yicha ichki bozor resurslarida import yuqori bo'lib, 30% dan 60% gachani tashkil qiladi. Bunday tovar larga eng avvalo -ipak, jun matolar, tayyor bolalar va kattalar kiyimlari, trikotaj mahsulotlari, sport kiyimlari, mayka poyafzal, paypoq, idish-tavoq, maishiy murakkab texnikalarning alohida turlari kabi yengil sanoat tovarlari kiradi. Ular importiga 2011 yilda 21mln. AQSh dollaridan ziyod mablag' sarflangan. Quyidagi omillar mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirishga to'siq bo'lmoqda:

Ichki bozor resurslariga nisbatan %da 1.2.5-jadval

Yillar	Jami tovarlar	Shundan	
		Oziq-ovqat	Nooziq-ovqat
2009	87.4	94.1	79.8

2010	88.6	94.4	82
2011	86.9	93.9	75.7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi.

1. Aholi iste'mol tovarlarini ishlab chiqaruvchi yirik sanoat korxonalarining asosiy qismi qo'shimcha sarf-xarajatlarni talab qiluvchi

eski uskuna va texnologiyalarga ega. Yirik va kichik tovar ishlab chiqaruvchilar uchun turli soliq tizimining mavjudligi. Bundan tashqari tovar ishlab chiqaruvchilar tovar sifatining nozarati, ekspertiza, xulosa berish organlari (standartlashtirish, sog'liqni saqlash, ekologiya va boshqalar) xizmatlari uchun tulovlar bo'yicha qushimcha harajatlarni qilishmoqda, bu tayyor mahsulot narxini yuqori va raqobatsiz qilmokda.

2. Tovar ishlab chiqarishda foydalaniladigan xomashyo va ikkilamchi materiallar importiga bojxona tulovlarining yuqoriligi. Misol uchun, poyafzal ishlab chiqarish uchun, kolodka, rang, kimyo vositalari, press-forma

olib kelish lozim. Zamonaviy tayyor kiyim ishlab chiqarish uchun keng assortimentdagi mato (jun, yarim jun, aralash, atsetatli va boshqalar) va to'qimachilik galanteriya va furniturasini import qilish lozim;

3. Mavsumiy tayyor mahsulotlarni chakana savdo tashkilotlari orqali sotish muammosi tug'ilmokda. Savdo korxonalari tovarlarni konsignatsion yani mahsulot sotilgandan so'ng to'lovlar amalga oshirish shartlari asosida qabul qilmokda. Sotilmagan mahsulotlarni korxonalar mahsulot yetkazib beruvchiga qaytarishadi, bu mahsulotlarni keyingi mavsumda sotish zararbo'lmokda; 4. Eskirgan korxonalarni tamirlash va xomashyo sotib olish uchun o'zoq muddatli kreditlar yetarli miqdorda berilmayotir. Bugungi kunda berilayotgan kreditlarning foiz stavkalari 22-23% dan yuqori bo'lmokda, bu bayta moliyalash stavkasidan ancha yuqori bo'lib, kredit olish imkoniyatini chegaralamokda. Ishlab chiqaruvchilarga homiy yordami sifatida berilayotgan moliyaviy mablag'lar hajmi soliq solish bazasiga kiritilganligi sababli ular kam samarali bo'lmokda.

5. Tovar ishlab chiqaruvchilarni, ayniqsa kichik korxonalarni xomashyo sotib

olishlari uchun yetarli sharoit yaratilmagan. Bunday mahsulotlar birja savdolarida chegaralangan miqdorda yoki katta hajmda qo'yilmokda. Birja faoliyatini sezilarli darajada yaxshilanishiga qaramay, kichik firma-ishlabchiqaruvchilar uchun birja jarayonlari qiyinligicha qolmoqda;

6.Korxonalarning elektr energiya va gaz bo'yicha qarzдорligining shakllanishi bilan, bu energiya manbalari uchiriladi, bu esa ishlab chiqarishni uzoq muddatga tuxtashiga olib kelmokda. Bunda, tugallanmagan ishlab chiqarishning tovar materiallar zahirasi yaroqsiz sifatida chiqarib tashlashga majbur bo'linmokda, bu jami tayyor mahsulotlar tannarxining oshishida namoyon bo'lmokda. Mahalliy iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishni rag'batlantirish maqsadida xukumat darajasida qo'yidagi yo'nalishlardagi masalalarni hal qilish maqsadga muvofikdir.

1.Mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarga qayta moliyalash umumiy stavkasidan oshmagan stavkalarda uzoq muddatli kredit resurslari ajratishni, ichki bozorda xomashyo va materiallar sotib olish uchun banklar tomonidan nakd pullarni berishni o'z ichiga olgan qushimcha moliyaviy qullab-quvvatlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

2.Birja savdolarida qo'yilayotgan mahsulotlar assortimentini kengaytirish, birja jarayonlari va shartnomalar tizimini soddalashtirish;

3.Energetik resurslar uchun tulovlar bo'yicha qarzдорlik bilan bog'lik holda ishlab chiqarishni tuxtatishga yo'l qo'ymaslik va bunday holatlarni tartibga solishning ishlab chiqarishga zarar keltirmaydigan muqobil yo'llarini izlash;

4.Import uchun bojxona to'lovlarini bosqichma-bosqich kamaytirish tartibini ishlab chiqish;

5.Maxalliy va import tovarlarga QQS va aktsiz solig'ini to'lashning yagona tizimini joriy qilish bilan tovar ishlab chiqaruvchilar va import qiluvchilarga teng raqobat muhitini tashkil qilish.

II-Bob. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida sanoat mahsulotlarini chiqarish ekologik jihatlarini.

2.1 Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi va unga ta'sir etuvchi asosiy omillar.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishgandan keyin Surxon vohasida ham har tomonlama rivojlanish uchun ulkan imkoniyatlar ezaga keldi. Ma'lumki, sobiq ittifoq davrida sanoat korxonalari barpo etilishiga e'tibor yo'qligi oqibatida viloyat asosan agrar ishlab chiqarishga moslashgan edi. Mustaqillikning o'tgan davrida to hozirgi kunga qadar viloyatda yangidan-yangi ishlab chiqarish korxonalari qurildi. Ayni paytda, viloyatda paxtachilik, oziq-ovqat, qurilish sanoatiga ixtisoslashgan korxonalar samarali foaliyat ko'rsati kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, hukimati tomonidan viloyatda sanoat korxonalarini keng miqiyosda barpo etish, tarmoqlarga chet el

investitsiyalarini jalb etish, xorijiy sarmoya io'tirokidagi qo'shma korxonalar qurish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, respublikamizning janubiy viloyatlari Qashqadaryo va Surxandaryoning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish, temir yo'lda yuk tashishni yaxshilash, mamlakat temir yo'li tarmog'ini jonlantirish maqsadida "asr mo'jizasi" bo'lgan "Toshguzar-Boysun-Qumqurg'on" yangi temir yo'li ishga tushirildi. Ushbu temir yo'l Boysun tumani orqali yuk tashish sifatini yaxshilashga, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan kam rivojlangan tuman qishloqlariga sanoat kirib kelishiga, yerusti va yerosti boyliklaridan keng ko'lamda foydalanishga, musaffo tog' havosida qator davolash maskanlari, sayyohlik bazalari, dam olish uylari, qurilishiga katta imkoniyat yaratadi. Eng asosiysi, ushbu vazifalarning bajarilishi tufayli, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy ob'ektlar qurilishi, yangi ish o'rinlari yaratilishi, tadbirkorlik rivojlanishi uchun zamin yaratildi.

Surxan zamini nafaqat yerusti, balki yerosti qazilma boyliklariga ham mo'ldir. Neft vagaz (Xovdag, Kakaydi, Lalmikor, Amudaryo bo'yi tekislillari), toshko'mir (Sharg'un, Boysun, Qo'xitangtog'), polimetall Xonjiza) osh tuzi (Xo'jaikon), gips, granit, argullit kabi qurilish materiallari olinadigan konlar mavjud. Jumladan, sanoat ishlab chiqarish 6,6 foizga, aholi iste'mol mollari ishlab chiqarish 5,1 foizga, qishloq xo'jalik mahsulotlari 5,9 foizga, kapital qo'yilmalar hajmi 23,1 foizga, pudrat ishlari 14,9 foizga, chakana savdo 15,1 foizga, jami xizmatlar 20,0 foizga vapullik xizmat ko'rsatish 21,6 foizga o'sdi. 2009 yil tahlillari yakuniga ko'ra, viloyatdagi sanoat korxonalari tomonidan jami 464807,8 mln so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,6 foizni tashkil etdi va viloyatda ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 6,9 foizga teng bo'ladi. Shuningdek, aholi iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi ham o'sib bormoqda. Jami 22 ta asosiy sanoat korxonalarida mehnat qilayotgan 7851 nafar ishchi-xodim tomonidan tarmoqlar bo'yicha tahlil qilinganda yoqilgi sanoati 111,6 foiz, kimyo va neftni qayta ishlash sanoati 300,8 foiz, yengil sanoat 101,3 foiz, oziq-ovqat sanoati 100,8 foiz, qurilish materiallari

sanoati 127,6 foiz, un-yorma va kombikorma sanoati 122,3 foiz bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari to'liq ta'minlandi.

Shuningdek, viloyatda sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish dasturi bo'yicha 2009 yilda uchta, ya'ni "Angor paxta", "Xayrabod paxta" va "Surxonoziqovqat" xissadorlik jamiyatlari korxonalarida modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash ishlari amalga oshirildi. "Xayrabod paxta" hissdorlik jamiyati korxonasida umumiy qiymati 2,6 mlrd so'm miqdoridagi modernizatsiyalash ishlari, "Angor paxta" xissadorlik jamiyati korxonasida 5,5 mlrd so'mlik rekonstruktsiyalash ishlari amalga oshirilishi bkgilangan edi, 2009 yilning yakunida "Angor paxta" xissadorlik jamiyati korxonasida 5,5 mlrd so'mlik va "Xayrabod paxta" hissdorlik jamiyati korxonasi 2,6 mlrd so'mlik qurilish-ta'mirlash va montaj ishlari amalga oshirildi.

"Surxonoziqovqat" hissdorlik jamiyati korxonasida 2009 yil yakunida amalda jami 1,0 mlrd so'mlik moderniza, texnik va texnologik qayta jihozlash ishlari amalga oshirilib, bu boradagi topshiriq rejasi 120,6 foizga bajarildi. Viloyat bo'yicha mehnat shartnomasi asosida sanoat korxonalari tomonidan jami 2945 ta yangi kasanachilik ish o'rinlari tashkil etilib, belgilangan yillik topshiriq 105,8 foizga bajarildi. Kasanachilar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ko'rsatilayotgan xizmatlarning xilma-xilligi ta'minlanib, 70 turdan oshirilishiga erishildi. Misol uchun, 2009 yilda qishloq xo'jaligi yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmi 1019594 mln so'm bo'lib, jumladan, qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan 11839,9 mln so'm, fermer xo'jaliklari tomonidan 379394,2 mln so'm, dehqon xo'jaliklari tomonidan 628359,9 mln so'mdan iborat bo'ldi. Bu o'tgan yilning shu davriga nisbati solishtirma narxda 105,9 foizni tashkil etdi. Jami ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotining 593681,2 mln so'mligi (58,2 foizi) dehqonchilik va 425912,8 mln so'mligi (41,8 foizi) chorvachilik mahsulotlardan iborat bo'ldi. Yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarishda fermer xo'jaliklari ulushi 37,2 foiz va dehqon xo'jaliklari ulushi 61,6 foizni tashkil etdi. 2009 yilda viloyat bo'yicha 653,6 ming tonna boshoqli don, 349,8 ming tonna paxta hosili yig'ib

olindi, 111,2 ming tonna kartoshka, 425,0 ming tonna sabzavot, 104,9 ming tonna poliz, 84,1 ming tonna meva va 67,5 ming tonna uzum mahsulotlari halqimiz dasturxoniga tortiq etildi.

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish asosan ko'rsatkichlari ham ortig'i bilan uddalandi, jumladan, go'sht ishlab chiqarish 2008 yili 99752 tonnani tashkil etgan bo'lsa, 2009 yilda 104704 tonnaga yoki 105 foizga ko'paydi. Sut ishlab chiqarish 2008 yiliga nisbatan 104,7 foiz bo'lib, 476157 tonnani, tuxum ishlab chiqarish ham 105,9 foizga o'sdi yoki 139052 ming donani tashkil etdi.

Surxandaryo viloyati o'zining hosildor yeri, qo'lay iqlimi, eng asosiysi ishning ko'zini biladigan insonlari bilan har jihatdan hamkorlik qilishga, investitsion loyihalarni amalga oshirishga katta imkoniyatlari bor mintaqasi. Shu sababli, viloyatda investitsion dastur va istiqbolli, ustivor investitsion loyihalar hayotga keng ko'lamda tatbiq etilmoqda. Masalan, qurilish sohasida moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan kapital quyilmalar hajmi 511,8 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 121,3 foiz o'sishga erishildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 20 iyundagi "2008-2012 yillarda Surxandaryo viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya vakriditlar hamda mahalliy mablag'larni jalb etgan holda, viloyat bo'yicha 2009 yilda jami 88 ta (44,19 mlrd so'm hamda 23,3 mln AQSh doll.) investitsion loyihalar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda huqumatimizning hududlar iqtisodiyotini mutanosib va jadal rivojlantirish, moliyaviy barqarorligini ta'minlash, mavjud tabiiy vama'danli xomashyo resurslaridan samarali va oqilona foydalanishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 5 yanvardagi "Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish

vaxizmatlar o'rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'grisida"gi farmoishning bajarilishi yuzasidan 2009 yil davomida Surxandaryo viloyatida sanoat korxonalarini tomonidan 2945 ta yangi kasanachilik ish o'rinlari tashkil etilib, belgilangan topshiriq 5.8 foizga ortigi bilan bajarildi. Jumladan, yirik sanoat korxonalarida 511 ta, boshqa tarmoqlardagi yirik korxonalarda 1160 ta, kichik sanoat korxonalarida 1274 ta yangi kasanachilik ish o'rinlari yaratildi. Kasanachilar tomonidan 2009 yil davomida jami 1051,7 mln so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi, natijada, kasanachilarning o'rtacha oylik ish haqi sezilarli o'sdi. Kasanachilar ishlab chiqarayotgan mahsulotlar hamda ko'rsatilayotgan xizmatlarning turi kengayib, hozirda 70 xildan ortiq mahsulot ishlab chiqarilmoqda.

Viloyatda 2009 yil davomida jami 1860 ta sanoat korxonalarini ro'yxatdan o'tgan bo'lib, shundan 1462 tasi faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning 22 tasi yirik, 444 tasi kichik sanoat korxonalarini hisobiga to'g'ri keladi. Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 2008 yilga nisbatan o'sishga erishilgani (106,6 foizga) mazkur sohaning istiqboli ortib borayotganidan dalolatdir. Ayniqsa, elektroenergetika (95,5%, kimyo va neft-kimyo sanoati (3,9 marta), mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati (144,5%), qurilish moteriallari sanoati (127,6%), yengil sanoat (101,3%), oziq-ovqat sanoati (100,8%), un-krupa va kombikorma sanoatlarida (122,3%) o'sishga erishilgani yaqqol ko'zga tashlandi. Viloyatda xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmini oshirish chora-tadbirlari doimo rahbariyatning diqqat- markazida turibdi. Natijada, o'tgan yili 130,8 mlrd so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari (103,8%), 36,6 mlrd so'mlik nooziq-ovqat maqsulotlari (113,9%) va 14,1 mlrd so'mlik vino- aroq va piva ichimliklari (96,0%) ishlab chiqarildi. Ishlab chiqarilgan aholi iste'mol mollar jon boshiga 82,2 ming so'mdan to'g'ri keldi. Surxandaryo agrar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan viloyatlardan hisoblanadi. Shu bois, bu yerda qishloq xo'jalik sohasini rivojlantirish ustivor yo'nalishlardan sanaladi. Bu borada yalpi ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi o'tgan yilga nisbatan 105,9% bajarildi. Jumladan, davlatga paxta xom-ashyosi yetkazib berish uchun 335 ming tonnaga

shartnomalartuzilib, amalda 349,8 ming tonna(103,4%) paxta xomashyosi yetkazilib berildi.Shuningdek 102,2ming gektar maydonga boshqoli don ekilib,barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 675,7 ming tonna don ishlab chiqarildi.Jami ishlabchiqarilgan donning 550,1ming tonnasi umumiy sektorda va 125,6 ming tonnasi aholi xo'jaliklarida yetishtirildi.Shuningdek,viloyat pillakorlari tomonidan 1463,4tonna kumush tola(104,5%)tayyorlandi. Iqtisodiyotni yuksaltirishning birinchi shartlaridan biri-bu, albatta, ustuvor investitsion loyihalar hayotga tatbiq etilishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, viloyatda bu borada sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda.Masalan,o'tgan yili qurilish sohasida moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan kapital qo'yilmalar hajmi511,8mlrd so'mni tashkil etib, 2008yilga nisbatan121,3%o'sishga erishildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining2008 yil 20iyundagi "2008-2012yillarda Surxandaryo viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi qaroriga asosan,to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investittsiya va kreditlar hamda mahalliy mablaqlarni jalb etgan holda,viloyat bo'yicha 2009 yil davomida dastur doirasida va dasturdan tashqari jami88 ta(44,19 mlrd so'm hamda 23,3mlnAQSh doll.)investitsion loyihalar amalga oshirildi. 2009 yilda viloyat aholisiga 777,7mlrd so'mlik xizmatlar ko'rsatilib, 2008 yilga nisbatan yaqqol o'sish kursatildi,ya'ni, 120,0% lik natijaga erishildi.Jumladan,savdo 2008 yilga nisbatan 113,5%, transport114,6%, aloq va axborot 183,0 %, moliya va bank 140,2%,turizim va sayyohlik 175,2%, kammunal xizmati 101,1%, maishiy xizmat ko'rsatish119,2% bajarildi. 2009 yilda mazkur sohani rivojlantirish maqsadida jami 1325,4mln so'm kredit mablag'lari ajratildi.

Surxandaryo viloyatining tashqi savdo imkoniyati katta istiqbolga ega. 2009 yilda bu borada 206,9 mln AQSh dollarlik ko'rsatkichga erishilgani viloyat tashqi savdoning yildan-yilga rivojlanib borayotganidan dalolatdir.Tashqi savdo aylanmasida eksportning importga nisbati yuqoriligi tufayli ,ijobiy saldo 174,5 mln AQSh dollariga teng bo'ldi. Agar eksportda ishtirok etgan mahsulot turlariga e'tibor qaratilsa, umumiy hajimning 63,2% paxta tolasi ,7,9% oziq-ovqat

mahsulotlari, 21,1% energiya manbai mahsulotlari va boshqa turdagi mahsulotlar hamda xizmatlar tashkil etadi. Shuningdek, viloyat bo'liyaa import hajmi 16,2 mln AQSh dollarini tashkil etdi. Viloyatda ro'yxatdan o'tgan jami 72 ta qo'shma korxonadan 39 tasi sanoat, 8 tasi transport va telekommunikatsiya xizmatlari, 4 tasi qishloq xo'jaligi, 15 tasi savdo sohasi hamda 6 tasi boshqa sohalarga ixtisoslashgan. Ayni paytda ushbu qo'shma korxonalarning 63 tasi faoliyat yuritmoqda. Mazkur korxonalar tomonidan 2009 yilda 104,3 mlrd so'mlik mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarildi va 2008 yilga nisbatan 110,9% ga o'sish qayd etildi. 2010 yilda viloyatda yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2009 yilga nisbatan 112,2%, unda kichik biznesning ulushi 73% ga va xizmatlar ulushi 44,5% ga yetkazilishi ko'zda tutilgan. Shuningdek, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning boshqa turlarida ham sezilarli o'sishiga erishiladi. Jumladan, sanoatda ishlab chiqarish hajmi 118,3, aholi iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi 114,4, qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmi 106,3, kapital qo'yilmalar hajmi 105,1, pudrat ishlari 110,5, chakana savdo 122,5, jami xizmatlar 124,0, pulli xizmat ko'rsatish 120,0% ga o'sishi belgilangan.

2.2. Ayrim sanoat tarmoqlarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning xususiyatlari tahlili.

Ijtimoiy mehnat taqsimoti ma'lum buyum va mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining o'sishi va fan-texnika taraqqiyoti natijasidir. Ishlab chiqarish ko'lamining kengayishi esa ixtisoslashgan ishlab chiqarishning kontsentratsiyalashuvi va kichiklashuvi, yangi sanoat tarmoqlarining tashkil topishi va ilgari bunyod etilganlarni takomillashtirishni taqozo etadi.

Ijtimoiy mehnat taqsimotining mohiyati va ahamiyati to'g'risida so'z borganda, shuni aytish kerakki, u tufayli xo'jalik rivojlanishi natijasida sanoatning ayrim va mustaqil tarmoqlari ko'payadi, bu rivojlanish tendentsiyasi har bir ayrim mahsulotni chiqarishnigina emas, hatto mahsulotning har bir ayrim qismini ishlab chiqarishni ham va faqat mahsulot ishlab chiqarishnigina emas, hatto mahsulotni iste'mol qilishga tayyorlashdagi ayrim ishlarni ham sanoatning alohida tarmog'iga aylantirishdan iborat.

Ijtimoiy mehnat taqsimoti uch shaklda: umumiy, xususiy va ayrim, birlamchi shaklda ro'y beradi. Xalq xo'jaligining yirik sohalari, ya'ni sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport va aloqaning vujudga kelishi umumiy mehnat taqsimotining mahsulidir. Bu tarmoqlarning har birida sohalarning mustaqil ravishda ajralib chiqishi xususiy mehnat taqsimoti natijasidir. Birlamchi mehnat taqsimoti esa ishlab chiqarishni korxona ichida – sexlar, uchastkalar va yangi ish joylarni tashkil etish bilan bog'liqdir.

Xususiy va ayrim hollarda birlamchi mehnat taqsimotining ta'siri bilan O'zbekiston sanoatida ham tarmoqlar va ishlab chiqarishlar soni uzluksiz ko'payib bormoqda. 2000 yilning oxiriga kelib respublikada sanoatning 175 ga tarmog'i va ishlab chiqarish sohalari faoliyat ko'rsatmoqda.

U yoki bu ishlab chiqarish faqat ma'lum texnik – iqtisodiy asos (zamin) yaratilgandagina alohida sanoat tarmog'iga aylanishi mumkin. Buning uchun eng avvalo bir necha turdosh korxonalar bo'lishi lozim.

Ular aniq mustaqil sanoat tarmog'iga birlashtirish imkoniyatini beradigan ma'lum belgiga ega bo'lishi kerak.

Sanoat tarmog'i ishlab chiqarish uyushmalari, kombinatlari va korxona (firma)lari yig'indisidir. Tarmoq hosil etish uchun korxonalar bir necha umumiy xususiyatlarga ega bo'lishlari kerak:

- ishlab chiqariladigan mahsulot iqtisodiy mazmunining bir xilligi;
- ishlatiladigan xomashyo va asosiy materiallarning o'xshashligi;
- ishlab chiqarishning texnik bazasi va texnologik jarayonlarining umumiyligi;
- ma'lum kasbdagi kadrlar tarkibining umumiyligi;
- ijtimoiy mehnatni tashkil etish darajasi va shakllarining bir biriga o'xshashligi va hokozolar.
- Sanoat ishlab chiqarishni ilmiy jihatdan asoslangan ravishda tahlil etish va rejalashtirish, uning samaradorligini aniqlash va boshqarish uchun tarmoqlarni tasniflash, ya'ni ma'lum guruhlariga ajratish lozim.
- Sanoat tarmoqlarini guruhlashda asosiy e'tibor tayyorlanadigan mahsulotning iqtisodiy mazmuniga qaratiladi. Mahsulotning iqtisodiy jihatdan bir maqsadga javob berishi belgisiga qarab, sanoat ikki yirik guruhga bo'linadi: Ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi ("A" guruh), iste'mol buyumlari ishlab chiqaruvchi ("B" guruh) turlarga bo'linadi. Ma'lumki, deyarli barcha sanoat tarmoqlarida ham ishlab chiqarish vositalari, ham iste'mol buyumlari sifatida foydalanish mumkin bo'lgan mahsulotlar tayyorlanadi. Shu sababli rejalashtirish va hisob-kitob yuritishda ba'zi bir sanoat tarmoqlari "A" yoki "B" guruhga kiritilishi mumkin.
- Mehnat vositalarining mehnat buyumlariga ta'sir ko'rsatishiga qarab sanoat qazib oluvchi va ishlov beruvchi tarmoqlarga bo'linadi. Sanoatning bunday ikki qismga bo'linishi ishlab chiqarish aloqalarini ko'rsatishga, material va yoqilg'i-energetika resurslarini, ishlab chiqaruvchi va iste'mol qiluvchi tarmoqlar o'rtasidagi nisbatlarni asoslab berishga imkon yaratib beradi.
- Ishlab chiqariladigan mahsulotning funksional vazifasiga binoan ham tarmoqlarni guruhlash mumkin. Bunda alohida guruhlar, bir qator tarmoqlar,

masalan, yoqilg'i ishlab chiqaruvchi – yoqilg'i sanoati, oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlovchi – oziq- ovqat sanoatiga birlashishi mumkin.

- Hozirgi paytda Makroiqtisodiyot va statistika vaziriligining Statistika departamenti tasnifsiga ko'ra, barcha sanoat tarmoqlari 18 kompleks tarmoqqa birlashtirilgan.

Tarmoq tuzilmasi deyilganda, uning tarkibi, tarmoqlar o'rtasidagi nisbatlar va o'zaro bog'liqlik tushuniladi. Tarmoq tuzilmasi sanoat taraqqiyoti darajasini belgilaydi hamda unda yuz bergan va yuz beradigan o'zgarishlarni aks ettiradi.

Tarmoq tuzilmasiga binoan quyidagi jihatlarni aniqlash mumkin bo'ladi:

- ijtimoiy mehnat taqsimoti va kooperatsiyaning darajasini;
- mamlakatning iqtisodiy jihatdan mustaqil ekanligini;
- sanoat va butun xalq xo'jaligining ilmiy-texnika salohiyatini;
- mamlakat va uning viloyatlari sanoatining rivojlanish darajasini;
- sanoat tarmog'ining "A" guruhi bilan "B" guruhi o'rtasidagi ishlab chiqarish aloqadorligini;
- ijtimoiy mehnat unumdorligi yoki ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligining darajasini;

O'zbekiston sanoatining kompleks tarmoqlari

2.2.1.-jadval

№	Kompleks tarmoqlari	Kompleks tarmoqqa kiruvchi tarmoqlar soni
1	Elektroenergetika sanoati	3
2	Ko'mir sanoati	2
3	Gaz sanoati	2
4	Neft va neftni qayta ishlash	2
5	Qora metallurgiya	2

6	Rangli metallurgiya	4
7	Mashinasozlik va metallni qayta ishlash	40
8	Kimyo va neft-kimyo sanoati	12
9	O'rmonsozlik, yog'ochni qayta ishlash va qog'oz sanoati	3
10	Qurilish materiallari sanoati	14
11	Oyna va chinni-fayans sanoati	2
12	Mikrobiologiya sanoati	12
13	Meditcina (farmatsevtika) sanoati	3
14	Poligrafiya	1
15	Yengil sanoat	18
16	Oziq-ovqat sanoati	22
17	Un, yorma va yem sanoati	3
18	Qolgan tarmoqlar	21

Sanoat tarmoqlari tuzilmasini tavsiflash uchun ayrim tarmoqlar o'rtasidagi ma'lum ishlab chiqarish aloqadorligini ifodalovchi miqdoriy nisbatlarni aniqlab olish kerak. Bu muammoni hal etish uchun bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ulardan biri tarmoqlar o'rtasidagi nisbatlarni ifodalasa, ikkinchisi ma'lum davr ichidagi tuzilmaviy o'zgarishlarni, uchinchisi esa ishlab chiqarish aloqalarini ifodalaydi.

Tarmoq tuzilmasini ifodalovchi ko'rsatkichlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- mustaqil sanoat tarmoqlarining soni;
- tarmoqlarning sanoat ishlab chiqarish umumiy hajmidagi salmog'i;
- tarmoq rivojining sur'ati;
- tarmoqning ilgarilab ketish koeffitsienti.

Mustaqil sanoat tarmoqlarining soni mamlakat industrial taraqqiyoti, uning iqtisodiy va ilmiy-texnik salohiyati, iqtisodiy jihatdan mustaqilligini ifodalaydi.

Tarmoqning yalpi mahsulot sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmidagi ulushi, ishchilar soni va asosiy fondlar qiymatidagi salmog'i ko'rsatkichlari bilan o'lchanadi.

Tarmoqning rivojlanish sur'atini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$C = \frac{100 * II}{X},$$

bu yerda S – tarmoqning rivojlanish sur'ati;

P – tarmoq rivojlanishining rejali darajasi;

X – tarmoq rivojining hisobot davridagi darajasi.

Tarmoqning rivojlanish koeffitsienti tarmoqlar tarkibidagi miqdor o'zgarishlarni ifodalaydi va ma'lum davrdagi sanoat tarmoq tuzilmasidagi siljishlarni ko'rsatib beradi. Bu koeffitsient quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$K = \frac{Tp * c}{Cp * c},$$

bu yerda Tr * s – tarmoqning rivojlanish sur'ati;

Sr * s – sanoatning rivojlanish sur'ati.

Sanoat tarmoqlari orasidagi yuzaga kelgan mutanosibliklar va ularning o'zgarishiga ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi hamda boshqa bir qator omillar ta'sir etadi.

Sanoat ishlab chiqarish tarmoq tuzilmasini belgilovchi asosiy omillarga quyidagilar kiradi:

- fan-texnika taraqqiyoti va uning yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish;

- material va yoqilg'i, energetika resurslarini iqtisodiy tejashni kuchaytirish;
- ijtimoiy mehnat taqsimoti, ixtisoslashtirish va koope-rativlashtirishning darajasi;
- sanoat ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari;
- aholining moddiy va madaniy darajasi o'sishi;
- ijtimoiy-tarixiy sharoitlar;
- mamlakatning tabiiy resurslari va ularni o'zlashtirish darajasi;
- mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida tutgan o'rni va uning boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorligi.

Sanoat tarmoq tuzilmasi o'zgarishiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri ilmiy-texnika taraqqiyotidir. Fan- texnika taraqqiyoti eng avvalo, yangi mehnat vositalari va mahsulotning yangi turlarini yaratish, mavjud asbob-uskunalar va texnologiya jarayonlarini takomillashtirish, yangilarini joriy etish bilan bog'liqdir. Bu esa mavjud sanoat tarmoqlaridan yangidan yangi sohalarining ajralib chiqishiga va shakllanishiga turtki beradi. Natijada progressiv hisoblangan, ya'ni avtomobilsozlik, asbobsozlik, radiotexnika va elektronika, lazer texnologiyasi tez sur'atlar bilan rivojlanadi.

Bundan tashqari, fan-texnika taraqqiyoti tufayli yangi progressiv xomashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya turlaridan foydalanish sanoatda ishlab chiqarish xarakterini o'zgartiradi. Yuqori tejamkorlikka ega bo'lgan xomashyo, material, yarim fabrikatlar va yoqilg'i ishlab chiqaradigan tarmoqlar iste'molchi tarmoqlarga yetkazib borishni kengaytirishlari natijasida xalq xo'jaligining boshqa tarmoq mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji nisbatan kamayadi. Masalan, sun'iy va sintetik tolani ishlab chiqarishning taraqqiy etishi to'qimachilik sanoatida bir so'mlik mahsulot uchun sarflanadigan tabiiy tola sarfini qisqartiradi. Natijada mahsulotning material talabligi kamayadi va sanoat bilan qishloq xo'jaligi, sanoatning qazib oluvchi tarmog'i bilan ishlov beruvchi tarmog'i o'rtasidagi nisbat o'zgaradi.

Sanoat tuzilmasining o'zgarishiga ishlab chiqarishni tashkil etishning ijtimoiy shakllari – kontsentratsiyalash, ixtisoslashtirish va kombinatlashtirish juda katta ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarishda kichik korxonalarning ko'payishi tarmoq taraqqiyotini tezlashtirgani holda uning umumsanoat mahsulotidagi miqyosini oshirishga olib keladi. Ixtisoslashtirish ijtimoiy mehnat taqsimoti jarayonini ifodalagani holda ayrim mahsulotlar yoki mahsulot qismlarini mustaqil ishlab chiqarishga, tayyorlashga, yangi sanoat tarmoqlari tashkil qilinishiga sabab bo'ladi. Masalan, ixtisoslashtirishning taraqqiy etishi natijasida mashinasozlikda komplektlovchi (butlovchi) buyumlar sanoati, asbob-uskuna sanoati, priborsozlik, elektronika va boshqa sanoat sohalari tashkil topadi.

Kooperativlashtirish va kombinatlashtirish tarmoqlar o'rtasidagi aloqadorlikni kengaytiradi va tarmoq strukturasini murakkablashtiradi.

Kishilar moddiy va ma'naviy farovonligining o'sishi ham sanoat tarmoqlari tuzilmasining o'zgarishiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Bu omil ta'siri ostida yengil va oziq-ovqat sanoatlarida chiqariladigan mahsulotlar nomenklaturasi va assortimenti o'zgaradi, shuningdek, madaniy-maishiy buyumlar – televizor, soat, fotoapparat, kir yuvish mashinasi, mototsikl, motoroller va boshqalar ishlab chiqaradigan maxsus tarmoqlar tashkil topadi. Sanoat tarmoqlari tuzilmasiga ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim omillardan yana biri, mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rni hisoblanadi.

Hozirgi davrda iqtisodiy integratsiyaga kiruvchi har bir mamlakatda ayrim tarmoqlar taraqqiyoti uchun qulay iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy sharoitlar borligi tufayli iqtisodiy integratsiya dasturlari tuzilgan. Ulardagi sanoat o'z mamlakatining ehtiyojlarinigina emas, balki boshqa davlatlar ehtiyojlarini ham hisobga olgan holda rivojlanmoqda.

Mustaqillik yillarida sanoat tarmoq tuzilmasida g'oyat muhim o'zgarishlar ro'y bermoqda. Buni 16-jadval ma'lumotlaridan ham ko'rish mumkin.

O'zbekiston sanoatining 1900 – 2010 yillardagi tarmoq tuzilmasining iqtisodiy tahlili hozirgi sharoitda O'zbekiston sanoat ishlab chiqarishida fan-

texnika taraqqiyotini jadallashtirishni ta'minlaydigan tarmoqlar rivojining yuqori sur'atlar va keng ko'lami taqozo qilgan progressiv o'zgarishlar ro'y berayotganidan dalolat beradi.

O'zbekiston sanoatining hozirgi taraqqiyoti katta dinamiklik bilan ajralib turadi, chunki u mustaqillik yillarida, ayniqsa XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida yuqori sur'atlar bilan rivojlana bordi. Ayni vaqtda ishlab chiqarishning yuqori darajada o'sish bilan bir qatorda, uning tuzilmasida ham uzluksiz tarkibiy o'zgarishlar ro'y berdi.

O'zbekiston sanoatida 1900 – 2010 yillar mobaynida yalpi mahsulot ishlab chiqarishning tarmoqlar tuzilmasi dinamikasi

(yakuniga nisbatan foiz hisobida) 2.2.3.-jadval

Tarmoq	1900	1940	1991	2006	2007	2008	2009	2010
Butun sanoat	100	100	100	100	100	100	100	100
Shu jumladan:								
Elektroenergetika	-	-	2,8	9,1	8	7,7	9,2	10,8
Yoqilg'i sanoati	-	-	3,7	15,0	13,2	13,4	12,5	13,3
Qora metallurgiya	-	-	0,7	1,2	1,4	1,5	1,8	2,6
Rangi metallurgiya	-	-	9,7	10,1	10,9	13,4	15,2	15,3
Kimyo va neft kimyo	-	0,5	4,3	5,5	6	5,9	5,7	5,6
Mashinasozlik va metalni qayta ishlash	0,5	8,8	11,6	9,2	11,2	13,3	11,8	12
Qurilish materiallari					5,2	4,6	4,4	4,1

sanoati	0,5	1,8	5,2	5,3				
O'rmon, yog'och va qog'oz sanoati	-	1,4	1,2	1,4	1,4	1,3	1,4	1,4
Yengil sanoat	85	58,8	39,9	19,0	20,0	19,5	20,3	19,4
Oziq-ovqat sanoati	12	25,1	14,7	14,1	12,6	14,6	11,4	9,6
Boshqa tarmoqlar	2,0	2,1	6,2	9,6	11,4	9,4	6,4	6,3

Keyingi 14 yil mobaynida sanoat tuzilmasi ishlab chiqarishni intensivlashtirish va uning samaradorligini oshirish talablari va halq xo'jaligini balanslashtirish zaruriyatiga mos ravishda o'zgarib bordi. Sanoat ishlab chiqarishining progressivlik, ya'ni taraqqiyparvarlik darajasi anchagina o'sdi.

Bunday rivoj fan-texnika taraqqiyotini belgilovchi tarmoqlar – neft va gaz sanoati, mashinasozlik, kimyo sanoatining ustuvor o'sishida namoyon bo'ldi. Buni keltirilgan ma'lumotlardan ko'rish mumkin.

Yuqorida keltirilgan tarmoq korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar 1991 yilda umum sanoat mahsulotning 32,8 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2004 yilda bu ko'rsatkich 41 foizga yetdi. Sanoat tuzilmasining ilg'orligi har kaysi kompleks tarmoq ichidagi o'zgarish bilan belgilanadi. Sanoatning u yoki bu tarmog'ining ulushi o'zgarmasligi, hattoki kamayishi ham mumkin, Lekin bu tarmoq ichidagi qoloqlikdan darak bermaydi. Buni O'zbekiston mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati misolida ko'rish mumkin. Masalan, bu tarmoqda 1997 yilda yalpi sanoat mahsulotining 13,2 foizi ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2001 yilga kelib bu ko'rsatkich 12 foizni tashkil etdi, ya'ni qariyb 1,2 foizga kamaydi.

Fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlarning ustuvor rivojlanish tendentsiyasi 2005-2010 yillarda ham alohida ko'zga tashlanadi. Bu davr rivojlanish dasturida sanoat ishlab chiqarishining tuzilmasini, ya'ni strukturasini takomillashtirish, undiruvchi va qayta ishlovchi tarmoqlarning

rivojida balanslikni ta'minlash milliy iqtisodiyot va fan-texnika taraqqiyotini belgilaydigan raqobatbardosh mahsulotlar tayyorlashni kuchaytirish ko'zda tutilgan. Sanoatning uzoq istiqbolga mo'ljallangan rivojini aniqlash, turli iqtisodiy mutanosibliklarni belgilash va ularga e'tibor qilish zarurligini talab qiladi. Bunday mutanosibliklar tarmoq tuzilmasini prognozlashda inobatga olinadi. Sanoat ishlab chiqarish tuzilmasini rejalashtirish va prognozlash quyidagi asosiy masalalarni hal qilishga qaratilishi kerak:

- bozor iqtisodiyoti talablari, xalq xo'jaligi va aholining ayrim mahsulot turlariga bo'lgan talabini qondirishni hisobga olgan holda umuman sanoat va uning har qaysi tarmog'ining rivojlanish sur'atini belgilashni;

- ilg'or ishlab chiqarish tarmoqlarini aniqlash, ular taraqqiyotini tezlashtirish uchun zarur bo'lgan kapital qo'yilmalari va materiallarni birinchi navbatda ajratishni;

- sanoat tuzilmasida ustuvor o'zgarishlarni ko'zda tutish lozimki, har qaysi bunday o'zgarishlar ijtimoiy ishlab chiqarishning eng yuqori samaradorligini ta'minlasin;

- xalq xo'jaligining umumiy mutanosibligi har qaysi sanoat tarmog'i taraqqiyotining tengligi bilan bog'lashni talab etadi.

Tarmoq tarkibining mamlakat miqyosida qulaylashuvi yuqori sur'atda iqtisodiy rivojlanishni, aholining turmush darajasini oshirishni hamda mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishni ta'minlaydi. Chunki bu ishlab chiqarishning darajasi va yakuniy, provard mahsulotning kupayishiga, umuman ijobiy strukturaviy siljimplarga sabab bo'ladi. Demak, tarkibiy o'zgarishning o'zi ishlab chiqarish samaradorligi va mehnat unumdorligi o'sishining qo'shimcha omili sifatida maydonga chiqadi.

Sanoat tarmoqlari tuzilmasini takomillashtirishning asosiy yo'llari quyidagilardir:

- ishlab chiqarish vositalari va iste'mol tovarlari ishlab chiqaradigan tarmoqlar orasida mutanosiblikni o'rnatish;

- ishlab chiqarish tuzilmasining prognoz va tendentsiyalarini ishlab chiqish;
- tarmoqlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini barqororlashtirish;
- ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtirish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish;
- shaxsiy va ijtimoiy iste'molni o'rganish hamda aholini yuqori sifatli sanoat mahsulotlari bilan to'la ta'minlash;
- tarmoqlarda xomashyo va resurslardan oqilona foydalanish samaradorligini oshirib borish.

Iqtisodiy rayonlar sanoatini zaruriy (mehnat, moddiy va moliyaviy) resurslar bilan ta'minlash va ulardan oqilona foydalanishni to'g'ri yo'lga qo'yish. Ayni vaqtda tarmoqlarning ichki tuzilmasini qayta qurish, mahsulot ishlab chiqarish va aholining turmush darajasini oshirish, chet el korxonalari bilan iqtisodiy hamkorlik qilish, chet el investitsiyalari hamda ilg'or texnologiyalarini sifatli sanoat mollari tayyorlashga yo'naltirish vazifalarini hal etish kerak bo'ladi.

Respublika iqtisodiyotida va uning yetakchi tarmog'i bo'lgan sanoat sohasida amalga oshirilayotgan tarkibiy siljishlar yaqin kelajakda quyidagilarni amalga oshirish uchun imkoniyatlar yaratadi:

- mamlakat aholisining oziq-ovqat mahsulotlari, ommabop talabga ega bo'lgan tovarlar va boshqa hayotiy zarur vositalarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishni ta'minlash;
- fan-texnika taraqqiyoti va sanoatning ilgarilib boradigan rivojini tejaydigan texnologiyalarni, umuman ilg'or tarmoqlarni rivojlantirish;
- respublikaning o'zida ishlab chiqariladigan mahsulotlarni ko'paytirish va shu asosda tovarlar importini qisqartirish;
- agrosanoat majmui samaradorligini oshirish va uni qishloq xo'jaligi xomashyosini yanada chuqurroq qayta ishlashga o'tkazish hamda tayyor mahsulotning sifati va tovar ko'rinishini oshirish;
- kichik biznes korxonalari (firmalar va tadbirkorlik, dehqon, fermer xo'jaliklari, «korxona-maxalla» tipidagi ishlab chiqarish tuzilmalari)ni rivojlantirish asosida yangi ishchi o'rinlarini hamda yangi sohalarni yaratish;

- va nihoyat, respublikada u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarish uchun tegishli sharoit va mineral-xomashyo resurslari mavjudligini hisobga olgan holda sanoatning eksport salohiyatini oshirish va eksport ustunligiga erishish uchun sharoitlar yaratadi. Sanoat majmuasiga doir mahsulotlar majmuiga bu soha tarmoqlari quyidagicha hissa qo'shmoqda:

6.Yoqilg'i sanoati va energetika -18,3%;

7.Metallurgiya - 13,9%;

8.Yengil sanoat - 18,6%;

9.Ximiya sanoat - 5,2%;

10.Mashinasozlik - 15,8%;

11.Oziq-ovqat - 10,8%;

12.Qurilish materiallari - 6,5%;

13.Yog'ochni qayta ishlash - 2%.

Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish vazifasi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda doimo diqqatimiz markazida bo'lib, iqtisodiy rivojlanish borasida erishgan yutuqlarimizning muhim omili hisoblanadi.

Sanoat majmuasiga doir mahsulotlar majmuiga bu soha tarmoqlari quyidagicha hissa qo'shmoqda:

14.Yoqilg'i sanoati va energetika -18,3%;

15.Metallurgiya - 13,9%;

16.Yengil sanoat - 18,6%;

17.Ximiya sanoat - 5,2%;

18.Mashinasozlik - 15,8%;

19.Oziq-ovqat - 10,8%;

20.Qurilish materiallari - 6,5%;

21.Yog'ochni qayta ishlash - 2%.


Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish vazifasi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda doimo diqqatimiz markazida bo'lib, iqtisodiy rivojlanish borasida erishgan yutuqlarimizning muhim omili hisoblanadi. Jahon

iqtisodiyotida kechayotgan murakkab yechayotgan murakkab jarayonlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, raqobatbardoshligini oshirish uchun uning tarkibiy tuzilishini muttasil takomillashtirib borish zaruratini yanada kuchaytirdi. Mamlakatning raqobatbardoshligi eng avvalo uning iqtisodiyoti raqobatbardoshligi orqali ifodalanadi. Ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshlik o'zaro jiddiy farq qilishi mumkin. Bu bozorlarda ichki va tashqi muhitni tashkil etuvchi omillarning turlicha ekanligi, ya'ni to'lovga qodir talab hajmi, ichki va tashqi bozordagi narxlar o'rtasidagi farq, olib borilayotgan tashqi savdo siyosati va h.k.lar bilan belgilanadi. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasi uning tabiiy resurs salohiyati, mehnat resurslarining soni va sifati (malaka darajasi), ishlab chiqarishning texnik-texnologik modernizatsiyalashganlik darajasi, iqtisodiyot tarkibiy tuzilishining takomillashganligi, davlatning iqtisodiy rivojlanish hamda islohotlar strategiyasi qay darajada ilmiy asoslanganligi va o'zgarishlar jarayonlarini hisobga olganligi hamda boshqa bir qancha omillarga bog'liq.

Frantsuz iqtisodchisi F.Perruning ta'rifiga ko'ra, iqtisodiy birlikning tarkibi ayni sharoitda va shu lahzada uni tavsiflaydigan proportsiyalar va nisbatlar majmuidir. Murakkab tizim sifatida iqtisodiyotning barcha elementlari orasidagi shakllangan va o'zgarib boradigan proportsiyalar va o'zaro nisbatlar tarkibiy o'zgarishlarni tavsiflaydi. Milliy xo'jalikning maqbul tarkibi, alohida turdagi ishlab chiqarishlarning rivojlanganligi va balanslashganligi, ularning o'zaro mutanosibligi har qanday davlat rivojlanishining pirovard maqsadi – aholi turmush farovonligining oshishiga xizmat qiladi. Mamlakat xo'jaligining turli bo'lak yoki qismlarga qanday belgilar asosida ajratilishiga ko'ra iqtisodiyot tarkibiy tuzilishining turlari o'zaro farqlanadi. Mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi shakllanishida uning tabiiy resurs salohiyati, geografik joylashuvi, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganlik darajasi kabi omillar muhim ahamiyatga ega bo'lsada, uni o'zgartirish va takomillashtirishda davlatning tarkibiy siyosati hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Jarayonlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, raqobatbardoshligini oshirish uchun uning tarkibiy tuzilishini muttasil takomillashtirib borish zaruratini yanada kuchaytirdi. Mamlakatning raqobatbardoshligi eng avvalo uning iqtisodiyoti raqobatbardoshligi orqali ifodalanadi. Ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshlik o'zaro jiddiy farq qilishi mumkin. . Bu bozorlarda ichki va tashqi muhitni tashkil etuvchi omillarning turlicha ekanligi, ya'ni to'lovga qodir talab hajmi, ichki va tashqi bozordagi narxlar o'rtasidagi farq, olib borilayotgan tashqi savdo siyosati va h.k.lar bilan belgilanadi.

2.2.1-chizma




Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasi uning tabiiy resurs salohiyati, mehnat resurslarining soni va sifati (malaka darajasi), ishlab chiqarishning texnik-texnologik modernizatsiyalashganlik darajasi, iqtisodiyot tarkibiy tuzilishining takomillashganligi, davlatning iqtisodiy rivojlanish hamda islohotlar strategiyasi qay darajada ilmiy asoslanganligi va o'zgarishlar jarayonlarini hisobga olganligi hamda boshqa bir qancha omillarga bog'liq.

Frantsuz iqtisodchisi F.Perruning ta'rifiga ko'ra, iqtisodiy birlikning tarkibi ayni sharoitda va shu lahzada uni tavsiflaydigan proportsiyalar va nisbatlar majmuidir.

Murakkab tizim sifatida iqtisodiyotning barcha elementlari orasidagi shakllangan va o'zgarib boradigan proportsiyalar va o'zaro nisbatlar tarkibiy o'zgarishlarni tavsiflaydi.

Milliy xo'jalikning maqbul tarkibi, alohida turdagi ishlab chiqarishlarning rivojlanganligi va balanslashganligi, ularning o'zaro mutanosibligi har qanday davlat rivojlanishining pirovard maqsadi – aholi turmush farovonligining oshishiga xizmat qiladi.

Mamlakat xo'jaligining turli bo'lak yoki qismlarga qanday belgilar asosida ajratilishiga ko'ra iqtisodiyot tarkibiy tuzilishining turlari o'zaro farqlanadi. Mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi shakllanishida uning tabiiy resurs salohiyati, geografik joylashuvi, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganlik darajasi kabi omillar muhim ahamiyatga ega bo'lsada, uni o'zgartirish va takomillashtirishda davlatning tarkibiy siyosati hal qiluvchi rol o'ynaydi. Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirib borish, chuqur qayta ishlangan, tayyor, qo'shilgan qiymat hissasi yuqori bo'lgan mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlarni jadal rivojlantirish va ularning YaIM hamda mamlakat eksportidagi ulushini ko'paytirish muhim ahamiyatga ega. Respublikamizda olib borilgan izchil tarkibiy siyosat natijasida iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishida sifat siljishlari ro'y berdi. Jumladan, sanoat ishlab chiqarishining YaIMdagi ulushi 2000 yilda 14 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda bu ulush 24 foizga yetdi.



Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmlari shu yillarda muttasil yuqori sur'atlarda o'sdi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'siriga qaramasdan tarmoqda o'sish sur'ati 2008 yilda 12,7 foizni, 2009 yilda esa 9 foizni tashkil etdi (3-chizma).

Taqqoslash uchun qayd etish mumkinki, 2009 yilda sanoat ishlab chiqarishi hajmi oldingi yilga nisbatan Qozog'iston Respublikasida atigi 1,7 foizga o'sgan bo'lsa, Rossiya Federatsiyasida 10,8 foizga, Ukrainada 21,9 foizga qisqardi

2009 yilda yuqori o'sish sur'atlari mashinasozlik va metallni qayta ishlash (117,4%), kimyo va neft-kimyo, yoqilg'i (110,3%), qurilish materiallari (108,7%), qora metallurgiya (108,4%) va oziq-ovqat (108,2%) sanoatida qayd etildi.

Sanoat ishlab chikarishi dinamikasi (utgan yilga nisbatan uzgarishi) 2.2.2-
diagramma



Ma’ruzada 2010 yilda iqtisodiyotda tarkibiy o’zgartirishlarni yanada chuqurlashtirish siyosatini davom ettirish borasida quyidagi vazifalarni amalga oshirishga alohida urg’u berildi:

1) korxonalar o’rtasida barqaror kooperatsiya aloqalarini o’rnatish va kengaytirish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishni ko’paytirish bo’yicha ishlarni davom ettirish;

2) mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan iste’mol tovarlari turini kengaytirish va hajmini oshirish orqali iste’mol bozorini ular bilan to’ldirish va mutanosibligini ta’minlash;

3) aholiga xizmat ko’rsatish sohasini yanada kengaytirish, xizmat ko’rsatish sohasining YaIMdagi ulushini 49 foizga yetkazish;

4) kichik biznesni jadal rivojlantirish, sohani qo’llab-quvvatlash bo’yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish;

5) tashqi savdo aylanmasi, shu jumladan eksportning tovar tarkibini yanada diversifikatsiya qilish.

Bu vazifalar kompleks tavsifga ega bo'lib, bir-birini to'ldiradi va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlaydigan optimal tarkibini shakllantirish maqsadiga xizmat qiladi. Ma'lumki, mehnat taqsimoti va unga bog'liq ravishda mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashish mehnat unumdorligini o'stirish, tayyorlanayotgan mahsulot sifatini yaxshilash va tannarxini kamaytirish uchun imkoniyat yaratadi. Ayni paytda, u yoki bu mahsulot turiga ixtisoslashish ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun xom ashyo, butlovchi qismlarni boshqa ixtisoslashgan korxonalardan sotib olish ehtiyojini keltirib chiqaradi. Shu tariqa korxonalar o'rtasida kooperatsiya aloqalarini o'rnatishga zarurat yuzaga keladi. Bugungi kunda kooperatsiya aloqalarining xom ashyo yetkazib berishdan iborat oddiy ko'rinishidan tortib to franchayzing tizimini qo'llash kabi murakkab turlarigacha mavjud. Korxonalarning bozorlarda qaysi mahsulot yoki xom ashyoga ehtiyoj borligini bilishlari, uni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishlari uchun zarur bo'lgan materiallar va xom ashyoni qaysi korxonalardan olishlari mumkinligi to'g'risida axborotga ega bo'lishlari ularning rivojlanishi, umuman mamlakat iqtisodiyotining yuksalishida muhim omil xisoblanadi. Bunday axborotlarning yetarli emasligi va ularni olishdagi qiyinchiliklar mavjudligi sababli mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan yoki ishlab chiqarish imkoniyati mavjud bo'lgan xom ashyo, butlovchi qismlar, materiallar yoki tayyor mahsulotlarni valyuta evaziga, ko'pincha qimmat narxlarda xorijdan olib kelish hollari mavjud. Bunga barham berish maqsadida mamlakatimizda tarmoq, tarmoq ichidagi va xalqaro sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda. Mamlakatimiz korxonalarining kooperatsion aloqalarini kengaytirish bir necha vazifalarni hal etish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 noyabrdagi «Ichki tarmoq va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini yanada kuchaytirish chora-

tadbirlari to'g'risida» 3937-sonli Farmoniga ko'ra tashkil etilgan Respublika sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- tarmoq ichidagi va tarmoqlararo kooperatsiyani rivojlantirish;
- mahalliy va xorijiy ishlab chiqaruvchilarni mamlakatimizning turli hududlarida ishlab chiqarilayotgan, import qilinayotgan va o'zlashtirilishi istiqbolli bo'lgan tovarlar bilan tanishtirish;
- ishlab chiqaruvchilarga sheriklarni izlab topishda hamda o'zi ishlab chiqargan mahsulotni yetkazib berish yuzasidan xo'jalik shartnomalari tuzishlarida ko'maklashish;
- mamlakatimiz korxonalari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni, shu jumladan, mahalliy lashtirilayotgan mahsulotlarni xorijiy foydalanuvchilar uchun qulay bo'lgan axborot resurslari orqali keng reklama qilish.

2009 yilda Respublika sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasiga xalqaro maqomi berildi. Iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish vazifalarini hal eta borib Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi uzoq muddatli xo'jalik aloqalarini yo'lga qo'yish va kengaytirish uchun zarur qonunchilik bazasi va bozor infratuzilmasini yaratish, tarmoq ichidagi, tarmoqlararo va xalqaro kooperatsiya doirasida korxonalarga zarur xom ashyo va kredit resurslaridan erkin foydalanishlari imkoniyatini ta'minlashga xizmat qiladi. Sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi ikki bosqichda:

- birinchi bosqichda – tarmoq ko'rgazmalari va yarmarkalari;
- ikkinchi bosqichda – Xalqaro tarmoqlararo sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi o'tkaziladi.

2010 yil 20-27 oktyabr kunlari o'tkazilgan Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasining quyidagi natijalari uning yuqori samara berganligini ko'rsatadi:

- yarmarkada 378 ta mahalliy korxona, 46 ta xorijiy davlatning 600 ta firmasi vakillari ishtirok etdi;

- jami tashrif buyurganlar soni 41 ming kishini tashkil etdi;

- yarmarkada ilgari ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan birga 124 turdagi yangi tayyor mahsulot, butlovchi qismlar va materiallar namoyish qilindi;

- kooperatsiya birjasi davomida 1,9 trln. so'mlik, ya'ni 2008 yilga nisbatan 1,4 marta ko'p hajmdagi shartnomalar imzolandi;

- mamlakatimiz korxonalarida ishlab chiqarilgan 2,3 mlrd. dollarlik mahsulotlarni eksport qilish bo'yicha xorijiy firmalar bilan shartnomalar tuzildi va h.k.

Korxonalar o'rtasidagi kooperatsiya aloqalarini kengaytirish va mahsulot ishlab chiqarishni mahalliyashtirish o'zaro chambarchas bog'langan jarayonlardir. Tarmoq ichidagi va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasining kengayishi tayyor mahsulot, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish uchun shart-sharoit yaratadi.

2010 yilda iqtisodiyotimizni rivojlantirishning prognoz parametrlariga erishish, uning raqobatbardoshligini ta'minlash, tarkibiy tuzilishini takomillashtirish kabi o'zaro bog'langan vazifalarni hal etishda mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish ko'lamini kengaytirish muhim rol o'ynaydi. Hozirda yangi loyihalarni Mahalliyashtirish dasturiga kiritish, o'zini oqlamagan, istiqbolsiz loyihalarni dasturdan chiqarish, loyihalar parametrlariga o'zgartirishlar kiritish mexanizmlari takomillashtirib borilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 1 dekabrda 1236-sonli Qarori bilan Mahalliyashtirish dasturini tuzish tartibi takomillashtirildi, bu jarayonda davlat boshqaruv organlari va loyihalar tashabbuskorlarining asosiy funktsiyalari va vakolatlari aniq belgilab berildi, dasturga kiritilgan loyihalar monitoringini olib borish tartibi joriy etildi.

Mashinasozlik sanoati. O'zbekistonda mashinasozlik sanoatining dastlabki korxonalari XX-asr boshlarida vujudga keldi. Dastlabki paytlarda O'zbekistonda metalga ishlov berish sanoati asosan 14 ta kichik ta'mirlash ustaxonalaridan iborat edi. Ularda temir yo'l, paxta tozolash va yog' zavodlarining ta'mirlash ishlari bajarilardi.

Xalq xo'jaligida temir yo'l transportining yo'lovchilar hamda yuk tashishda salmog'i katta. Respublika temir yo'lida bu transport turi MDH doirasida qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni amalga oshirishda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston 1972 yilda qurilgan Qo'ng'iro't-Beynov magistrali Qozog'iston orqali Rossiyaning Markaziy, Janubiy Ural mintaqalariga tutashgan. Xovas-Aris magistrali ham mamlakatni Qozog'iston orqali Rossiyaning Sibir, Uzoq Sharq mintaqalari bilan, Toshkent-Turkmanboshi yo'li Turkmaniston bilan bog'laydi, Navoiy – Nukus yo'li Qozog'iston orqali Rossiyani bog'laydi.

1994 yil noyabrda O'zbekiston Respublikasida joylashgan temir yo'l korxonalari va muassasalari negizida «O'zbekiston temir yo'llari» davlat-aktsiyadorlik kompaniyasi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi mamlakat mustaqilligi va iqtisodiyoti uchun ulkan ahamiyatga ega bo'lgan, Xitoy, Koreya, Yaponiya, Eron, Turkiya va /arbiy Yevropaning janubi bilan tutashtiradigan Transosiyo magistrali (Istanbul-Toshkent-Olmaoto-Pyokin) qurilishida hissaboy ishtirok etmoqda.

«O'zbekiston temir yo'llari» 50 mingdan ortiq turli tipdagi yuk vagoni va Germaniyada tayyorlangan refrejeratorlarga, 1450 yo'lovchi tashiladigan vagonga ega. Kompaniyaning temir yo'ldan foydalanishga mas'ul bo'lgan Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Orol bo'yi, Qarshi temir yo'l bo'limlari bor. 2001 yil umumiy foydalaniladigan temir yo'l transportida 66,2 mln.t yuk tashildi. 20 tonnali konteynerlar bilan yuk tashish respublikadagi 12 stantsiyada (Shumilov, Jizzax, Qaqar, Marg'ilon, Andijon, Rauston, Ulug'bek, Tinchlik, Buxoro-2, Qarshi, Urgench)da amalga oshiriladi, kelajakda Nukus temir yo'l stantsiyasi shular jumlasiga kiradi.

Tashiladigan yuklarning asosiy qismini qurilish materiallari (umumiy tashiladigan yuk hajmining 21%i), paxta tolasi (3%), neft va neft mahsulotlari (35%), g'alla, sement, kimyoviy mahsulotlar va mineral o'g'itlar, ko'mir, sabzavot va boshqa xalq xo'jaligi yuklari tashkil etadi. Yuk tashishda teplovozlar, yo'lovchilar tashishda teplovoz va elektropoezdlar xizmat ko'rsatadi. 2001 yil temir yo'l transportida 18,4 mln. yo'lovchi tashildi. Yo'lovchilarga xizmat ko'rsatishda, ayniqsa shaharlar atrofidagi qatnovlarda elektropoezlardan tobora kamroq foydalanilmoqda.

**O'zbekistonda transport turlari bo'yicha yuk tashish
tarkibi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida) 2.2.4.-jadval**

	Soha	Yo'lovchi tashish	Yo'lovchi aylanmasi
	Avtomobil transporti	0,5	6,9
	Quvur yo'li	0,03	11,6
	Temir yo'l	8,6	5,2
	Havo yo'llari	90,9	76,3

**O'zbekistonda transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish
va yo'lovchi aylanmasi tarkibi (umumiy hajmga nisbatan
foiz hisobida) 2.2.5.-jadval**

	Soha	Yo'lovch i tashish	Yo'lovchi aylanmasi
--	------	-----------------------	------------------------

Temir yo'l	0,5	6,9
Havo yo'li	0,03	11,6
Shahar elektr transporti	8,6	5,2
Avtomobil transporti	90,9	76,3

Avtomobil transporti va yo'llari. Respublika xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari va mamlakat aholisi ehtiyojlarini qondirish darajasida rivojlangan avtomobil transportiga ega. Xalq xo'jaligining sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, suv xo'jaligi, aloqa, savdo, sog'liqni saqlash, kommunal xo'jaligi, madaniyat, mudofaa va boshqa tarmoqlarida ixtisoslashtirilgan yirik avtotransport korxonalari mavjud.

Barchamizga ma'lumki, mustaqillikni qo'lga kiritishimiz asosida eski totalitar tizimning barham topishi eng avvalo mamlakatimiz hududi bo'ylab, qolaversa jahonning turli nuqtalari bilan tutashtiruvchi, qulay, samarali va eng muhimi, ishonchli avtomobil yo'llar tizimining barpo etilishini taqozo etar edi. Shunga ko'ra, hozirda yuqori darajadagi xalqaro standartlarga javob beradigan, mamlakatimizning barcha hududlarini o'zaro ishonchli bog'laydigan va mintaqaviy hamda jahon bozorlariga chiqishni ta'minlaydigan O'zbekiston milliy avtomagistralini qurish va rekonstruktsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli dastur amalga oshirilmoqda. Buning natijasida umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarining uzunligi 42530 kilometrga yetdi .

**O'zbekiston Respublikasi avtomobil yo'llari tarmog'ining
umumiy uzunligi** **2.2.5.-jadval.**


Yo'l turlari	Uzunligi, km
Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari	42530
Shaharlar va boshqa aholi punktlari ko'chalari	61664

Xo'jalik avtomobil yo'llari	79367
shu jumladan:	
- ichki xo'jalik yo'llari	67274
- korxonalarga qarashli yo'llar	12093

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarining 51 foizi mahalliy ahamiyatdagi, 40 foizi davlat ahamiyatidagi va 9 foizi xalqaro ahamiyatdagi yo'llar hisoblanadi (4-chizma).

Uzbekistonda umumiy foydalanishdagi avtomobil yullari tarmogining tarkibiy tuzilishi

2.2.3-diagramma



Mazkur dastur doirasida 2009 yilda 217 kilometrlik avtomobil yo'li foydalanishga topshirildi, 538 kilometr yo'l va 19 ta ko'prik kapital ta'mirlandi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun Respublika yo'l jamg'armasi hisobidan 280 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi. O'zbekiston Respublikasi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida 2009 yil yakuni bo'yicha qurish va ta'mirlash

bo'yicha jami bajarilgan ishlar hajmi 2008 yilga nisbatan 118,7 foizni tashkil etdi .
Yo'l-qurilish texnikasini sotib olish uchun Osiyo taraqqiyot bankining umumiy qiymati 56 million dollarga teng bo'lgan imtiyozli kredit resurslari jalb etildi.

Mamlakatimiz temir yo'l transport tizimini rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo'yicha ishlar davom ettirildi. «Toshguzar–Boysun–Qumqo'rg'on» yangi temir yo'l liniyasida Yaponiya kapitali ishtirokida 5 ta ko'priq foydalanishga topshirildi.

2.2.6-jadval.

O'zbekiston Respublikasi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida 2009 yil yakuni bo'yicha qurish va ta'mirlash ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Hajmi, mlrd.so'm	2008 yilga nisbatan, %
Jami bajarilgan ishlar	370,6	118,7
Investitsiya dasturi	114,4	104,8
Mukammal va o'rta ta'mirlash	177,2	126,1
Joriy ta'mirlash va saqlash ishlari	63,2	117,3
Yo'l ta'mirlash texnikalari va jihozlar xarid qilish	15,8	160,9

«Navoiy–Uchquduq–Sulton Uvaystog'–Nukus» temir yo'l liniyasining 6 ta yangi raz'ezdi ishga tushirildi. Temir yo'llarni elektrlashtirish, temiryo'l

lokomotivlari parki va harakatdagi tarkibni yangilash loyihalarini amalga oshirish ishlari boshlandi.

2009 yilda Navoiy viloyatida tashkil etilayotgan erkin industrial-iqtisodiy zonaning asosiy ob'ektlaridan biri sifatida Navoiy shahri aeroporti bazasida xalqaro tashishlar bo'yicha intermodal markaz qurilishi yuzasidan katta ishlar amalga oshirildi.

O'tgan yil mobaynida «Korean Eyr» kompaniyasidan milliy aviakompaniyamiz ijaraga olgan zamonaviy transport samolyotlari bilan ushbu aeroportdan xalqaro yo'nalishlar bo'yicha 330 dan ortiq reys amalga oshirildi va qariyb 8,5 ming tonna yuk tashildi. Bu Navoiy shahri aeroportini global logistika tarmog'iga integratsiyalash imkonini berdi. Angren shahrida mamlakatimiz hududlari va Farg'ona vodiysi viloyatlari o'rtasida yil davomida kafolatli transport aloqasini ta'minlaydigan Xalqaro logistika markazi qurilishi yakunlandi va foydalanishga topshirildi.

XXI asrda kommunikatsiya tizimining ahamiyati, uning iqtisodiyotni rivojlantirish hamda aholi farovonligini oshirishdagi o'rni barchamizga ma'lum. Zero, jahonda globallashuv jarayonlarining kuchayishi, xalqaro maydonda tovar va xizmatlar ayirboshlash, turli jabhalardagi hamkorlikning tobora kengayib borishi bugungi kunda yuqori texnologik telekommunikatsiya tarmog'ini rivojlantirishni muhim strategik vazifaga aylantirdi.

Mamlakatimizda telekommunikatsiya tarmog'ini rivojlantirish borasida 2009 yilda 12 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish boshlandi. Zamonaviy texnologiyalar bazasida «Toshkent–Buxoro» magistral aloqa liniyasi kengaytirildi. Bu liniya kanallarning o'tkazuvchanlik qobiliyatini 60 barobarga oshirish va shu tariqa videotelefon, Internet va boshqa keng tarmoqli xizmatlar ko'rsatish imkonini berdi. Shu bilan birga, «Andijon-O'sh», «Qo'ng'iroq-Beynov», «Denov-Tursunzoda» va «Termiz-Hayraton» yo'nalishlari bo'yicha xalqaro aloqa liniyalari ishga tushirildi. 2009 yilda xizmat ko'rsatish va servis sohasini yanada taraqqiy

etirish uchun imtiyozlar, yengilliklar va shart-sharoitlar yetarlicha yaratib berilishi natijasida respublikada ko'rsatilgan xizmatlarning jami hajmi 2008 yilga nisbatan 116% ga o'sdi. Xususan, mazkur ko'rsatkichlarga erishishda hududlarda yangi xizmat ko'rsatish shoxobchalarining qurib, ishga tushirilishi asosiy omil vazifasini bajardi. Natijada 2009 yilda rejadagi 4,3 mingta o'rniga jami 8,1 mingta yaqin xizmat ko'rsatish shoxobchalari tashkil etildi. Jumladan, 2,9 mingta savdo do'konlari, 706 ta umumiy ovqatlanish korxonalari, 943 ta sataroshxona, 1166 ta kiyim tikish va ta'mirlash hamda poyabzal tikish va ta'mirlash ustaxonalari, 307 ta suratxona, 103 ta xammom, 1,8 mingdan ortiq boshqa ob'ektlar tashkil qilindi. Hududlarda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarining qurib, ishga tushirilishi natijasida, respublika bo'yicha qo'shimcha 1,3 mln. nafar aholining yoki 268,4 mingta oilaning turmush darajasi yaxshilanib, zarur hayotiy va ijtimoiy-maishiy ehtiyojlarga bo'lgan talabini qondirishga erishildi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hukm surayotgan ayni damda, iqtisodiyotning real sektor korxonalarini, shuning bilan birga infratuzilma ob'ektlari rivojlanishini qo'llab-quvvatlash maqsadida investitsion mablag'larni topish va ularni maqsadli yo'naltirish muhim omillardan biriga aylanmoqda.


O'tgan 2009 yilda Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda investitsiyalarni jalb etish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilma obektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo'nalishga aylandi. 2009-2012 yillarga mo'ljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi chora-tadbirlar dasturida nazarda tutilgan asosiy yo'nalishlarning uchinchi bo'limi «Iqtisodiyotning real sektori sohasida resurs bazasini kengaytirish va investitsion faollik o'sishini ta'minlash choralari»ga qaratilgan bo'lib, birgina 2009 yilning o'zidayoq dasturni ijrosini ta'minlash, ya'ni tijorat banklari tomonidan korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga

qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun jami 2,4 trln. so'm miqdorida yoki 2008 yilga nisbatan 1,6 barobarga ko'p investitsion kreditlar ajratildi.

Xususan o'tgan 2009 yilda investitsiya dasturi va texnik modernizatsiyalash bo'yicha tarmoq dasturlari doirasida 690 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilib, shulardan 303 tasi muvaffaqiyatli yakunlandi. Jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning hajmi 68 foizga o'sdi, ularning asosiy qismi to'g'ridan-to'g'ri kiritilgan investitsiyalarni tashkil etdi.

2009-2014 yillarda amalga oshirish ko'zda tutilgan investitsion loyihalar Dasturini to'liq amalga oshirish uchun barcha moliyaviy manbalar hisobidan jami 42,5 mlrd. dollar miqdorida mablag' ajratilishi ko'zda tutilgan (5-diagramma).

2.2.4-diagramma



Shuningdek, ma'ruzada 2010 yilda mamlakatimizda muhim strategik loyihalarni amalga oshirish uchun 3 milliard AQSh dollaridan ziyod yoki o'tgan yilga nisbatan 30 foiz ko'p xorijiy investitsiyalar jalb qilinishini va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 46 foizga oshishi rejalashtirilayotganligi alohida e'tirof etildi.


Bunday yirik loyihalarni amalga oshirish uchun ichki resurslarni jalb qilishda 2007 yilda tashkil etilgan O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot fondi

mablag'laridan foydalanish ko'zda tutilmoqda. Bunda infratuzilma ob'ektlarini rivojlantirish uchun ajratilishi belgilanayotgan investitsiyalarga urg'u berilayotganligining asosiy sababi – infratuzilmani rivojlantirish orqali aholi yashash sharoitlarini yanada yaxshilash, turmush darajasini oshirish va halq farovonligini ta'minlash maqsadiga erishishdan iboratdir. Bugungi kunda faqatgina mazur jamg'arma mablag'lari emas, balki to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, xalqaro moliya institutlari va korxonalarning mablag'larini jalb qilish yo'li bilan iqtisodiyot tarmoqlarini bosqichma-bosqich modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash ishlari ham amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda 2010 yil uchun amalga oshirish belgilab olingan investitsiya dasturida moliyalashtirishning ahamiyatli qismi korxona mablag'lari (42,6 foiz) hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish (21,3 foiz) orqali amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari, aholi mablag'lari va Tiklanish va taraqqiyot mablag'lari hisobiga 2010 yilda jami investitsion mablag'larning 22,6 foizi to'g'ri kelishi nazarda tutilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, asosiy e'tibor korxona mablag'lari va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi ko'lamini oshirish va buning natijasida ishlab chiqarishning texnika va texnologik quvvatlarini modernizatsiyalash, mehnat unumdorligini oshirish orqali aholining yuqori daromad olishiga erishish, ularning oqibatida esa, mamlakat farovonligini yuksaltirish maqsad etib qo'yilgan.

Bu borada to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari asosiy faoliyati bo'yicha daromad solig'i, mulk solig'i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va hududlarni obodonlashtirish solig'i, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to'lashdan, shuningdek Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan xorijiy investitsiyalar hajmi quyidagicha bo'lganda ozod qilinadi:

2.2.5-diagramma



- 300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha - 3 yil muddatga;
- 3 milliondan ortiq AQSh dollaridan 10 million AQSh dollarigacha - 5 yil muddatga;
- 10 million AQSh dollaridan ortiq bo'lganda - 7 yil muddatga.

Bu yo'nalishda aniq maqsadli ish olib borish nafaqat investitsiyalarni, balki eng avvalo, ilg'or texnologiya va nou-xaularni jalb etishni ko'zda tutadi. Ular esa O'zbekistonga jahon bozorida o'z mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Aytish kerakki, jiddiy xorijiy investorlar uchun yaratilayotgan keng istiqbollar va imkoniyatlar hamda aniq bayon etilgan taraqqiyot ustuvorliklari yetakchi transmilliy kompaniyalar va korporatsiyalarning mamlakatimizga o'z investitsiyalarini olib kirishiga yuqori darajada intilishini ta'minlaydi. So'nggi yillarda jalb etilgan hamda izchil va barqaror iqtisodiy o'sish, yangi yuqori texnologiyali ish o'rinlarini yaratish hamda aholi daromadi darajasini ko'tarishning ishonchli manbaiga aylangan uzoq muddatli investitsiyalar hajmi 35 milliard dollardan oshdi.

Hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlari bo'lgan neft-gaz va neft-kimyo sohalarida «Xitoy milliy neft korporatsiyasi», Janubiy

Afrikaning «Sasol», Malayziyaning «Petronas», Koreyaning «Lotte», «LG international», «SK» korporatsiyalari, Koreya milliy neft korporatsiyasi, Koreya milliy gaz korporatsiyasi, Rossiyaning «Gazprom» va «Lukoil», Amerikaning «Texaco», Yaponiyaning «Mitsui» va «Marubeni» korporatsiyalari, mashinasozlik sohasida – Amerikaning «Jeneral Motors», Germaniyaning «MAN», Yaponiyaning «Isuzu»; aviatsiya infratuzilmasi va multimodal logistika sohasida – Koreyaning «Koreyan Eyr» va Yaponiyaning «Mitsubishi»; oziq-ovqat va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish sohalarida – Shveytsariyaning «Nestle», Angliya-Amerikaning «VAT», kimyo sohasida – Ispaniyaning «Maksam»; to'qimachilik va yengil sanoat sohalarida – Koreyaning «DEU interneyshnl», Hindistonning «Spenteks», Yaponiyaning «Mitsubishi» va boshqa o'nlab xorijiy kompaniyalar, bank-moliya sektorida «Royal Bank of Scotland», «Koreya Taraqqiyot banki» va hokazolar yaqin sheriklar hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy investorlar bilan birgalikda faoliyat olib borayotgan qo'shma korxonalarning soni 4 mingdan oshdi.

Keng miqyosdagi investitsiyalar, rivojlanish maqsadlarida xalqaro moliyaviy institutlar bilan o'rnatilgan faol hamkorlik, xorijiy investorlar uchun imkoniyatlar izchil ravishda kengaytirilib borilishi kelgusi 2010 yilda O'zbekistondagi iqtisodiy o'sishni kamida 8,3 foiz darajasida belgilash va unga erishish imkoniyatini beradi. Bunday maqsadlarning asosli ekanligi eng obro'li xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan bir necha bor tasdiqlangan. Shu o'rinda ichki investitsiyalardan foydalanish borasida ham mamlakatimizda talay ishlar amalga oshirilib kelinayotganligini ta'kidlab o'tish joizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 6 apreldagi 1090-sonli Qarori hamda mazkur qaror bilan tasdiqlangan «Aholi va xo'jalik sub'ektlarining bo'sh pul mablag'larini tijorat banklaridagi depozitlariga yanada jalb etish bo'yicha qo'nimcha chora-tadbirlar kompleksi» doirasida bank tizimida bu borada olib borilayotgan ishlar yanada faollashdi.

Jumladan, mamlakatimizda 2009-2014 yillarga mo'ljallangan ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta qurollantirish bo'yicha

muhim loyihalarni amalga oshirish choralari dasturi umumiy qiymati 42,51 mlrd. doll.dan iborat 852 ta investitsiya loyihasini o'z ichiga oladi. 2009 yilda tasdiqlangan ayrim tarmoq dasturlari to'g'risidagi ma'lumotni quyidagi jadval orqali ko'rish mumkin (2.2.7-jadval).

Respublikamizda 2009 yil mobaynida qayd etib o'tilgan investitsiya dasturi va texnik modernizatsiyalash bo'yicha tarmoq dasturlari doirasida 690 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilib, ularning 303 tasi muvaffaqiyatli yakunlandi. Buning natijasida 22 ta yirik ishlab chiqarish ob'ekti, jumladan, neft-gaz, kimyo, metallurgiya sanoatida 8 ta, mashinasozlik sanoatida 9 ta va qurilish industriyasida 5 ta ob'ekt foydalanishga topshirildi.

Bundan tashqari, hududlarimizda, avvalo, qurilish materiallari sanoati, oziq-ovqat, yengil sanoat va boshqa tarmoqlarda kichik biznes sohasida faoliyat olib boradigan 480 dan ortiq yangi ishlab chiqarish korxonalari tashkil etildi. Iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va xalqimiz farovonligini oshirishda mamlakatimiz hududlarida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu o'rinda, elektr va gaz tarmog'ini barpo etish bo'yicha strategik investitsiya loyihalarining mamlakatimiz uchun nechog'liq muhim ahamiyat kasb etishini yana bir bor ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. Aynan shu yo'nalishdagi ishlarning amalga oshirilishi natijasida:

Modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta qurollantirishning tasdiqlangan tarmoq dasturlari.

2.2.7-jadval.

Tarmoqlar	Loyihalar soni, dona	Loyihalar qiymati, mln. doll.
-----------	----------------------	-------------------------------

Paxta tozalash sanoati	41	129,7
To'qimachilik sanoati	65	477,7
Yog'-moy sanoati	63	31,7
Kimyo sanoati	30	291,7
Avtomobil sanoati	26	255,1
Qurilish materiallari sanoati	36	343,1
«O'zmetkombinat» aktsiyadorlik ishlab chiqarish birlashmasi	9	49,0
Farmatsevtika tarmog'i	45	26,5
Navoiy tog'-kon metallurgiya kombinati	26	892,1
Olmalik tog'-kon metallurgiya kombinati	13	405,3
Qishloq xo'jalik mashinasozligi	13	28,0
Temir yo'l tarmog'i	18	1734,2

Yil davomida nihoyasiga yetkazilgan bir qator strategik loyihalarni quyidagi jadval orqali ko'rish mumkin (2.2.8-jadval).

2009 yil davomida nihoyasiga yetkazilgan strategik loyihalar

2.2.8-jadval.

Loyiha ob'ekti	Loyihaning qisqacha mazmuni
----------------	-----------------------------

«Farg’onaazot» korxonasi	Ammiak agregatlarini rekonstruktsiya qilish
«Maksam-Chirchiq» korxonasi	
Namangan shahridagi yengil avtomobillar uchun butlovchi qismlar ishlab chiqarish zavodi	Yengil avtomobillar uchun fara va chiroqlar ishlab chiqarish
Buxoro shahridagi «DEU tekstil» to’qimachilik kompleksi	Paxta tolasini qayta ishlash asosida to’qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish
«Gazli» qo’shimcha kompressor stantsiyasi	Gaz mahsulotlarini iste’molga tayyorlash va ishlov berish jarayonlarini ta’minlash
«Qo’ng’irot» kompressor stantsiyasi	
Turkmaniston-O’zbekiston-Qozog’iston-Xitoy transmilliy magistral gaz quvuri	Turkmanistondan O’zbekiston hududi orqali Xitoyga o’tadigan gaz quvurini tortish ishlari
«Yangi Angren-O’zbekiston» LEP-500 elektr uzatish liniyasi	Mamlakat hududlarini elektr energiyasi bilan ta’minlash
«G’uzor-Surxon» yuqori voltli elektr uzatish liniyasi	
«Ohangaron-Pungon» magistral gaz quvuri	Mamlakat hududlarini tabiiy gaz bilan ta’minlash

1) mamlakatimizda yagona elektr va gaz tarmog’i tizimlarini tashkil etish ishlari yakunlanib, ulardan uzluksiz va tejamli foydalanishni nazorat qilish va ta’minlash;

2) Farg'ona vodiysi va O'zbekiston janubida yashaydigan aholini tabiiy gaz va elektr energiyasi bilan ishonchli ta'minlash;

3) elektr energiya eksport qilishni sezilarli ravishda oshirish imkoniyatlari qo'lga kiritildi.

Xususan, mamlakatimizda elektr, tabiiy gaz va ichimlik suvi ta'minotini zamonaviy talab darajasida yo'lga qo'yish borasida:

- me'yordagidan ortiqcha yoki kam quvvat bilan ishlayotgan 283 ta transformator podstantsiyalarini yangilariga almashtirildi (ushbu tadbirlarga 2,9 mlrd. so'm mablag' sarflandi);

- me'yordagidan ortiqcha quvvat bilan ishlayotgan 308 km elektr tarmoqlarini almashtirish ishlari amalga oshirildi (1 mlrd. so'm);

- hududlarda jami 964,2 km gaz tarmoqlarida qurilish va rekonstruktsiya ishlari to'liq yakunlanib, foydalanishga topshirildi;

- hududlarda 2,3 ming km suv tarmoqlarini qurish va rekonstruktsiya qilish ishlari amalga oshirildi;

- 366 ta qishloq aholi punktlarida ichimlik suvi ob'ektlari qurib foydalanishga topshirildi (19 mlrd. so'm).

Barchamizga ma'lumki, mustaqillikni qo'lga kiritishimiz asosida eski totalitar tizimning barham topishi eng avvalo mamlakatimiz hududi bo'ylab, qolaversa jahonning turli nuqtalari bilan tutashtiruvchi, qulay, samarali va eng muhimi, ishonchli avtomobil yo'llar tizimining barpo etilishini taqozo etar edi. Shunga ko'ra, hozirda yuqori darajadagi xalqaro standartlarga javob beradigan, mamlakatimizning barcha hududlarini o'zaro ishonchli bog'laydigan va mintaqaviy hamda jahon bozorlariga chiqishni ta'minlaydigan O'zbekiston milliy avtomagistralini qurish va rekonstruktsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli dastur amalga oshirilmoqda. Buning natijasida umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarining uzunligi 42530 kilometrga yetdi.

O'zbekiston Respublikasi avtomobil yo'llari tarmog'ining

umumiy uzunligi


2.2.9-jadval.

Yo'l turlari	Uzunligi, km
Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari	42530
Shaharlar va boshqa aholi punktlari ko'chalari	61664
Xo'jalik avtomobil yo'llari	79367
shu jumladan:	
- ichki xo'jalik yo'llari	67274
- korxonalarga qarashli yo'llar	12093

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarining 51 foizi mahalliy ahamiyatdagi, 40 foizi davlat ahamiyatidagi va 9 foizi xalqaro ahamiyatdagi yo'llar hisoblanadi (2.2.6-diagramma).

Mazkur dastur doirasida 2009 yilda 217 kilometrlik avtomobil yo'li foydalanishga topshirildi, 538 kilometr yo'l va 19 ta ko'prik kapital ta'mirlandi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun Respublika yo'l jamg'armasi hisobidan 280 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi. O'zbekiston Respublikasi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida 2009 yil yakuni bo'yicha qurish va ta'mirlash bo'yicha jami bajarilgan ishlar hajmi 2008 yilga nisbatan 118,7 foizni tashkil etdi.

2.2.7-diagramma



2.2.10-jadval.

О'zbekiston Respublikasi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida 2009 yil yakuni bo'yicha qurish va ta'mirlash ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Hajmi, mlrd.so'm	2009 yilga nisbatan, %
Jami bajarilgan ishlar	370,6	118,7
Investitsiya dasturi	114,4	104,8
Mukammal va o'rta ta'mirlash	177,2	126,1
Joriy ta'mirlash va saqlash ishlari	63,2	117,3
Yo'l ta'mirlash texnikalari va jihozlar xarid qilish	15,8	160,9

Yo'l-qurilish texnikasini sotib olish uchun Osiyo taraqqiyot bankining umumiy qiymati 56 million dollarga teng bo'lgan imtiyozli kredit resurslari jalb etildi.

Mamlakatimiz temir yo'l transport tizimini rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo'yicha ishlar davom ettirildi. «Toshguzar–Boysun–Qumqo'rg'on» yangi temir yo'l liniyasida Yaponiya kapitali ishtirokida 5 ta ko'prik foydalanishga topshirildi. «Navoiy–Uchquduq–Sulton Uvaystog'–Nukus» temir yo'l liniyasining 6 ta yangi raz'ezdi ishga tushirildi. Temir yo'llarni elektrlashtirish, temiryo'l lokomotivlari parki va harakatdagi tarkibni yangilash loyihalarini amalga oshirish ishlari boshlandi.

2009 yilda Navoiy viloyatida tashkil etilayotgan erkin industrial-iqtisodiy zonaning asosiy ob'ektlaridan biri sifatida Navoiy shahri aeroporti bazasida xalqaro tashishlar bo'yicha intermodal markaz qurilishi yuzasidan katta ishlar amalga oshirildi. Angren shahrida mamlakatimiz hududlari va Farg'ona vodiysi viloyatlari o'rtasida yil davomida kafolatli transport aloqasini ta'minlaydigan Xalqaro logistika markazi qurilishi yakunlandi va foydalanishga topshirildi.

XXI asrda kommunikatsiya tizimining ahamiyati, uning iqtisodiyotni rivojlantirish hamda aholi farovonligini oshirishdagi o'rni barchamizga ma'lum.

Mamlakatimizda telekommunikatsiya tarmog'ini rivojlantirish borasida 2009 yilda 12 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish boshlandi. Zamonaviy texnologiyalar bazasida «Toshkent–Buxoro» magistral aloqa liniyasi kengaytirildi. Bu liniya kanallarning o'tkazuvchanlik qobiliyatini 60 barobarga oshirish va shu tariqa videotelefon, Internet va boshqa keng tarmoqli xizmatlar ko'rsatish imkonini berdi. Shu bilan birga, «Andijon–O'sh», «Qo'ng'iroq–Beynov», «Denov–Tursunzoda» va «Termiz–Hayraton» yo'nalishlari bo'yicha xalqaro aloqa liniyalari ishga tushirildi.

2009 yilda xizmat ko'rsatish va servis sohasini yanada taraqqiy etirish uchun imtiyozlar, yengilliklar va shart-sharoitlar yetarlicha yaratib berilishi natijasida respublikada ko'rsatilgan xizmatlarning jami hajmi 2008 yilga nisbatan 116% ga o'sdi. Xususan, mazkur ko'rsatkichlarga erishishda hududlarda yangi xizmat ko'rsatish shoxobchalarining qurib, ishga tushirilishi asosiy omil vazifasini bajardi.

Natijada 2009 yilda rejadagi 4,3 mingta o'rniga jami 8,1 mingta yaqin xizmat ko'rsatish shoxobchalari tashkil etildi. Jumladan, 2,9 mingta savdo do'konlari, 706 ta umumiy ovqatlanish korxonalari, 943 ta sartaroshxona, 1166 ta kiyim tikish va ta'mirlash hamda poyabzal tikish va ta'mirlash ustaxonalari, 307 ta suratxona, 103 ta xammom, 1,8 mingdan ortiq boshqa ob'ektlar tashkil qilindi. Hududlarda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarining qurib, ishga tushirilishi natijasida, respublika bo'yicha qo'shimcha 1,3 mln. nafar aholining yoki 268,4 mingta oilaning turmush darajasi yaxshilanib, zarur hayotiy va ijtimoiy-maishiy ehtiyojlarga bo'lgan talabini qondirishga erishildi.

2.3 Rivojlangan davlatlarda sanoat sohasining rivojlanish tajribalari

Germaniyaning Yevropa va jahon xo'jaligidagi muhim ahamiyatini uning yuqori sifatli mahsulot chiqarishga qaratilgan sanoati belgilaydi. Fan talab tarmoqlarning hissasi ortib bormoqda. Stanoklar va boshqa ishlab chiqarish jihozlarini, avtomobil, organik kimyo mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha Germaniya dunyoda oldingi o'rinlardan birini egallaydi. GFR ning barcha

yirik sanoat kompaniyalari transmilliy korporatsiyalardan iboratdir («Daimler-Benz», «Wolkswagen», «Siemens», «Hoechs», «Baer»). Germaniya energetikasi o'z ehtiyojlarining yarmidan ko'pini import hisobiga qondiradi. Neft va gaz asosiy ahamiyatga ega. Ko'mirning hissasi 30% ga yaqin. Neft tankerlarda va neft quvurlari orqali Shimoliy dengiz, Rossiya, Afrika davlatlari (Nigeriya, Liviya), Fors ko'rfazi davlatlaridan keltiriladi. Neftni qayta ishlash zavodlari mamlakat bo'ylab bir tekis joylashgan. Eng yirik markazlar — Gamburg, Kyoln, Karlsruhe, Shvedt va boshqalar. GFR da elektr energiya bo'yida asosiy qismi issiqlik elektr stantsiyalarida ishlab chiqariladi. IYeS lar Rur va Saar havzalarida, port shaharlarida — ko'mirda, neftni qayta ishlash markazlarida — mazutda ishlaydi, boshqa IYeS lar esa aralash yoqilg'ida ishlaydi. Keyingi vaqtda mahalliy ko'mirga nisbatan Avstraliyadan arzon bahoda olib kelinayotgan ko'mirning ahamiyati oshib bormoqda. AYeS larda elektr quvvatining 30%i ishlab chiqariladi (ular ko'mir havzalarining chegarasidan tashqarida qurilgan). GYeS lar, asosan mamlakatning janubida (tog' daryolarida) joylashgan. Qora va rangli metallurgiya. GFR ning rangli metallurgiyasi, asosan, chetdan keltirilgan va ikkilamchi xomashyo (rangli metall parchalari) da ishlaydi. Alyuminiyni eritish bo'yicha Germaniya G'arbiy Yevropada faqat Norvegiyadan keyingi ikkinchi o'rinni egallaydi. Asosiy zavodlar Shimoliy Reyn-Vetsfaliya yerining hududida, shuningdek, Gamburg va Bavariyada joylashgan.

Mashinasozlik va metallga ishlov berish — GFR sanoatining eng rivojlangan tarmoqlaridan biri. Mamlakat sanoat mahsulotlari va eksportining yarmiga yaqin qismi mashinasozlikka to'g'ri keladi. Eng yirik markazlar quyidagilar: Myunxen, Leypsig, Nyurnberg, Mangeym, Berlin, Gamburg. Mashinasozlik ishlab chiqarishi eng ko'p rivojlangan yerlar. Baden-Vyurtemberg va Shimoliy Reyn-Vetsfaliyadir. Avtomobil ishlab chiqarish bo'yicha Germaniya dunyoda AQSh va Yaponiyadan keyingi uchinchi o'rinni egallaydi. «Volkswagen», «Mercedes-Benz», «BMV», «Ford-Verke», «Opel» kabi korporatsiyalar avtomobil ishlab chiqaradi. Avtomobilsozlikning eng yirik markazlari — Volsburg, Shtutgart,

Kyoln, Ryussel-xaym, Myunxen shaharlaridir. Dengiz kemasozligining asosiy markazlari — Kil, Gamburg, Bremen, Emden, Rosok hisoblanadi, daryo kemasozligining markazi — Duysburg shahridir. Optik mexanika korxonalarining eng ko'p to'plangan joyi Baden-Vyurtemberg va Tyuringiya yerlaridir. Samolyotsozlik sanoatining yirik markazlari — Myunxen, Aersburg, Gamburg, Bremen va shu shaharlar atrofidir. Germaniya kimyo sanoatining asosiy jarayoni bu Shimoliy Reyn-Vetsfaliya yeridir (butun mahsulotning 2/5 qismi). Eng yirik markazlari qo'yidagilar: Leverkuzen («Baer» konserni), Kyoln, Darmagen, Frankfurt-Mayn («Shoechs» konserni), Lyudvigsxafen («Basf» konserni).

Transporti. Transport yo'llarining zichligi bo'yicha Germaniya jahonda oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Yevropa kengashi bo'yicha sheriklari bilan bo'lgan iqtisodiy aloqalarning jadalligi va Yevropaning markazida joylashgani bilan bog'liq holda transporting barcha turlari rivojlangan. Transport tarmog'ining asosini temir yo'llar tashkil qiladi (44 ming km ga yaqin), shulardan 90 % i elektrlashtirilgan. Umumiy yirik aylanmasida asosiy o'rinni avtomobil transporti (60% atrofida) egallaydi, keyingi o'rinlarda temiryo'l transporti (20%), ichki suv (15%) va quvur transportlari turadi. Yo'lovchi tashishda avtomobil transportining hissasi yanada yuqori (90% ga yaqin). Oliy darajadagi avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi 11 ming km dan ortiq. Konteyner tashuvchi kemalarning tonnasi bo'yicha Germaniya AQSh, Panama, Tayvandan keyingi 4-o'rinni egallaydi. Mamlakatning dengiz portlari yuk aylanmasi bo'yicha Yevropa davlatlarining yirik portlaridan pasroq o'rinlarni egallaydi. Eng yirik dengiz portlari Gamburg, Vilgelmsxafen, Bremen, Emden, Rosok hisoblanadi. Mamlakat tashqi aloqalarida dengiz transporti qatorida havo transporti ham muhim ahamiyatga ega. Barcha yirik yarmarka markazlarida aeroportlar mavjud. Jami Germaniyada 16 ta xalqaro aeroportlar bor bo'lib, Frankfurt aeroporti Yevropada yuk tashish bo'yicha birinchi va yo'lovchi tashish bo'yicha uchinchi o'rinni egallaydi.

Tashqi iqtisodiy aloqalari. Tashqi savdoning umumiy hajmi bo'yicha Germaniya AQSh dan keyin 2-o'rinda turadi. Tashqi savdo balansi uzluksiz

ravishda ijobiy bo'lib kelmoqda. Tashqi savdoning tovar va geografik tuzilishi mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtirokini aks ettiradi. GFR, avvalo, sanoati rivojlangan davlatlarga, birinchi o'rinda Yevropa kengashi bo'yicha sheriklariga qarab ish tutadi. Tashqi savdo aylanmasining 50 foizi va olib chiqilayotgan sarmoyaning asosiy qismi shu davlatlarga to'g'ri keladi. Yevropaning ko'p mamlakatlari uchun Germaniya bosh savdo sherigi hisoblanadi. Xalqaro bozorda Germaniya yuqori sifatli mahsulotlar bilan ta'minlovchi davlat sifatida tan olingan. Eksportning 90% dan ortig'ini sanoat mollari tashkil etadi. Germaniyaning barcha yirik sanoat kompaniyalari transmilliy korporatsiyalardir. Shularning ba'zilari, ayniqsa, xalqaro ixtisoslashish tarmoqlarining korporatsiyalari jahonning eng yirik korporatsiyalari hisoblanadi (kimyo sanoatida — «Baer», «Xyoxs», «BASF» kompaniyalari, elektronika — «Siemens», avtomobilsozlikda — «Daimler-Benz»). Organik kimyo mahsulotlarini chetga chiqarish bo'yicha mamlakat jahonda birinchi o'rinni egallaydi, stanoklarni va boshqa ishlab chiqarish jihozlarini eksport qilish bo'yicha birinchi o'rinni egallash uchun Yaponiya bilan musobaqalashmoqda. Xalqaro hisob-kitobda to'lov vositasi sifatida foydalaniladigan valyutalar orasida nemis valyutasi (marka) dollardan keyingi ikkinchi o'rinni egallaydi. Germaniya — jahondagi eng yirik investorlardan biri. U o'z sarmoyalarini ko'pgina davlatlarning sanoati va xizmat sohasiga sarflamoqda.

O'zbekiston davlat mustaqilligi yillarida GFR va boshqa Yevropa mamlakatlari bilan xalqaro munosabatlarning ko'p shakllari bo'yicha hamkorlik shartnomalarini imzolagan. Shularning ichida savdo aloqalari uchun ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasining jami tovar aylanmasining 5% hamda importning salkam 1/6 qismi GFR ga to'g'ri keladi (2003). Yevropa mamlakatlaridan Shvetsariya, Buyuk Britaniya va Italiya bilan respublika salmoqli eksport-import aloqalariga ega. Germaniyaning «Siemens» va «Alkatel» kompaniyalari ishtirokida O'zbekistonning telekommunikatsiya tarmoqlari qayta ta'mirlanmoqda. Bugungi Hindiston rivojlanayotgan mamlakatlarning eng yirigidir. U jahonda yalpi milliy

daromad hajmiga ko'ra AQSh, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy, Italiya, Kanada, Meksika, Ispaniya mamlakatlaridan keyingi 11 o'rinda turadi.

Sanoati. Hindistonda jami ishda band aholining atigi 1/5 qismi sanoatda ishlaydi. Bu uning industrlashish darajasining ancha pas ekanligini ko'rsatadi. Shunga qaramay, Hindiston an'anaviy yengil va oziq-ovqat sanoati mamlakatidan tobora zamonaviy og'ir sanoat tarmoqlari mamlakatga aylanib bormoqda. Mamlakat iqtisodiyotining asosini metallurgiya, mashinasozlik va kimyo sanoatlari egallamoqda. Sanoat tarmoqlarining rivojlanish va hududiy taqsimlanishida yirik dengiz portlaridan: Mumbai, Kalkutta, Madras hamda mamlakatning siyosiy markazi bo'lgan Dehli shahrining muhim ahamiyati bor. Hindistonda Rixand-Singrauli yoqilg'i energetika majmuasi, Bixilai, Bokaro, Visakxapatnam qora metallurgiya kombinalari, Chittaranjan, Ranchi, Xardvar og'ir mashinasozlik zavodlari, Barauni va Sindr neftni qayta ishlash zavodlari joylashgan. Bunday yirik korxonalar, ayniqsa, «Hindiston Run» deb ataladigan Damodar vodiysi bo'ylab keng tarqalgan. Yengil sanoatida ip-gazlama va to'qimachilik tarmoqlari, tayyor kiyimlar, xalq hunarmandchiligi asosida boshqa turli xalq mahsulotlari ishlab chiqarishning o'ri juda yuqori. Ular, asosan, tashqi bozor uchun mahsulot beradi. Oziq-ovqat sanoatida ham choy, qand-shakar (bu mahsulotlarni yetishtirishda u jahonda birinchi o'rinda turadi), qandolat- o'simlik, o'simlik moyi kabilarning katta qismi tashqi bozor uchun ishlab chiqariladi. Hozirgi vaqtda Hindiston jahonda choy, shakarqamish, yeryong'oq, ayrim dukkakli don mahsulotlari, murch, turli dorivor ekinlar yetishtirishda birinchi, sholi, jut bo'yicha ikkinchi, tamaki yetishtirish bo'yicha uchinchi, bug'doy, paxta yetishtirish bo'yicha to'rtinchi o'rinda turadi. Hindistonning tabiiy sharoiti qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun ancha qulay. Shu sababli hududining yarmidan ko'pi ekin maydonlariga aylantirilgan. Ekin maydonlarining kattaligiga ko'ra u jahonda AQShdan keyinda turadi, xolos. Mamlakat ekin maydonlarining 2/5 qismi sug'orishni talab qiladi. **Transporti.** Temir yo'llarning uzunligiga ko'ra Hindiston

jahondagi yirik beshta mamlakatlar qatoridan o'rin oladi. Ammo transport tarmoqlarining texnik-iqtisodiy imkoniyatlari hozirgi davr talablaridan ancha orqada. Jumladan, temir yo'llarining anchagina qismi hozirgacha tor izli yo'llar bo'lib, ularda foydalanishdan allaqachonlar chiqib ketgan lokomotivlar xizmat qiladi. Avtomobil yo'llari ancha uzun va sertarmoq bo'lishiga qaramay, uning tarkibida qattiq qoplamaga ega bo'lgan yo'llar salmog'i ancha kam. Suv transportidan faqat dengiz bo'yaridagina foydalaniladi. Ularning eng yirigi Shimoli-sharqiy Hindistondir. Rayonning tashkil topishida deyarli bir yarim asr mobaynida Britaniya Hindistonining siyosiy markazi bo'lib kelgan Kalkuttaning roli kattadir. Hozirgi vaqtda u mamlakatning ikkinchi yirik sanoat va port shahridir. Shuning bilan birga, bu rayon mamlakatning eng yirik yoqilg'i-energetika, metallurgiya, mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat sanoatlari rayoni hamdir. Unda eng ko'p sholi, jut, choy yetishtiriladi. Ayniqsa, jahondagi eng sifatli choy yetishtiruvchi Darjiling vodiylarining nomi olamga mashhur. Iqtisodiy ahamiyatiga ko'ra mamlakatning ikkinchi rayoni G'arbiy Hindistondir. Uning markazi Mumbai shahri jahonning eng yirik madaniy va sanoat markazilaridan biri. Hindiston iqtisodiyotining uchinchi rayoni Shimoliy va Markaziy Hindistondir. Eng yirik hudud va eng ko'p sonli aholiga ega bo'lgan bu rayonning tashkiliy markazi Dehlidir. Jahonning eng qadimiy shaharlaridan bo'lgan Dehli, Agra, Jaypur kabi shaharlari hind-musulmon arxitektura yodgorliklariga juda boydir.

Janubiy Hindiston mamlakatning o'ziga xos ishlab chiqarish ixtisosiga ega bo'lgan 4-rayondir. Tashkiliy markazi Madras shahridir. Bu rayon iqtisodiyotining asosini qishloq xo'jaligi tashkil qiladi. Madras, Haydarobod, Visakxapatnam kabi shaharlarda keyingi davrlarda mashinasozlik, metallurgiya, neft kimyosi kabi sanoat tarmoqlari an'anaviy yengil va oziq-ovqat sanoatlari bilan hamohang rivojlanmoqda.

Avstraliya Ittifoqi va Yangi Zelandiya dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari qatoriga kiradi. Fiji, Marshall orollari va Mikroneziyada iqtisodiyot nisbatan rivojlangan, qolgan mamlakatlar va orollar qoloq xo'jalik

tizimiga ega. Avstraliyada mahalliy mineral resurslar va qishloq xo'jaligi xomashyosiga asoslangan sanoat tarmoqlari: tog'-kon, metallurgiya, mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat sanoati yuqori darajada rivojlangan. Mamlakat yirik issiqlik va gidravlik elektr stantsiyalariga ega. Avstraliyada 2003- yilda 200 mlrd. kvt/soatdan ortiq elektr energiya ishlab chiqarildi. Bu ko'rsatkich Yangi Zelandiyada 40 mlrd. kvt/soatga teng bo'ldi.

Avstraliyada hozirgi vaqtda yiliga 30 mln. t. neft, 30 mlrd. kub. metr tabiiy gaz, 350 mln. tonna ko'mir qazib olinmoqda, 9-10 mln. t. po'lat eritilmoqda, 300 ming donadan ko'p yengil avtomobillar ishlab chiqarilmoqda. Don ekinlarining yalpi hosili 35-40 mln. tonnani tashkil etadi, yarim mln. tonnadan ortiq paxta tolasi ishlab chiqarilmoqda.

Avstraliyada qora metallurgiya Port-Kembla, Nyukasl, Uandovi shaharlarida, rangli metallurgiya Maunt-Ayza, Klonkarri, Gladtsen, Kalgurli-Boulder, Poit-Piri, Kanberra, Xobart, Risdon, Bell-Bey shaharlarida rivojlangan. Yirik, katta hamda o'rta shaharlarining barchasida mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati korxonalari mavjud. Mamlakatda neftni qayta ishlash va neft-kimyo sanoati tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Ushbu tarmoq markazlari bo'lib Melburn, Sidney, Nyukasl, Brisben, Pert, Adelaida va boshqa shaharlar hisoblanadi.

Mamlakat doirasidagi asosiy yuklar temiryo'l transporti orqali tashiladi. Xalqaro savdo aloqalarida dengiz transporting ahamiyati beqiyosdir. Avstraliyada keyingi yillarda quvur transportining rivojlanishiga katta e'tibor qaratilmoqda. Avstraliyaning tashqi savdo aylanmasi 50 mlrd. dollarni tashkil etadi. Shuning 60 foizi eksportga, 40 foizi importga to'g'ri keladi. Avstraliya chetga, asosan, AQSh, Yaponiya, G'arbiy Yevropa mamlakatlariga tog'-kon, metallurgiya, mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat sanoati mahsulotlarini chiqaradi. Avstraliya hozirgi vaqtda Sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarining asosiy xomashyo bazasiga aylanmoqda. Shu bilan birga, yuqori texnologiyalarga tayanib, ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari ham mamlakatdan keng miqyosda eksport qilinmoqda.

Xitoy yillik ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari hajmiga ko'ra jahonda uchinchi o'rinda turadi. Ammo ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning aholi jon boshiga to'g'ri kelish ko'rsatkichlariga ko'ra, u oddiy rivojlanayotgan davlatlar darajasidadir. Ta'kidlash lozimki,so'nggi yillarda Xitoy iqtisodiyoti ancha tez o'smoqda. Xitoy hozirgi vaqtda temir rudasi va ko'mir qazib chiqarish, sement,to'qimachilikmahsulotlari, velosipedlar, televizorlar, tikuv, kir yuvish mashinalari kabi ko'plab turdagi maishiy xizmat texnikasi, don, paxta, tamaki, sabzavot mahsulotlarining umumiy hajmiga, shunindek, cho'chqa, yilqi, parrandalarning umumiy soniga ko'ra jahonda birinchi o'rinni egallaydi. Sanoati hozirgi tarmoqlarining deyarli barcha turlariga ega. Hozirgi industriyasining asosini neft va neft kimyosi, atom energetikasi, samolyotsozlik, elektrotexnika, metallurgiya kabi eng ilg'or sanoat tarmoqlari tashkil qiladi. Sanoat geografiyasida ham katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Agar Xitoyda sanoat korxonalarining 2/3 qismidan ko'prog'i dengiz bo'yi hududlarida joylashgan bo'lsa, hozir industrial qurilishlarning asosiy qismi mamlakatning kam o'zlashtirilgan ichki rayonlarida olib borilmoqda.

Hozirgi vaqtda Xitoyda 750 mingdan ziyod sanoat korxonalarining mavjudligi va ularda 64 mln. dan ortiq ishchi-xizmatchilarning ish bilan bandligi ko'rsatkichlarining o'zi ham mamlakatda sanoat rivojlanishi darajasining tobora o'sib borayotganligini isbotlaydi.

Sanoatning tayanch tarmoqlaridan hisoblanadigan yoqilg'i-energetika majmuyining Xitoyga xos muhim xususiyatlaridan biri unda ko'mir sanoati mavqiyining nihoyatda yuqori ekanligidir. Mamlakat ko'mirga judaboy va unda 300 dan ortiq ko'mir konlari (100 dan ortiq hozirgi vaqtda foydalanilmoqda) bo'lgani sababli oxirgi yillarda Xitoyda yiliga 1,1 mlrd. t. dan ortiq ko'mir qazib chiqarilmoqda. Uning asosiy konlari Shimoli-sharqiy va Sharqiy Xitoyda joylashgandir.

Xitoyda daslabki neft konlari Shinjon-Uyg'ur rayonida 1953- yilda aniqlangan edi. 2003- yilda unda 200 mln. t. neft qazib chiqarildi. Neft mamlakatning 100 dan

ortiq konlaridan (ularning asosiy qismi Shimoli-sharqiy va Sharqiy Xitoy hamda Sariq dengiz shelflarida joylashgan) qazib olinmoqda. Gaz sanoati imkoniyatlari boshqa yoqilg'i tarmoqlariga nisbatan ancha cheklangan. Xitoyning elektr energetika sanoati ishlab chiqaradigan elektr energiya miqdoriga ko'ra jahonda AQSh va Yaponiyadan keyin uchinchi o'rinni egallaydi. Unda elektr energetika sanoatining barcha tarmoqlari mavjud. Ammo tarmoqda turli yoqilg'ilar asosida ishlaydigan GYeS lari salmog'i eng yuqoridir. Uning xissasiga ishlab chiqarilayotgan jami elektr energiyasining 4/5 qismi to'g'ri keladi. GYeS larda yoqiladigan yoqilg'ilarning esa 3/4 qismi ko'mirdan iboratdir.

Xitoyda metallurgiya majmuyining deyarli barcha tarmoqlarini rivojlantirish imkoniyati bor. Undagi qora va rangdor metall konlari birlamchi energiya manbalariga nisbatan juda qulay joylashgandir. Qora metallurgiya sanoati tarmoqlar orasida yetakchilik qiladi. Metali maxsulotlarining asosiy qismini esa Anshan, Baotou, Bensi, Baoshan, Pekin, Uxan, Shanxay kabi bir qator to'la siklli metallurgiya kombinatlarini ishlab kelmoqda. Umuman, Xitoy hozirgi vaqtda 90 mln.t. atrofida qora metall ishlab chiqarmoqda. Bu ko'rsatkichga ko'ra u jahonda Yaponiyadan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi.

Rangdor metallurgiya sanoatining asosini alyuminiy, mis, qo'rg'oshin, rux kabi sanoat tarmoqlari tashkil qiladi. Xitoy rangdor metallurgiyasining mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi asosiy korxonalar Xitoyning sharqiy va shimoli-sharqiy rayonlarida joylashgan. Mashinasozlik sanoati Xitoyda, ayniqsa, tez rivojlanmoqda. Xitoyda televizorlar, maishiy xizmat texnikasidan tortib avtomobillar, EXM lar, turli o'lchov va elektr texnika mahsulotlarigacha ishlab chiqarilmoqda. Ammo mamlakat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan bunday mahsulotlarning asosiy qismi hozirgi vaqtda, asosan, ichki bozorni ta'minlashga xizmat qilmoqda, Mashinasozlik sanoati korxonalari xududiy jihatdan, asosan, yirik shaharlar, dengiz portlari, metallurgiya markazlari ularning atrof xududlarida ko'proq joylashgan. Bular Shanxay, Shenyang, Tyanszin, Pekin, Chanchun, Xarbin va boshqalardir.

Qishloq xo'jaligi. Hozirgacha qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodiyotining eng muxim sohasi bo'lib kelmoqda. Unda 400 mln. dan ortiq mehnat yoshidagi aholi ish bilan band. Bu tarmoq xozirgi vaqtda mamlakat aholisini kundalik ozuqa mahsulotlari va sanoatni zaruriy xomashyo bilan asosan ta'minlab kelmoqda. Xitoy qishloq xo'jaligining asosiy qismi dexqonchilikdir. Unda esa donchilik tarmog'ining salmog'i eng katta. Jami ekin maydonlarining 80 foizi turli donli ekinlar bilan band. XXI asr boshida mamlakat bo'yicha 450 mln. t. dan ortiq don mahsulotlari hosili olind . Yaqin yillar orasida bu miqdorni 500 mln. t. gacha yetkazish ko'zda tutiladi. Bunday katta hosilni jahon mamlakatlarining birortasi ham ololgan emas.

Osiyo davlatlari sanoatining rivojlanganligi holatiga ko'ra olti guruhga bo'linadilar.

Birinchisi Yaponiya bo'lib, tipik Osiyo davlatlaridan biri bo'lishiga qaramay, so'nggi YaMD ishlab chiqarish hajmiga ko'ra jahonning ikkinchi davlati hisoblanadi. Shu bilan birga u mintaqadagi «Katta yettilik»ga kiruvchi yagona davlat, ijtimoiy taraqqiyot borasida ko'plab rivojlanayotgan davlatlar uchun namuna hamdir.

Ikkinchisi Xitoy va Xindistondir. Ular oldingi qoloq, mustamlaka davlatdan so'nggi yillarda iqtisodiyoti tez rivojlanayotgan davlatlarga aylandilar. Ishlab chiqarayotgan mahsulotlari hajmiga ko'ra ular jahonning eng yirik birinchi o'nlik davlatlari qatorida turadilar. Ammo aholisi jon boshiga mahsulotlarning to'g'ri kelish ko'rsatkichlari esa hali ancha pasligicha qolmoqda.

Uchinchisi Osiyoning yangi indutsrial davlatlaridir. Ular Koreya Respublikasi, Tayvan, Singapur, Xitoyning Syangani bo'lib, so'nggi o'n-o'n besh yil ichida. omilkorlik bilan amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar tufayli taraqqiyotda keskin yuksalishlarga erishdilar. Shu tufayli ular G'arbda «Osiyo yulbarslari» yoki «Osiyo ajdarxolari» deb ham nom oldilar. XX asr oxirlariga kelib bu toifa davlatlarga Malayziya va Tailand ham qo'shildi. Osiyoning ilg'or davlatlaridan Isroil, Kipr

va Turkiya o'z taraqqiyot etishini belgilashda G'arb mamlakatlari tajribasini dasur qilib olgan bo'lsa, Sharqida joylashgan yangi indutsrial davlatlar esa Yaponiya rivojlanish modelini namuna qilib olganligi bilan ajralib turadi. Jumladan, 60- yillargacha qoloq bo'lgan Koreya Respublikasi 90- yillar boshlariga kelib jahonda AYeS larda ishlab chiqarilayotgan elektr energiya hajmiga ko'ra 9- o'ringa, po'lat eritish bo'yicha 8- o'ringa, dengiz kemalari ishlab chiqarishda 2- o'ringa, kimyoviy tolalar ishlab chiqarishda 5- o'ringa, elektron sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda 6- o'ringa chiqib oldi. Shunga o'xshash keskin iqtisodiy o'sishlar Singapur, Syangan va boshqalarda ham yuz berdi.

To'rtinchisi, Fors qo'ltiq bo'yidagi neft qazib chiqaruvchi mamlakatlardir. Bu mamlakatlarning ko'pchiligi hozirgi vaqtda aholi jon boshiga YaMD ishlab chiqarish darajasiga ko'ra salkam jahondagi yetuk rivojlangan davlatlar qatorida turadi. Buning asosiy sababi neftni ko'plab qazib chiqarish va ularni eksport qilish hisobiga tushadigan kata miqdordagi "neft-dollar". Saudiya Arabistoni, Quvayt, Birlashgan Arab Amirliklarida mamlakat eksportining 95 % ini neft tashkil qiladi. Natijada Fors qo'ltiq bo'yi mamlakatlarida neft va tabiiy gaz chiqarish, neft kimyosi, qayta erituvchi metallurgiya kabi sanoat tarmoqlari yuzaga keldi.

Beshinchisi, sanoati bir tomonlama, suct rivojlanayotgan mamlakatlardir. Bular Mug'iliston, Pok iston, Vetnam, Bangladesh, Iordaniya, Shri-Lanka kabi mamlakatlar bo'lib, asosan, tog'-kon yoki yengil oziq-ovqat sanoatlarigina ma'lum darajada rivojlanishga erishgan.

Oltinchisi, iqtisodiyoti eng qoloq mamlakatlar. Ular Afg'oniston, Nepal, Yaman, Laos, Butan kabi mamlakatlardir. Ularda sanoatning biron tarmog'i yetarli rivojlanmagan, qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi juda pas darajadadir.

III-BOB. Sanoat sohasining rivojlanishida ekologik muammolar.

3.1 Sanoat sohasini rivojlanishida ekologik muammolarning bartaraf etish yo'llari.

Milliy havfsizlikka qarshi yashirin tahdidlarni ko'rib chiqar ekanmiz ekologik havfsizlik va atrof muhitini muhofaza qilish muammosi alohida e'tiborga molikdir. Bu muammo so'nggi yillarda yanada keskinlashdi MDH ga a'zo bo'lgan bir qancha mamlakatlarning bozor iqtisodiyotiga betartib suratda o'tishi tabiiy va menereal-xom ashyo zaxiralaridan foydalanishda boshqaruvning barham topgani ,nazorat qilinmaganligi natijasida ular tashlab ketila boshlandi. Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat,mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik havfga duch kelib qoldi.

Afsuski, hal ko'plab ushbu muammoga beparvolik va ma'suliyatsiz bilan munosabatda bo'lmoqdalar. Ekologik xavfsizlik muommosi alaqachonlar milliy va mintaqaviy idoradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan .Tabiat va inson o'zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo'ladi. Bu qonuniyatlarni buzish o'nglab bo'lmas ekologik falokatlarga olib keladi. Insoniyatning tabiat imkoniyatlarini va uning rivojlanishi qonuniyatlarini hisobga olmay jadal yuritilgan xo'jalik faoliyati, Rim klubining ” XXI asr yo'li “deb atalmish tadqiqotlaridan birida ko'rsatib o'tilganidek ,Yer yuzida to'proq nurash,o'rmonlardan maxrum bo'lish , tuzli yomg'irlar, atmosfera ifloslanishi ,ozon qatlami buzilishi va hokozolarning ro'y berishiga olib keladi.

Hozir XXI asr bo'sag'asida,fan –texnika taraqqiyoti jadal suratlar bilan rivojlanib bormoqda .Bunday sharoitda inson tomonidan biosferaga ko'rsatilayotgan ta'sirini tartibga solish ijtimoiy taraqqiyot bilan qo'lay tabiiy muhitni saqlab qolishning o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirish inson va tabiatning o'zaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolari borgan sari dolzarb bo'lib qolmoqda. Reional darajada bu muammolar O'rta Osiyo misolida ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi. Jamiyatning texnologik rivojlanishi mehnat va aholi

salomatligi muammolariga, uning ijtimoiy gigienik, ruhiy fiziologik va ekologik ko'rinishlariga sifat jihatidan yangicha yondashishni talab qiladi.

Insonning tabiatga munosabati va tabiatning insonga munosabati ishlab chiqarish kuchlari ishlab chiqarish munosabatlari va inson ishtirok etadigan aniq mehnat jarayonida ro'yobga chiqadi.

Hozirgi inson ekologiyasi inson, jamiyat va tabiatning o'zaro ta'siri mahalliy va regional hamda global muammolarni ularni jonli tabiat va insonga o'zaro ta'siri nuqtai nazaridan qamrab oladi va o'rganadi. Ishlab chiqarish va texnologiyalar yangi turlarining rivojlanishi, shunga bog'liq ravishda u jarayonlarga genetik jihatdan boshqa ekologik sharoitlarga ko'nikkan talaygina odamlarning jalb etilishi va jonli tabiatning odatdagidan tashqari antropogen omillarga muvofiqlashuvi va insoning unga muvoqlashuviga aloqador yangi, oldindan bilib bo'lmaydigan muammolarni tug'diradi. Atrofdagi tabiatning o'zgarishi ijtimoiy – gigienik oqibatlari hozirgi zamon kishisi hayot kechirishi sharoitlarida «tabiiylik» va «su'niylik» ning birligi va dialektik o'zaro aloqadorligining ifodasidir. Har bir jamiyatning fan – texnika taraqqiyotning keng avj oldirish asosida rivojlanishi muxim omil sifatida tabiiylik va su'niylik dialektik biriligi va o'zaro bog'liqligini ifodalaydi. Bu omil inson faoliyatida ichki ijtimoiy – biologik va tashqi muvozanatni ta'minlaydi.

Yekologik vaziyat murakkablashuvining bosh sabablaridan biri ijtimoiy rivojlanish muammolariga, insonning o'ziga taaluqli muamolarga bir tomonlama yondoshishi, inson ekologiyasida iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy – gigienik jihatlar dialektik bog'liqlikda ekanligiga yetarli baho bermaslikdadir. Salomatlik muammolarining regional xususiyatlari o'ziga xos hamma vaqt mavjud bo'lgan.

Yerning har bir mintaqasi o'zining aholi sog'lig'i xususiyatini izohlovchi tabiiy iqlim, aut va sinekologik xususiyatlariga egadir.

Inson ijtimoiy mavjudot sifatida tabiatdan shunisi bilan ajralib turadiki, mavjud bo'lishining vositalarini uning o'zi ishlab chiqaradi, hayvonlarga o'xshash

tabiatga moslashmaydi, balki uni faol ravishda o'zgartiradi va shu bilan o'zining xususiy tabiatini, shu jumladan, biologik uyushqoqligini ham o'zgartiradi. Odamning uni salomatligi va kasalligini inson ekologiyasi, ijtimoiy hayot tarizini xisobga olmay ko'zdan kechirish va insoniy jihatlarni hisobga olmoq darkor.

Salomatlik – bu inson faoliyati erkinligining ifodasidir. Hayot odamlar faoliyatining faollashuvi – bu ma'lum ma'noda salomatlikni ro'yoga chiqarish demakdir.

Salomatlik bu fiziologik va aqliy mehnat, ijtimoiy va shaxsiy hayotda to'la qonli qatnashishining zarur shartidir. Buning uchun ekologiya muammolarini xal etish, atrof-muhit tozaligiga e'tibor katta ahamiyat kasb etadi. Fan-texnika taraqqiyoti odamlar turmush tarziga katta ahamiyatga molik ta'sir o'tkazib, jamiyatning tabiat bilan o'zaro munosabatini ancha faollashtirdi. Insonning biosferaga ta'sir o'tkazish ham miqyosi bo'yicha, ham jadalligi bo'yicha keskin o'sganligi butun dunyoda ekologiyaga, uning uslubiy va amaliy ko'rinishlariga qiziqishning ortishiga ko'maklashdi.

Biroq, tabiatni bo'ysundira borib, inson o'z faoliyatining tabiiy negizlariga biroz putur yetkazganligi, jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi o'zaro ta'sirini buzganligi ham haqiqatdir. Bunday sharoitlarda inson ekologiyasi fanini rivojlantirish, uning uslubiy va ijtimoiy – gigiena aspektlarini tadqiq etish zarurati tobora ortib boradi.

Mazkur fan odamlar va tabiatning, inson va biosferaning o'zaro munosabatini xayotning aniq ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlari bilan chambarchas bog'liqlikda o'rganadi.

Bugungi kunda inson salomatligi jamiyatning murakkab tarixi va uning hozirgi taraqqiyoti oqibati ekanligi allaqachon ravshanlangan. Shu boisdan tibbiy sanitariya – gigiena tadbirlarining birontasi ham ular qanchalar ilmiy asoslangan va texnikaviy rivojlangan bo'lmasin, o'z-o'zicha jamiyat a'zolari sog'lig'ini saqlash va rivojlantirish muhofaza qilishni ta'minlay olmaydi.

Butun jamiyatning ijtimoiy ishlab chiqarish – iqtisodiyoti tuzilmasini ilmiy tashkil qilish, mehnat, dam olish sharoitlarini, ma'naviy va jismoniy tarbiya sharoitlarini vujudga keltirish, xayot tarzi madaniyatini rivojlantirish, bularning hammasi sog'liqni muxofazalash va mustahkamlashning sharti va garovidir. Tabiatni muhofazalash to'g'risida emas, balki inson tabiat va ular o'rtasidagi muvofiqlikni yanada takomillashtirish uchun qulay ijtimoiy, ekologik sharoitlar yaratish maqsadida tabiatni asrab – avaylash va rivojlantirish haqida bormoqda. Tabiatni muhofaza qilish eng oliy maqsad har tomonlama rivojlangan inson va insoniyat jamiyatga erishining eng muhim vositalaridan biridir.

Hozirgi fan-texnika taraqqiyoti sharoitlarida, ilgari hech qachon bo'lmaganidek, ijtimoiy hayotning barcha xodisalariga ijtimoiy – iqtisodiy tibbiyot – biologiya, ekologiya va boshqa , xodisalarga majmuiy yondashish zarurati paydo bo'ldi. Bu o'tgan davrlarda nisbatan insonning tabiatga, tajovuz qilishi eng faol tus olayotgani bilan bog'liqdir. Bunday ziddiyatlarning ob'ektiv tomoni avvalo shunda ifodalanadiki, odamlarning ilgarilab ketadigan ehtiyojlari ko'pincha tabiat boyliklarini hisobga olmay hal etishga majbur qiladi. Tabiat jarayonlariga bunday aralashuvlar yangi, ilgari ma'lum bo'lmagan tushuntirilishi qiyin va oldinroq tashkil topgan hamda e'tibor bildirish mumkin emasdek ko'ringan nazariy qarashlarga sig'maydigan xodisalarni keltirib chiqaradi.

Insonning o'zining ishlab chiqarish faoliyati bilan o'zi va tabiat o'rtasidagi modda almashinuvida vositachilik qiladi. Shu jarayonni tartibga soladi va nazorat tutadi. Inson organizmining o'ziga xos o'zgartirishga nisbatan barqaror tabiatning tabiiy o'zgarishiga nisbatan barqaror tabiatning tabiiy o'zgarishlariga nisbatan barqaror tabiatning tabiiy o'zgarishlari emas, balki uning mehnat xarakteri va ishlab chiqariladigan o'zgarishlar ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi inson ekologiyasi inson, jamiyati va tabiatning o'zaro ta'siri mahalliy, regional hamda global muamolarini ularning jonli tabiat va insonga o'zaro ta'siri nuqtai nazardan qamrab oladi va o'rganadi. Hozirgi zamon kishisining ijtimoiy ekologik o'ramda «tabiiylik» va «su'niylik» nisbatan inson

ekologiyasi uslubiy va ijtimoiy gigienik ko'rinishlarini ochib berishda muhim yo'nalish xisoblanadi. Inson ekologiyasida ijtimoiylik bilan biologiyaviylikning o'zaro bog'liqligi mehnat barcha elementlarida, predmetlar va vositalarida alohida ishchi kuchida, mehnat faoliyatining o'zida va uning barcha hatti xarakatida namoyon bo'ladi. «Inson – texnika va tabiat» tizimida ijtimoiy jihatning yo'naltiruvchi rolini tan olish bunday ko'zdan kechirishning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda O'zbekistondagi 140 dan ziyod eng yirik sanoat korxonalaridan doimo chiqindi suvlar chiqadi.

Sanoat korxonalari chiqindi suvlarining o'ziga xosligi, ulardagi zararli moddalarning borligidandir: jumladan suv tarkibida fenollar, sianidlar, marganets, mis, fluor, kurg'oshin, simob, kadmiy, xrom, nitrobirikmalar va boshqa kimyoviy moddaning mavjudligi va kishi organizmiga, suvning flora va faunasiga xavf tug'dirishidandir.

Shuning uchun ham korxona chiqindi suviga sanitariya tomonidan baho berishda umumni zavodning birlashib chiqayotgan chiqindi suviga emas, balki har bir sexda paydo bo'ladigan chiqindi suvlar tekshirilib, laboratoriya analizi o'tkazilib, undagi ingredientlarga qarab baho berilishi kerak. Shu yo'llar, usullar bilan ularni zararsiz holatga keltirish mumkin. Atmosfera xavosi Yerni urab olgan gazli qatlam — tabiiy omillardan biridir. Atmosfera havosi tarkibida bir qancha gazlar bulib, ularning asosini azot, oksigen (kislorod), karbonat angidridi, vodorod (hidrogen), argon va boshqa inert gazlar tashkil etadi. Ma'lumotlarga qaraganda, yer ustidagi havo qatlami yuqoriga qarab 1500—2000 km gacha tarkalgan. Bu, albatta, shartli chegara hisoblanadi. Atmosfera havosining asosiy massasi dengiz yuzasidan 5 km oralikda yotadi. Yer atmosferasining umumiy og'irligi 5 kvadril 157 trln tonnaga tengdir.

Atmosfera havogi quyoshning issiqlik nurni uzidan o'tkazib, saqlaydi.

Ifloslanmagan, quruq atmosfera havosi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: azot — 78,084%, oksigen — 20,947, argon — 0,934, karbonat angidridi —

0,0314, neon — 0,0018,-gidrogen — 0,00005, metan 0,0002, sulfit angidridi 0 dav 0,0001% gacha.

Atmosfera havosidagi har bir gaz o'ziga xos fizik va kimyoviy xususitlariga ega bo'lib, ular tabiatda ma'lum bir o'rin tutishi bilan ajralib turadi. Atmosfera havosini ifloslantiruvchi manbalar. Insoniyatga, qolaversa barcha jonivorlarga hayot baxsh etadigan atmosfera havosini hozir asosan ikki manba: tabiiy omillar va inson faoliyatining maxsuli — antropogen manbalar ifloslantiradi.

Atmosfera havosini ifloslantiruvchi tabiiy omillarga vulqonlarning otilishi, tog' jinslarining yemirilishi, o'rmonlarga o't ketishi natijasida atrof muhitga zararli omillar yoyilishi kabi ofatlarni misol qilib kursatish mumkin.

Antropogen ifloslanishlar asosan sanoat korxonalari avtomobil, havo, temir yo'l, suv transportlari chiqindi va ajratmalari, shuningdek turli xil yokilg'ilar ishlatilishi natijasida paydo buladigan zararli moddalarning havo havzasiga tushishi oqibatida sodir buladi.

Darxaqiqat, inson o'zining hayot faoliyati bilan tabiatga ta'sir o'tkazmokda. Transport vositalarining kundan-kunga ko'payib borishi, yer bag'rini, tog'u toshlarni ag'dar-tuntar qiladigan qudratli mexanizmlarning yaratilishi va ulardan keng kulamda foydalanilishi saxovatli tabiatga, shu jumladan, atmosfera havosiga salbiy ta'sir kursatib, uning boqiraligiga raxna soladi. Hozir fan-texnika rivojlangan bir davrda atmosfera havosining ifloslanishi tobora kuchayib barmokda. Atmosfera havosini doimiy (statsionar) ravishda ifloslantiruvchilarga sanoat korxonalari, kommunal va quvvat ishlab chiqaruvchi ob'ektlar kirs, harakatdagi ifloslantiruvchilarga avtomobil, temir yo'l va havo transport vositalari kiradi.

Hozirgi zamon metallurgiya kombinatlari dudburonlar orqali ko'p mikdorda ta'sirchan moddalarni atmosferaga chiqarib tashlashi ustiga ular hududida joylashgan turli Havo almashtiruvchi (ventilyatsiya) shoxobchalari, mu'jaz dudburonlar, shuningdek bir qancha sexlar ham havoga ko'p mikdorda «chang va

zaxarli moddalar chiqarib turadi. Shunday joylardan ajratiladigan chiqindilar barcha chiqindilarning 25— .27% ini tashkil qiladi. Tarixiy tadrijiy rivojlanish jarayonida insoniyat nafaqat tabiiy iqlimni, balki Yer planetasidan tashqarida bo'lgan boshqa ob'ektlar va jarayonlarga ham o'z ta'sirini o'tkaza oladigan, ularni o'zgartirishdek qudratli kuchga ega bo'ldi. Insoniyat uchun noqulay bo'lgan global muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'layotgan iqlim o'zgarishlarining asosida ham kishilarning o'zi turadi.

Tabiatda, o'z-o'zini tozalash, tiklash, yangilashdek ajoyib qonuniyat amal qiladi. Ammo hozirgi paytda kimyoviy tarkibli mahsulotlar va chiqindilar atrof-muhitga me'yordagidan ziyod chiqarilishi ana shunday muhim qonuniyatning amal qilishiga to'sqinlik ko'rsatayapti. Tabiatda chiqindilarni zararsizlantirish va bartaraf etishga xizmat qiluvchi mikroorganizmlarning soni va faolligi ancha susaygan. Bunday xususiyat chiqindilarning tabiiy qayta ishlash jarayonining izdan chiqishiga, yildan-yilga ko'payib borishiga va oxir-oqibatda tuproq hamda atmosfera tarkibining o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Global isish, bug'xona effekti, atmosfera tarkibida karbonad angidrid, oltingugurt oksidi, azot, uglerod hamda boshqa zararli moddalar miqdorining ko'payishi nafaqat harorat, balki barcha iqlim omillarining (shamol, yorug'lik, atmosfera havosining tarkibi, namlik, yog'inlar va boshqalar) o'zgarishiga olib kelmoqda.

Oxirgi 150 yilda planetamizdagi haroratning o'rtacha 1,5 darajaga ko'tarilishi doimiy muzliklar egallagan maydonning qisqarishi, umuimiy suv sathining ko'tarilishi, cho'llanish jarayoni kuchayishi kabi global muammolarni keltirib chiqarmoqda. Mutaxassislarining fikricha, bunga asosiy sabab sifatida sanoat korxonalaridan hamda transport vositalaridan atmosferaga chiqarilayotgan turli gazlar va boshqa chiqindilar miqdorining oshishi natijasida ozon qobig'ining yemirilishi, bug'xona effektining shakllanishi va boshqa omillar ko'rsatilmoqda. Mazkur ekologik muammo Yer planetasining barcha mintaqalari uchun xos muammodir. Demak, uni bartaraf etishda barcha mamlakatlar hamjihatlik bilan harakat qilishi zarur. Qayd etilgan masalada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan

chora-tadbirlar ham tahsinga loyiq. Mamlakatimiz aksariyat korxonalarida, jumladan Buxoro neftni qayta ishlash zavodida chiqindi gazlarni tozalovchi moslamalarni zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash, yoqilg'i sifatini yaxshilash, energiya tejovchi va kam chiqindili texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish, mazkur sohadagi qonunchilikni hamda qonun ijrosi nazoratini kuchaytirish borasida ijobiy natijalarga erishilmoqda. Albatta, ekologik masalalarni hal etishda keng jamoatchilik ishtirokini ta'minlash yo'nalishidagi sa'y-harakatlar o'zining ijobiy samarasini beradi. O'zbekiston ekologik harakati ishtirokchilari va Qonunchilik palatasiga O'zbekiston ekologik harakatidan saylangan deputatlarning dasturiy rejalarida ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilganligini ta'kidlash joizdir.

Ma'lumki, mamlakatimiz hududining asosiy qismini tekisliklar — cho'l landshaftlari egallaydi. Ularda keskin mintaqaviy iqlimiy xususiyatlar namoyon bo'ladi. Qoraqum, Qizilqum, Orolning qurigan qismida shakllangan Orolqum kabi zonalarda yuqori haroratning biroz ko'tarilishi muayyan salbiy o'zgarishlarga olib keladi. Bu shamol, namlik va boshqa iqlimiy omillarda o'z ifodasini topmoqda. Shu nuqtai nazardan O'zbekistonning janubiy hududlariga zararli ta'sir o'tkazayotgan Tojikiston alyuminiy zavodi hamda Amudaryo va Sirdaryo havzalaridagi muammolar mamlakatimiz jamoatchiligini tashvishga solayotgani bejiz emas. Bu masalada aksariyat xalqaro tashkilot va ekspertlar respublikamiz rahbariyatining oqilona siyosatini ham qo'llab-quvvatlashyapti.

Bugungi kunda barchani tashvishga solayotgan transchegaraviy ekologik muammolarni bartaraf etish, xalqaro hamjamiyatning bu boradagi sa'y-harakatlarini kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli asarida ta'kidlanganidek, «Xalqaro hamjamiyat insonning nafaqat yashash huquqi, balki to'laqonli va sog'lom turmush kechirishi uchun zarur mo'tadil atrof-muhit sharoitlariga ham bo'lgan huquqlarining muqaddas va daxlsizligini allaqachonlar e'tirof etgan. Ekologik

xavfsizlik kishilik jamiyatining buguni va ertasi uchun dolzarbligi, juda zarurligi bois eng muhim muammolar jumlasiga kiradi...».

Xalqaro huquqiy tajriba, zamonaviy fan, texnika va texnologiyalar asosida ekologik xavfsizlikning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekistonda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda ekologik xavfsizlik sohasidagi siyosat O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik kontseptsiyasi, shuningdek, atrof-muhit va barqaror rivojlanish bo'yicha Rio-de-Janeyro va Yooxannesburg deklaratsiyalarining tamoyillari asosida xalqaro konventsiyalar va shartnomalardan hamda yetakchi davlatlarning qonunchilik sohasidagi tajribalaridan kelib chiqadigan davlat majburiyatlarini hisobga olgan holda olib boriladi.

Milliy siyosat va xalqaro hamkorlikning asosiy yo'nalishlari mamlakatning ekologik salohiyatini saqlashga va mustahkamlashga asoslangan. Shu maqsadda O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti bilan atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasida faol hamkorlikni yulga qo'yib, atrof-muhit va barqaror rivojlanish buyicha O'nlab xalqaro konventsiyalarni ratifikatsiya qildi. Xalqaro, mintaqaviy muammolarni hal etish uchun Barqaror rivojlanish kontseptsiyasi va Milliy strategiyasi, «XXI asr kun tartibi», atrof-muhit, aholi salomatligi muhofazasi, biologik xilma-xillikni saqlash, chullanishga qarshi kurash, ozon qatlamini yemiruvchi moddalardan foydalanishni tuxtatish, chiqindilarni boshqarish bo'yicha Milliy harakat rejalari, issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish milliy strategiyasi va boshqalar qabul qilindi. Atmosfera havosini transchegaraviy muhofaza qilish umumjahon ekologik muammolardan sanalib, 1979 yilda qabul qilingan BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining (YeIK) Atmosfera havosining uzoq masofalarida trans chegaraviy ifloslanishi tug'risidagi konventsiyasi atmosfera havosini ifloslantirishga qarshi kurashishda hamkorlikdagi harakatlar uchun asos yaratdi. Konventsiya atmosfera havosini ifloslantirish, uning mintaqaviy darajadagi oqibatlarini o'rganish va monitoringi hamda chiqindilarni kamaytirish

strategiyasini ishlab chiqish sohasida sa'y-harakatlarni birlashtirishni ta'minlovchi asosiy xalqaro kelishuvlardan biri hisoblanadi

Atmosfera havosining transchegaraviy ifloslanishining oldini olish bugungi kunning ham dolzarb vazifalaridan biri sanaladi. O'zbekistonning havo ifloslanishiga qarshi kurash va havoning sifatini nazorat qilish sohasidagi uz strategiyasi bor. Davlatimiz 1992 yil 8 fevralda MDH davlat boshliqlari imzolagan bitimga muvofiq tuzilgan MDH mamlakatlari Davlatlararo ekologiya kengashining tulaqonli

a'zosidir. Uzbekiston hukumati tomonidan ekologik muammolarni bartaraf etish bo rasida keng kulamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ammo, Uzbekiston tomonidan kurilayotgan chora tadbirlar bilangina umummintaqaviy ekologik muammolarni tula yechib bulmaydi. Buning uchun Markaziy Osiyo davlatlarining barchasi birdek harakat qilmog'i talab etiladi . Kezikelganda ta'kidlash lozimki, 36 yildan buyon qushni Tojikistondagi «Tojikiston alyuminiy kompaniyasi davlat unitar korxonasining atmosfera havosiga zararli tashlanmalarining bevosita ta'sir d oirasida Surxondaryoviloyatidagi bir milliondan ortiq aholi

yashaydigan Sariosiyo, Uzun, Denov, Oltinsoy, Sho'rchi, Qumqurg'ontumanlari hududi aholisi endokrin va suyak-bug'in tizimi, nafas olish yullari, tug'ma nogironlik, flyuoroz va onkologik kasalliklardan borgan sari kuproq aziyat chekmoqdalar. Ekologik nuqtai nazardan zaharli zavod mo'rilaridan

tashlanayotgan, tarkibida insonsalomatligi uchun xavfli bo'lgan ftorli vodorod va boshqa qushilmalar mavjud havodan nafas olishga majbur bulmoqdalar. Alyuminiy olish jarayonida ftorli vodoroddan tashqari katta miqdordagi uglerod va oltingugurt oksidlari kabi zaharli gazlar ajralib chiqib, insonda yiringli bronxit, upka shamollashi, bosh aylanishi, migren, qonbosimining oshishi kabi kasalliklarni keltirib chiqarmoqda. Bunday zaxarli tashlanmalar, ayniqsa, bulajak onalar salomatligiga juda salbiy ta'sir kursatmoqda.

Ftorli vodorod va boshqa zaharli moddalar qishloq xujalik mahsulotlari tarkibi da ham kuplab uchrayotgani nihoyatda achinarlidir. Jumladan, bunday zaharli

moddalar 1 kilogramm bug'doyda 13,2, nuxatda 57,4, kartoshkada 52,6, sabzida 55,7, sutda 37,2, olmada 57,3 milligrammni tashkil etayotir. Bu belgilangan me'yoriy miqdordan 3-5 marta ortiqdir.

Tadqiqotlar birinchi darajali flyuoroz bilan 36 foiz, ikkinchi darajalisi bilan 40 foiz, uchinchi darajalisi bilan esa 35 foiz chorva mollari kasallanganini tasdiqladi.

Ilgari Sariosiyo tumanida yiliga 400 tonnagacha ipak yetishtirilar edi. Ekotizimning buzilgani oqibatida tumanda ushbu serdaromad soha bilan shug'ullanish imkoni bulmay qoldi. Chunki tut barglari ipak qurti uchun haqiqiy zahri qotilga aylandi. Vaholangki, atmosfera havosining transchegaraviy ifloslanishi oldini olish borasida 1994 yil 17 noyabrda Toshkent shahrida «Uzbekiston Respublikasi hukumati va Tojikiston Respublikasi hukumati Urtasida Tojikiston alyuminiy zavodining salbiy ta'siri mintaqasidagi ekologik holatni yaxshilashda hamkorlik qilish tug'risida»gi kelishuv imzolangan.

Tojikiston hukumatining 1979 yilda qabul qilingan BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining (YeIK) Atmosfera havosining uzoq masofalarida transchegaraviy ifloslanishi tug'risidagi konventsiyasi talablariga zid ravishdagi xatti-harakatlarini qanday baholash mumkin? Yoxud 1992 yil 8 fevralda MDH davlat rahbarlari imzolagan bitimga muvofiq tuzilgan MDH mamalakatlari Davlatlararo ekologiya kengashining nizom va dasturlariga amal qilmaslik, uz manfaatlarini uylab, uzining hamda qushni davlat aholisi sog'ligi va salomatligini hamda usimlik va hayvonot dunyosini zaharlayotganini qanday izohlash mumkin?

Atrof muhit, aholi salomatligini muhofaza qilish va ekologik vaziyatni sog'lomlashtirishda kengjamoatchilikning faol ishtirokini ta'minlash, atrof-muhit holatining inson salomatligi bilan uzaro munosabati yuzasidan O'zbekiston ekologik harakati keng jamoatchilik, uzini-o'zi boshqarish organlariishtirokida qator tadbirlar utkazib kelmoqda. Ayniqsa, Ekoharakat faollarining «Tojikiston alyuminiy kompaniyasi» davlat unitar korxonasi faoliyatining atrof-muhitga va inson salomatligiga zararli ta'siriga qarshi Surxondaryo viloyatida utkazgan ommaviy tadbirlari Uzbekiston ekologik harakatining uz maqsad va vazifalariga

erishish yulidagi amaliy sa'y-harakatlarining yorqin isbotidir. Xulosa o'rnida aytish joizki, bir mintaqada, bir daryodan suv ichib, bir havodan nafas olayotgan davlatlarning ekologik muammolari ham birdir. Uni yechishda ham birlik, hamjihatlik muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, vujudga kelgan ekologik vaziyatni hisobga olgan holda, transchegaraviy ifloslanish masalalari, ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal etish asnosida bajariladigan yagona tizim va xolis yondashuv Uzbekiston Respublikasi bilan birga Tojikiston Respublikasi uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, «Tojikiston alyuminiy kompaniyasi» davlat unitar korxonasi tashlamalarining salbiy ta'siriga duchor bulgan hududning ekologik holatini yaxshilash buyicha samarali chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim.

Qolaversa, atrof-muhit muhofazasini yaxshilash, ekologik barqarorlikni ta'minlashga ustuvor vazifa sifatida qarab, nafaqat bugungi, balki kelajak avlodlarimiz taqdiri uchun ham mas'ul ekanimizni unutmasligimiz kerak.

Sunggi paytda nafaqat Uzbekiston va Tojikistonning, balki xorijiy hamda xalqaro ommaviy axborot vositalarida "Tojikiston alyuminiy kompaniyasi" davlat unitar korxonasi faoliyatining atrof muhitga va aholi salomatligiga ta'siri xususida turlicha yondoshuvlar bayon etilgan maqolalar tez-tez kuzga tashlanmoqda. Bunga eng avvalo, Uzbekiston ekologik harakati faollarining 2010 yilning mart va iyul oylarida Surxondaryo viloyatida ushbu korxona ishlab chiqarishining mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga, ekologiyasiga zararli ta'siriga qarshi utkazgan ommaviy tadbirlari turtki bulib xizmat qildi, desak aslo mubolag'a bulmaydi.

Bunday holat Surxondaryo viloyatidagi keng jamoatchilikni, xususan, O'zbekiston ekologik harakati faollarini befarq qoldirmadi. Ular 2010-2011 yillarda "Tojikiston alyuminiy kompaniyasi" davlat unitar korxonasining tabiatga va inson salomatligiga zararli faoliyatiga qarshi bosh kutarib, miting va namoyishlar utkazdilar. Ularning adolatli talablarini Uzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Ekoharakat deputatlari guruhi a'zolari, Uzbekiston ekologik harakati qullab-quvvatladi. Aks holda, ularning hayoti ham

alyuminiy ishlab chiqarilishi jarayonida atrof muhitga ajralib chiqadigan ftorli vodorod va boshqa zaharli kimyoviy birikmalarga uxshab qolishi mumkin. Chunki ekologik tanazzul uchog'idagi har qanday faoliyat xuddi shunday ayanchli va fojiaiy yakun topishi shubhasiz.

3.2 Sanoat sohasini rivojlanishini samaradorligini oshirish masalalari

Mamlakatimizda bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni shakillantirishdan asosiy maqsad, respublikada makro va mikroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hamda milliy an'analarga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishdan iboratdir.

Respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirish, ishlab chiqarish jarayonini maxalliy xom-ashyolardan tula foydalanilgan holda tashkil etish, shu yul bilan iqtisodiy

taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan. Bugungi kunda mamlakatimiz bozor iqtisodiyotini shakillantirish asosida aholini kuchli ijtimoiy himoyalashni ta'minlay oladigan demokratik davlat qurish uchun strategik jihatdan zarur bulgan kup ukkladli iqtisodiyot shakillantirilmoqda.

Zero, Yurtboshimiz ham, "islohatlarning strategiyasi va taktikasini belgilash chog'ida jamiyatni isloh qilish va yangilashda belgilovchi ahamiyatga ega bulgan bug'inlarga e'tibor berish darkor" ekanligini alohida ta'kidlagan edi.

Bozor iqtisodiyotiga utishning ikkinchi bosqich asosiy vazifalari iqtisodiy rivojlanishda makroiqtisodiy barqarorlikni taminlashdan iborat bulib, asosiy shartlaridan biri esa, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdir.

Moliyaviy barqarorlik, iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omili bulib, iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etuvchi shart –sharoidlarni uzgartirishni va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydi. Iqtisodiyotni makroiqtisodiy barqarorlikka erishgan halda rivojlanish, ishlabchiqarish jarayonining usib borishi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda, bizning fikrimizcha, quyidagi moliyaviy mablag'lardan:

davlat byudjeti mablag'laridan;

korxonalar mablag'laridan;

aholi qulidagi iste'mol darajasidan ortiqcha bulgan mablag'lardan;

kredit mablag'laridan;

chet el investitsiya mablag'laridan foydalanish zarur.

Shu urinda respublikamiz Prezidentining "Isloh qilishning hozirgi bosqichidagi ikkinchi eng muhim vazifa- ishlab chiqarish quvvati pasayishiga barham berish va makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash, ham korxona larning, ham tarmoqlarning, ham davlatning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligiga erishishdan iborat", degan suzlarini keltirish joizdir.

Viloyat iqtisodiyotini rivojlantirishda,eng avvalo,unda mavjud bulgan xom ashyolarga asoslangan ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish hozirgi davrning eng dolzarb muammosi deb qaralishi kerak.Mavjud xom ashyolardan sifatli, jahon bozorlari talabiga javob bera oladigan tayyor mahsulot ishlab chiqarish va chet el bozorini egallash zarur.Bu sanoatning asosiy yunalishi bulishi darkor.Viloyatda sanoat ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirishda :

milliy sanoat taraqqiyotining hozirgi iqtisodiy holatini tuliq taxlil qilib borishga;
iqtisodiy sharoitni ta'minlash uchun raqobatbardosh milliy mahsulotlarni ishlab chiqarishga;

milliy sanoat ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning ichki va tashqi bozordagi talab hajmini aniqlashga;

sanoatning optimal rivojlanishi uchun zarur bulgan xom ashyo sarflarini aniqlashga;
sanoat ishlab chiqarish taraqqiyotini ta'minlashda eng unumli va tejamkar variantlarini tanlashga;

milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun jahon ta'lim tizimi talablariga javob bera oladigan darajada milliy kadrlar bilan ishlab chiqarish tarmoqlarini ta'minlashga e'tibor berishni kuchaytirish zarur.

Sanoat ishlab chiqarishining taraqqiyoti ichki va tashqi bozorlarga raqobatbardosh tovarlarni yetkazib berishga asoslanishi kerak.Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda infratuzilmalarning ham urni katta.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun sanoat korxonalarining moliyaviy foliyatini doimiy ravishda takomillashtirib borish quyidagi muammolarni hal etishga:

moliyaviy ishlab chiqarish resurslari to'plami asosida ishlab chiqarishni samarali bulishiga;

ishlab chiqarish texnologiyalarini samarali ishlashining uzaro bog'liqligiga;

ilm-fan taraqqiyoti asosida ilg'or ishlab chiqarish texnologiyasiga asoslangan korxonalar mahsulotlarini tashqi iste'mol bozoriga chiqarishiga;

yangi investitsiya mablag'larini jalb etishga;

Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish, ular uchun zarur bulgan moliyaviy mablag'larning shakillanishini takomillashtirib borish, tuliq ishlab chiqarish hajmida ishlayotgan korxonalar faoliyati yunalishlarini takomillashtirish, soliq tizimini takomillashtirish, korxonalarni iqtisodiy foliyatlarini yaxshilash, uzaro hisob-kitoblarni yaxshilash, kreditlarni uz vaqtida qaytarish, zarur bulgan likvidlarni uz vaqtida yopish muammolari bilan bog'liqdir.

2010 yil yakunlariga kura, mamlakatimizning yalpi ichki mahsuloti 8,1 foiz, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish majmi 8,3 foizga usdi. Eksport qiluvchi korxonalarni har tomonlama qullab-quvvatlash va eksport tarkibini diversifikatsiya qilish, yangi tashqi bozorlarni faol uzlashtirish eksport hajmining 10,8 foizga usishini ta'minladi. Umuman olganda, xalq xujaligining boshqa tarmoqlarida ham sur'at oshdi, kursatkichlar salmoqli buldi.

Sanoat korxonalarini eng zamonaviy texnologik uskunalar bilan jihozlash, ilg'or ilm-fan yutuqlari hamda innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga jadal tatbiq etish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash doirasini kengaytirish va shu orqali sanoat mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirib, bozor kon'yunkturasi uzgarishlariga sur'at bag'ishlash davlatimiz rahbarining 2010 yil 15 dekabrda "2011-2015 yillarda Uzbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yunalishlari tug'risida"gi qarorining uzak masalalari sirasiga kirdi. Boshqacha aytganda, mazkur qaror mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash jarayonining mantiqiy davomi bulib, sanoatni barqaror, jadal va muvozanatli rivojlantirish vazifasini quydi.

Aytish joizki, ushbu vazifaning mazmun-mohiyati, ahamiyati Prezidentimiz Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga muljallangan eng muhim yunalishlarga bag'ishlangan Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasida ham, undan avvalroq Oliy Majlis palatalarining qushma majlisida qilingan ma'ruzasida ham batafsil tahlil etilgan edi.

Bu, uz navbatida, mamlakatimizga chetdan olib kelinayotgan import urnini bosadigan mahsulotlarni ishlab chiqarish, yangi ish urinlarini yaratish va shu yul bilan odamlarning turmush tarzini farovonlashtirish chora-tadbirlari puxta ishlab chiqilganidan dalolatdir.

Ma'lumki, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda uning tashqi bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlaydigan xalqaro sifat sandartlari va texnik reglamentlarini tizimli tarzda joriy etish muhim ahamiyatga ega. Ayni shu nuqtai nazardan, davlatimiz rahbarining yuqorida tilga olingan qarorida kuzda tutilgan mamlakatimiz sanoatini rivojlantirishning maqsadli kursatkichlarini moliyalashtirish manbalari ham aniq belgilangan. Bu, tabiiyki, sanoatda amalga oshiriladigan hamda amalga oshirishga tayyorlab quyilgan invetsitsiya loyihalari ruyxati va ishlab chiqish bosqichida bulgan yangi invetsitsiya loyihalari, hatto oldindan ishlab chiqilayotgan isiqbolli invetsitsiya loyihalarini uz ichiga oladi.

“2011-2015 yillarda Uzbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustvor yunalishlari tug'risida”gi qarorda sanoat sohasida umumiy qiymati qariyb 50 milliard dollarni tashkil etadigan 500 dan ortiq yirik invetsitsiya loyihalarini amalga oshirish kuzda tutilgan.

Yaqin besh yil ichida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini kamida 60 foizga oshirish, yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 2010 yildagi 24 foizdan 2015 yilda 28 foizga kupaytirish muljal qilingan.

Mashinasozlik, avtomobilsozlik, kimyo, oziq-ovqat, farmatsevtika, qurilish materiallari sanoati va boshqa sohalarni jadal rivojlantirish ta'minlanib, ushbu tarmoqlarda ikki barobardan ziyod usishga erishilishi kutilayapti. Bu paxta tolasini uzimizda qayta ishlash hajmini ikki barobardan kuproq, kalava ishlab chiqarishni 2,6, tayyor trikotaj va tikuvchilik buyumlarini 3, tuqimachilik mahsulotlari eksportini 2 barobar oshirishni ta'minlaydi.

Shuningdek, yaqin besh yil ichida invetsitsiyalar sharofati bilan sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqarish yulga quyiladi. Bu polietilen va polipropilen

mahsulotlar, suyultirilgan va siqilgan tabiiy gaz ishlab chiqarish buyicha yangi, zamonaviy gaz-kimyó kompleks (majmua)lari bunyod etiladi. Energiyani tejaydigan zamonaviy texnologiyalar asosida mineral ug'itlar va yangi turdagi kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish jadal tus oladi. Mamlakatimiz sanoatini rivojlantirishga oid bu kabi kupdan-kup ustvor yunalishlarning barchasi respublikamizda ijrosini topayotgan invetsitsiya siyosati bilan chambarchas bog'liq. Yurtboshimiz Vazirlar Mahkamasidagi ma'ruzasida ta'kidlaganidek, "Uzbekistonda investorlar uchun, aytish mumkinki, kup jihatdan beqiyos o'ta qo'lay investitsion muhit, imtiyoz va preferentsiyalar tizimi yaratilgan, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Iqtisodiyotimizga jalb qilinayotgan xorijiy invetsitsiyalar hajmi yildan-yilga ortib borayotgani ham buning yorqin dalilidir". Iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash, uy-joy qurilishi, transport va infratuzilma kommunikatsiyalarini rivojlantirish buyicha faol invetsitsiya siyosatini amalga oshirilishi 2010 yilda 2009 yilga nisbatan 13,6 foizga kup buldi. Bu bizga qiymati 9,7 milliard AQSh dollariga teng miqdordagi investitsiyalarni uzlashtirish imkonini berib, yalpi ichki mahsulotning qariyb 25 foizini tashkil etdi. 1098 ta yangi ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirilib, 296 ta invetsitsiya loyihasini amalga oshirish muvaffaqiyatli yakunlandi.

2011 yilda xalqaro moliya institutlari va xorijiy kompaniyalar bilan tuzilgan shartnoma va bitimlar asosida iqtisodiyotimizning real sektoriga 3 milliard AQSh dollaridan ortiq invetsitsiya kiritish kuzda tutilmoqda.

Kelajakda Uzbekiston milliy avtomagistralini rekonstruktsiya qilish, "Tuyabug'uz-Bekobod" ichimlik suv ta'minoti tizimini barpo etish, Namangan shahrida kanalizatsiya ishlarini kengaytirish, Dehqonobod kaliy ug'itlari zavodi va Ustyurt gaz-kimyó kompleksining ikkinchi bosqichini qurish eng muhim loyihalar qatorida turibdi. 2011 yilda 35 dan ortiq yirik ishlab chiqarish korxonasi qurilishini yakunlash va foydalanishga

Bugungi kunda Navoiy shaxrida bulib, shaxar aeroporti bazasida vujudga kelayotgan xalqaro multimodel logistik markazini kurgan kishining xayrati ham, xavasi xam oshishi tabiiy. Koreyaning “Korean-Yeyr” kompaniyasi xamkorligida bunyod etilayotgan mazkur markaz Uzbekistonni Yevropa, Xindiston, Xitoy va Janubi-Sharqiy Osiyo bilan bog’laydigan kunlari ham yaqin.

Malayziyaning “Petronaj” kompaniyasi bilan yulga quyilgan xamkorlikni olaylik. Uzbekistonda 2006 yilda vakolatxonasi ochilgan ushbu kompaniya “Uzbekneftgaz” milliy xolding kompaniyasi bilan birgalikda mamlakatimiz xududlarida (jumladan, Orolbuyida) yirik-yirik geologik qidiruv ishlari loyixalarini amalga oshirmoqda.

1996 yildan buyon Uzbekistonga ajratgan kredit resurslari utgan yilning may oyiga qadar bulgan hisobga kura 1 milliard 200 million AQSh dollari miqdorini tashkil etdi. Bu mablaq hisobiga 520 million dollardan ortiq xajmdagi 11 ta loyixa amalga oshirildi. Umumiy miqdori 600 million dollardan ziyod 15 ta loyihani uzlashtirish ishlari davom etmoqda.

2011 yilda moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan 10,8 milliard dollardan ortiq kapital quyilmalar uzlashtirildi. Bu 2010 yilga nisbatan 11,2 foiz kup demakdir. Utgan yili investittsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 23,9 foizni tashkil etganligi mamlakatimizda invetsitsiya jarayoni jadal faollashib borayotganidan dalolatdir. 2011 yilda mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq tulovi savkasining 7 foizdan 6 foizga pasaytirilishi xujalik yurituvchi sub’ektlar investittsiya faoliyatini kengaytirish, bu bushab qolgan 80,3 milliard sum mablag’ni birinchi navbatda ishlab chiqarishni texnologik yangilash va zamonaviy texnikani joriy etishga yunaltirish imkonini berdi.

Toshkent – Samarqand yunalishida “Afrosiyob” tezyurar yulovchi elektr poezdlari qatnovi yulga quyildi. Bu poezdlardan foydalanish maqsadida temir yul infratuzilmasini modernizattsiya qilish va takomillashtirish buyicha keng kulamli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 600 kilometr uzunlikdagi yullar qaytadan

tiklandi, 68 kilometrdan iborat yangi temir yullar yotqizildi, Toshkent va Samarqand shaharlari temiryul vokzallari rekonstruktsiya qilindi va jihozlandi. Matubot anjumanida Prezidentimiz Islom Karimovning 2011 yilning 27 dekabrda qabul qilingan “Uzbekiston Respublikasining 2012 yilgi Investitsiya dasturi tug’risida”gi qarori mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash borasidagi ishlarning mantiqiy davomi bulganligi ta’kidlandi.

Mazkur hujjat yangi zamonaviy ishlab chiqarishlarni barpo etish, korxonalarni texnik va texnologik yangilash, zamonaviy transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari rivojini jadallashtirish hamda shu asosda yangi ish urinlari yaratish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror va izchil rivojlantirishga qaratilgan strategik ahamiyatga molik investitsiya loyihalarining amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Umumiy hisobda 2012 yil davomida 270 dan ortiq investitsion loyihalarni amalga oshirish kuzda tutilgan. Sanoatda yirik investitsion loyihalarni amalga oshirish 2011-2015 yillarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini urtacha yillik 109-112 foizga oshirishni ta’minlagan holda, mahalliy xomashyo va tabiiy resurslarni chuqur qayta ishlash asosida yuqori qushimcha qiymatga ega sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda jadal sur’atlarga erishish, shuningdek, sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 2011 yildagi 24,1 foizdan 2015 yilda 28 foizga yetkazish va sanoat mahsulotlari eksportining umumiy sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmidagi ulushini 2011 yildagi 42,3 foizdan 2015 yilgacha 63,2 foizga yetkazish imkonini beradi.

Prezidentimiz Islom Karimov 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga muljallangan eng muhim ustuvor yunalishlarga bag’ishlangan Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasida uz vaqtida tanlangan iqtisodiy taraqqiyot modeli va uning tamoyillari asosida mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish buyicha har tomonlama chuqur uylangan tadrijiy taraqqiyot dasturining izchil amalga oshirilishi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining iqtisodiyotimizga, moliya va

bank tizimiga salbiy ta'sirini sezilarli darajada kamaytirish imkonini berganini ta'kidladi. Natijada iqtisodiyotimizning yuqori barqaror ushish sur'atlari va makroiqtisodiy mutanosibligi ta'minlandi. 2010-yil yakunlariga kura, mamlakatimizning yalpi ichki mahsuloti 8,1 foiz, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,3 foizga usdi, boshqa tarmoqlarda ham kursatkichlar sezilarli darajada oshdi. Eksport qiluvchi korxonalarini har tomonlama qullab-quvvatlash va eksport tarkibini diversifikatsiya qilish, mahsulotlarni sotishning yangi tashqi bozorlarini faol uzlashtirish 2010-yilda eksport hajmining 10,8 foizga usishini ta'minladi. Davlatimiz rahbarining 2010-yil 15-dekabrda qabul qilingan va mamlakatimiz sanoatini barqaror, jadal hamda muvozanatli rivojlantirishga yunaltirilgan "2011-2015-yillarda Uzbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yunalishlari tug'risida"gi qarori mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash jarayonining mantiqiy davomi buldi. Mazkur qarorga kura, sanoat korxonalarini keng miqyosda isloh etish, eng zamonaviy yuqori texnologik uskunalar bilan jihozlash, ularda ilg'or ilm-fan yutuqlari va innovatsiya texnologiyalarini jadal tatbiq etish, yuqori malakali kadrlar tayyorlashni kengaytirish va shu orqali mamlakatimiz sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish, bozor konyunkturasi uzgarishlariga bog'liqligini kamaytirish kuzda tutilgan. Qabul qilingan ushbu hujjat ichki sanoat kooperatsiyasi va ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, sanoat tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, sanoat korxonalarini mamlakatimizning barcha hududlarida maqbul ravishda joylashtirishga xizmat qiladi. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda uning tashqi bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlaydigan xalqaro sifat standartlari va texnik reglamentlarni tizimli tarzda joriy etish ham muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimiz sanoatini rivojlantirishning maqsadli kursatkichlari moliyalashtirish manbalari belgilangan bulib bu sanoatda amalga oshiriladigan hamda amalga oshirishga tayyorlab quyilgan invetsitsiya loyiqualari ruyxati, ishlab chiqish bosqichida bulgan yangi investitsiya loyihalari, oldindan ishlab chiqilayotgan

sanoatdagi istiqbolli investitsiya loyihalarini uz ichiga oladi. “2011-2015-yillarda Uzbekiston sanoatini rivojlantirishning ustuvor yunalishlari tug’risida”gi qarorda sanoat sohasida umumiy qiymati qariyb 50 milliard dollarni tashkil etadigan 500 dan ortiq yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish kuzda tutilgan. Yaqin besh yil ichida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini kamida 80 foizga oshirish, yalpi ichki mahsulotda uning ulushini 2010-yildagi 24 foizdan 2015-yilda 28 foizga kupaytirish zarur. Bu borada mashinasozlik, avtomobilsozlik, kimyo, oziq-ovqat, farmatsevtika, qurilish materiallari sanoati va boshqa sohalarni jadal rivojlantirish hisobidan ushbu tarmoqlarda ikki barobardan ziyod usishga erishiladi. Uzbekistonda investorlar uchun kup jihatdan uta qulay investitsion muhit, imtiyoz va preferensiyalar tizimi yaratilgan. Iqtisodiyotimizga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi yildan yilga ortib borayotgani ham buning yorqin dalilidir. Iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash, uy-joy qurilishi, transport va infratuzilma kommunikatsiyalarini rivojlantirish buyicha faol investitsiya siyosatining amalga oshirilishi 2010-yilda 2009-yilga nisbatan 13,6 foizga kup, ya’ni qiymati 9,7 milliard AQSh dollariga teng miqdordagi investitsiyalarni uzlashtirish imkonini berdi, bu yalpi ichki mahsulotning qariyb 25 foizini tashkil etadi. 1 098 ta yangi ishlab chiqarish quvvati ishga tushirildi, 296 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish yakunlandi. 2011-yilda xalqaro moliya institutlari va xorijiy kompaniyalar bilan tuzilgan shartnoma va bitimlar asosida iqtisodiyotimizning real sektoriga 3 milliard dollardan ortiq investitsiya kiritish kuzda tutilmoqda. Shuning 2,2 milliarddan ortig’i yoki 73 foizdan ziyodini tug’ridan-tug’ri chet el investitsiyalari tashkil etadi. Tug’ridan- tug’ri chet el investitsiyalari hisobidan iqtisodiyotimizning kuplab tarmoqlarida 70 dan ortiq investitsiya loyihasini amalga oshirish muljallanmoqda.

Mamlakatimizning 2011-yilga muljallangan investitsiya dasturi investitsiya siyosatini amalga oshirishga katta turtki berdi. Ushbu dasturning parametrlari Prezidentimiz Islom Karimovning 2010-yil 29-dekabrda qabul qilingan Uzbekiston Respublikasining 2011-yilgi investitsiya dasturi tug’risidagi qarori bilan tasdiqlangan. Shuningdek, uning asosiy

parametrlari, Davlat budjeti va budjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari hisobidan markazlashtirilgan kapital quyilmalar limitlari, xorijiy kreditlar, tug'ridan-tug'ri chet el invetsitsiyalari, Uzbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot fondi va boshqa manbalarni jalb etgan holda aniq yunaltilgan dasturlar ham tasdiqlandi. Uzbekiston milliy avtomagistralini rekonstruktsiya qilish, "Tuyabug'uz-Bekobod" ichimlik suv ta'minoti tizimini barpo etish, Namangan shahrida kanalizatsiya inshootlarini kengaytirish, Dehqonobod kaliy ug'itlari zavodining, Ushyurt gaz-kimyo kompleksining ikkinchi bosqichini qurish va boshqalar eng muhim loyihalar sirasiga kiradi. 2011-yilda 35 dan ortiq yirik ishlab chiqarish korxonasi qurilishini yakunlash va foydalanishga topshirish vazifasi quyildi. Mamlakatimizda iqtisodiyotning muhim tarmoqlarini tarkibiy uzgartirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni faol davom ettirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani, ayniqsa, qishloq joylarda, rivojlantirishni jadallashtirish, shuningdek, yurtimiz ishlab chiqaruvchilari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini har tomonlama qullab-quvvatlash orqali zamonaviy, diversifikatsiyalashgan hamda raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar barqaror va yuqori iqtisodiy usish sur'atlarini ta'minlash imkonini bermoqda. Joriy yilning utgan tuqqiz oyida mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot usishi 8,3 foizni, sanoat ishlab chiqarish hajmi ham 8,3, qishloq xujalik ishlab chiqarish hajmi 7,8, xizmat kursatish hajmi 11,2, qurilish ishlari hajmi 9 foizni tashkil qildi. Mamlakatimiz eksport korxonalarini qullab-quvvatlash, eksport tuzilmasini diversifikatsiya qilish va respublikamizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish buyicha yangi tashqi bozorlarni uzlashtirishga doir amalga oshirilayotgan samarali chora-tadbirlar eksport hajmini 10,9 foizga oshirish imkonini berdi. Mahalliyashtirilayotgan mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi 1,4, import urnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish samaradorligi 1,3 baravar oshdi. Bunda sanoat kooperatsiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sanoat kooperatsiyasi iqtisodiyotni jadal va barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarish jarayoniga yangi, samarali texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish, mahalliy xomashyo va ishlab chiqarish resurslarini keng

qullash, shu asosda zamonaviy, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, valyuta resurslarini tejash hamda ulardan oqilona foydalanish, shuningdek, yangi ish urinlarini tashkil etish, ichki bozorda tovarlar va xizmatlar barqarorligini mustahkamlashni ta'minlamoqda. Shu yilning may-iyul oylarida utkazilgan va 1453 ishlab chiqarish korxonasi qatnashgan hududiy hamda tarmoqlar sanoat yarmarkalarida mahsulot xarid qilish va yetkazib berish buyicha qiymati 1,5 trillion sumlik 2644 shartnoma tuzildi.

Xulosa va takliflar

Mazkur dissertatsiya ishi "Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ekologik muammolarni hal etish va uning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri" mavzusi doirasida bajarildi. Ushbu magistrlik dissertatsiya ishida ekologik muammolar tahlil qilindi. Ekologiya sohasining hozirgi kundagi dolzarb muammolaridan biri transchegaraviy muammolardir.

XXI asr-ekologiya asri bo'lishi shubhasizdir. Har bir inson ona sayyoramiz tabiatni ziyon yetkazmasdan o'zgartirishi, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va yashash muhitini saqlashdek muqaddas ishga o'zining munosib hissasini qo'shishi lozimdir. Hozirgi paytda dunyoning qaysi bir mintaqasini olib qaramaylik, inson hayoti uchun katta xavf to'g'ri ayotgan ekologik vaziyatni bartaraf qilishdek og'ir muammolar o'z yechimini kutib turganligining guvohi bo'ldik. Ularning yechimini topish kelajak yosh avlodning vazifalaridir. Xulosa qilib aytganda, atrof-tabiiy muhit muhofazasi va ekologik vaziyatni yaxshilash barcha davlatlar, xalqaro hamjamiyatlar, noxukumatlar uyushmalari bilan keng hamkorlikni yulga qo'yish orqaligina barqaror iqtisodiy rivojlanish, tabiat resurslaridan samarali foydalanish ekologik tenglikni bartaraf etish va atrof muhitni muhofaza qilish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Tadqiqot natijalari asosida qo'yidagi ilmiy xulosalar olindi:

- sanoat sohasi iqtisodiyotning asosiy tarmog'i hisoblanadi.

-sanoat sohasining iqtisodiy samaradorligi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

-sanoat ishlab chiqarish korxonalarida atrof muhitni muxofaza qilishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazilishi shart;

-xom-ashyo resurslarini qazib chiqarish va ekologik jihatdan sof usullar bilan ularni qayta ishlab chiqarish amalga oshirish;

-sanoatda ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtirish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish.

Dissertatsiya ishi doirasida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ekologik xususiyatlari va samaradorligini ta'minlashga qaratilgan quyidagi **ilmiy taklif** va **amaliy tavsiyalar** ishlab chiqildi:

- shaxsiy va ijtimoiy iste'molni doimiy o'rganish hamda aholini sanoat mahsulotlari bilan to'la ta'minlash;

-tarmoqlarda xom-ashyo va resurslardan oqilona foydalanish samaradorligini oshirib borish;

-jamiyat va tabiatning o'zaro aloqalarida ekologik xavfsizlikni ta'minlash;

-atrof muxitni muhofaza qilish sohasidagi xalqaro javobgarlikning mexanizimlarini yaratish;

-sanoat chiqindilarini qayta ishlash va bu tarmoqqa xizmat qiluvchi tarmoqlar faoliyatini rag'batlantirish;

-ayrim tabiiy resurslardan foydalanishni oqilona me'yorlarini belgilash;

-tabiatni muxofaza qilish tadbirlari va dasturlari uchun moliyaviy resurslarni jalb qilish;

-iqtisodiyotda moddiy tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydigan chuqur strukturaviy o'zgarishlar qilish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish, jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilib borish;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

O'ZBYEKISTON RESPUBLIKASI QONUNLAR

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi-Toshkent;
O'zbekiston,-2005.46b
- 2.O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi 1992 yil 9 dekabrda qonuni//O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. 1993. № 1. 38-m.
- 3.O'zbekiston Respublikasining Havo kodeksi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. 1993. № 6. 247-m.
- 4."Fermer xo'jaligi tug'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. O'zbekiston Respublikasining yashlovi xo'jaligiga oid qonun hujatlari.-Toshkent:- Adolat.-1999.-117b
5. O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi 1992 yil 9 dekabrda qonuni//O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. 1993. № 1. 38-m.
- 6.O'zbekiston Respublikasining «Chiqindilar to'g'risida»gi qonuni. Xalq so'zi. 2002. may.
- 7.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1997yil 18iyul, 363-son "Respublika meva-sabzavot xo'jaligida monopoliyadan chiqarish va ixtisoslashtirishni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori.- Toshkent:1997.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlari

8."Iqtisodiy isloxlarni yanada chuqurlashtirish, hususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.01.1994y. PF-745 sonli farmoni va unga ilovalar. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari 8-19 b.

9.I.A.Karimov.bizningboshmaqsadimizjamiyatnidemokratlashtirish yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islox etishdir. Oliy Majlis Konunchiligi palatasi va senatining kushma majlisi da 2005 yilda iqtisodiy isloxlarni oshirishning eng muxim ustivor yunalishlari tug'risida Toshket oqshomi.31yanvar 2005 yil

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va maruzalari.

10.Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz tarakkietini yuksaltirish, xalkimiz farovonligini oshirishga xizmat kiladi. .Prezident Pslom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iktisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga muljallangan zng muxim ustivor yunalishlarga bagishlangan Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining majlisidagi maruzasi. Xalk suzi ruznomasi 2011 yil 21 yanvar,

11.Asosiy vazifamiz - Vatanimiz tarakkieti va xalkimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. - Prezident Pslom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda Uzbekistonni ijtimoiy-iktisodiy rivojlantirishning zng muxim ustivor iunalishlariga bagishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi maruzasi // Xalk suzi,

2010 yil 30 yanvar.

12.Mamlakatimizni modernizatsiya kilish va kuchli fukdrolik jamiyati barpo ztish - ustivor maksadimizdir. - Prezident Islom Karimovning Uzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Krnunchilik palatasi va Senatining kushma majlisidagi maruzasi // Xalk suzi, 2010 yil 28 yanvar.

13.Uzbekiston Konstitutsiyasi - biz uchun demokratik tarakkiet yulida va fukdrolik jamiyatini barpo ztishda mustaxkam poydevordir. -Prezident Islom Karimovning

Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Kabul kilinganining 17 yilligiga bagishlangan tantanali marosimdagi maruzasi // Xalk suzi, 2009 yil 6 dekabr.

14.Karimov I.A. Jaxon moliyaviy-iktisodiy inkirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yullari va choralari. - T.:

O'zbekiston, 2009. - 56 b.

15.Mamlakatimizni modernizatsiya kilish va yangilashni izchil davom zttirish - davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iktisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga muljallangan iktisodiy dasturning zng muxim ustuvor yunalishlariga bagishlangan Vazirlar Maxkamasi majlisidagi maruzasi // Xalk suzi, 2009 yil 14 fevral.

16.Karimov I.A. Zng asosiy mezon - xaet xdkikatini aks zttirish. -T.: Uzbekiston, 2009. - 24 b.■

17.Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. T., 1998.

18.O'zbekiston Respublikasining Kontsituttsiyasi. T. «Adolat» 2005

19.O'zbekiston Respublikasining mehnat kodeksi. T. «Adolat» 2000. 20.Karimov I. A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yilida. T. 1995 y.

21. I.A. Karimov «O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» T.: «O'zbekiston», 1993 yil.

22. I.A. Karimov «O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'li va istiqlol yo'li» T.: «O'zbekiston», 1994 yil.

Kitoblar, monografiyalar, darsliklar, maqolalar tuplami:

23. G'oyipov X.Ye. Mehnat muhofazasi. T., «Mehnat», 2000.

24.Yuldoshov U., Usmonov U, Kudratov O. Mehnatni muxofaza qilish T., "Mexnat muxofazasi" 2004

25. Raximova X, A'zamov A, Tursunov T. Mehnatni muxofaza qilish T., «O'zbekiston», 2003

26. Quدراتov O. Ipakchilik sanoatida mehnat muxofazasi. T., «O'zbekiston», 2008

27. Agapova G.A., Seregina S.F. Makroekonomika. M.: DIS. 2000.
28. Axmedov D., Ishmuxamedov A. va b. Makroiqtisodiyot. Darslik. T. 2004y.
29. Bozor munosabatlari sharoitida milliy iqtisodiyotning rivojlanishi A.Yeshmuhamedov va b. Toshkent. O'qituvchi 2006 y.
30. Bunkina M.K. Semenov V.A. Makroekonomika (osnovi ekonomicheskoy
31. Tursunov X. T. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. T., 2007.
32. Usmonov M. B., Rustamboev M. X., Xolmo'minov J. T. Ekologiya huquqi. T., 2000.
33. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. «O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jug'rofiyasi», T.: «O'qituvchi» 2004 yil.
34. Yo'ldoshev Z.Y. «Iqtisodiy va sotsial rivojlanishni rejalashtirish» T.: «O'qituvchi» 2002 yil.
35. Nabiev E., Qayumov A. «O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati» T.: Akademiya, 2000 yil.
36. O'zbekiston Respublikasi Entsiklopediya. T.: Qomuslar bosh tahririyati, 2007 yil.
37. O'lmasov A., Sharifxo'jaev M. «Iqtisodiyot nazariyasi», T.: «Mehnat» 2005 yil.
38. O'lmasov A., To'hliiev N. «Bozor iqtisodiyoti qisqacha lug'at ma'lumotnoma» T.p 2001 yil.
39. X.Vaxobov, M. Tillaboeva «Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari» Toshkent,, 2001 yil.
40. Saushkin Yu.G. «Ekonomicheskaya geografiya: istoriya, teorea, metod, praktika»
41. Soliev A.S, Mallaboev T, «Iqtisodiy va sanoat geografiya kursida ayrim qonuniyatlarini o'rganish metodikasi» Toshkent, 2008 yil.
42. Ro'ziev A «Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish asoslari» Toshkent. 2000
43. Rafikov A.A., Geoekologik muammolar. T.O'qituvchi, 2007, 112b.

44. Abdullaev O., Toshmatov Z. "O'zbekiston ekologiyasi bugun va ertaga". T. Fan, 2002 y.
45. Otaboev Sh., Nabiev M. "Inson va biosfera". T.O'qituvchi, 2005, 320 b.
46. Shodimetov Yu. "Ijtimoiy ekologiyaga kirish" T.O'qituvchi, 2004.
47. Alibekov L.A., Nishonov S.A. - Fan-texnika taraqqiyoti, tabiat va inson. Toshkent, 2004
48. Buriev O. - Avesto: tabiat, inson va qonun. Jurn. qonun himoyasida. Toshkent, 9/2000
49. Verzilin N.N. va boshk. "Bisofera, yee nastoyayee, proshloe i buduyee". ML 976
50. Vorontsov N.N., Suxorukova L.N. "Evolyutsiya organicheskogo mira". M. 2001.
51. Rausher A. Chastnaya sobstvennost v interesax cheloveka truda. Moskva: Delo, 1994. -22 b.
52. Xromov Yu.S. Ferma i agrobiznes. -Moskva: Agropromizdat, 1992. -33 6.

Statistik tuplamlar.

53. O'zbekiston ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishning 2005 yildagi asosiy ko'rsatkichlari. -Toshkent, -2006. -80 b.
54. O'zbekiston ijtimoiy.- iqtisodiy rivojlanishning 2006 yildagi asosiy ko'rsatkichlari. -Toshkent, -2007. -86 b.
55. O'zbekiston ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishning 2007 yildagi asosiy ko'rsatkichlari. -Toshkent, -2008. -90 b.
56. Selskoe xozyaystva Respubliki Uzbekistan 2001. -T.: -2002.-406.
57. O'zbekiston ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishning 2001 yildagi asosiy ko'rsatkichlari. -Toshkent, -2002. -112 6.
58. Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi 2001-2010 yillar statistik tuplami.

Internet saytlari.

www.rgess-segvise.uz.-Prezident sayti. www.qov.uz.-
Xukumat sayti.

www.rgavo.uz. Zakonodatelnaya baza RespublikiUzbekistan.

www.uzrerogt.sot. Novosti Uzbekistana

Mundarija

Kirish.....4

I-Bob.O'zbekistonda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning nazariy-huquqiy
asoslari.....9

1.1.Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning mohiyati va xususiyatlari.....	9
1.2.Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish munosabatlarining iqtisodiyotdagi ahamiyati.....	41
II-Bob. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ekologik jihatlar.....	54
2.1 Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi va unga ta'sir etuvchi asosiy omillar.....	54
2.2 Ayrim sanoat tarmoqlarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning xususiyatlari tahlili.....	61
2.3 Rivojlangan davlatlarda sanoat sohasining rivojlanish tajribalari.....	102
III-Bob. Sanoat sohasining rivojlanishida ekologik muammolar.....	113
3.1 Sanoat sohasini rivojlanishida ekologik muammolarning bartaraf etish yo'llari.....	113
3.2 Sanoat sohasi rivojlanishining samaradorligini oshirish masalalari.....	127
Xulosa va takliflar.....	139
Foydalanilgan adabiyotlar	141